



Ziyodaxon AZIMOVA

TARBIYAVIY ISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOVA Ziyodaxon Ergasheva

TARBIYAVIY ISH METODIKASI

**5110900 -«Pedagogika va psixologiya» bakalavriat ta’lim
yo‘nalishi uchun**

O‘quv qo‘llanma

**Andijon – 2021
«Hayot nashri-2020» nashriyoti**

UO*K 37.091.3:17(075)

KBK 83.3(5Y36)

A 37

Azimova Z. Tarbiyaviy ish metodikasi. Matn. Andijon – 2021.
«Hayot nashri-2020» nashriyoti. 236 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari; bolajak tarbiyachilarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning sifat samaradorlik yo'llari, bakalavr talabalarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda tarbiya paradigmalari, tarbiya jarayonida bola shaxsi; tarbiya metodikasi tushunchasi; insonparvarlik tarbiyasi tamoyillari, metod va texnologiyalari; tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo'llari; guruh rahbarining faoliyati, bolalar va yoshlar jamoat tashkilotlari; tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish mexanizmlari ochib berilgan. O'quv qo'llanmada kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalarining qonuniyatlari yoritilgan bo'lib, u 5110900 -«Pedagogika va psixologiya» bakalavriat ta'lim yo'nalishining «Tarbiyaviy ish metodikasi» fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

Ya.Umarova – ADU Pedagogika bo'yicha falsafa doktori

A. Xaliqov – TDPU kafedra mudiri, p.f.d., prof.

ISBN 978-9943-7117-8-5

© Azimova Z. E.

© Tarbiyaviy ish metodikasi.

1-MAVZU

TARBIYA IJTIMOYIY-TARIXIY JARAYON SIFATIDA

Reja:

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari;
2. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi;
3. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch soʻz va tushunchalar: tarbiya, oʻqituvchi, oʻquvchi, bola, jamiyat, mazmun-mohiyat, funktsiya, ilmiy-tadqiqot metodlari, ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy ahamiyat, munosabat, dunyoqarash, komil inson, fanlararo aloqa.

Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2018-yil 10-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda qilgan maʼruzasida «Biz, «Tarbiya goʻdaklikdan boshlanadi», – degan hikmatli soʻzga amal qilib, taʼlim-tarbiya sohasidagi oʻzgarishlarni uning quyi bosqichi – maktabgacha taʼlim tizimidan boshladik», – degan fikrlari tizimdagi muammo va kamchiliklarni ijobiy tomonga oʻzgarishida dasturi amal boʻlib xizmat qiladi desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Hech shubhasiz, tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayondir. U bir muddat ichida bor yoki yoʻq boʻlib qolmaydi. Tarbiyaviy jarayon uzluksiz, ketma-ketlik va izchillik tamoyiliga tayangan holda amalga oshadi va albatta, oʻzining samarali natijasini beradi. Eng qadimgi davrlardan to bugungi kungacha «**inson tarbiyasi**» dolzarb masala sifatida yer yuzining barcha xalqlarida birdek qaralishini taqozo etmoqda.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida «**Tarbiya**» arabcha soʻzdan olingan boʻlib, «Rivojlantirish; parvarish qilish, oʻstirish; oʻrgatish; ilm berish maʼnolarini anglatadi. Bundan tashqari lugʻatda 2 maʼnosi ham ifodalangan boʻlib., 1-taʼlim, axloq-odob va shu kabilarni oʻrgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulgʻaytirish, oʻstirish deya izohlansa, 2-insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak



bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish – amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi», degan ma'nolarni anglatadi.¹

Pedagogika fanidan izohli lug'atda esa, «**Tarbiya**» keng ma'noda u yoki bu sifatarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq, odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifasi.

Tarbiyalashning tor ma'nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta'sirida ijtimoiy amaliyotning har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo'naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni. Tarbiyalash ijtimoiylashtirishning asosiy xalqasi bo'lib, u o'qitish bilan uzviy ravishda bog'liq hamda ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir².

Bunday o'zaro ta'sirlardan paydo bo'lgan kuchdan samarali foydalanish uchun yonaltirilgan tarbiyaviy ta'sirning muvaffaqiyatli bo'lishi yetakchi o'rinni egallaydi.

Insonning ijtimoiy rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi kishi ehtiyojlari ta'sirida yuz beradigan obyektiv omillar, odamlarning oddiy, biologik va jismoniy moddiy ehtiyojlardan boshlab, oliy ma'naviy va ruhiy ehtiyojlari majmuini qondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytiladi.

Ehtiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O'zining ehtiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar qidiradi. Ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud bo'lganda, kishi o'zini baxtiyor his etadi. Aks holda ozini baxtsiz, deb bilib, unda harakat kuch paydo bo'ladi. Agar odamning axloqiy tarbiyasi to'g'ri bo'lsa u ijtimoiy rivojlanadi.

Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatleri nuray boshlaydi

¹N.To'xiev umumiy tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati uchinchi jild N-Tartibli «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2007, 678-b.

²J.Hasanboev, X. To'raqulov, M.Xaydarov, O.Hasanboyeva. Pedagogika fanidan izohli lug'at T.: «Fan va texnologiya» 2008, 313-314-b.



va ijtimoiy illat (o'g'rilik, nashavandlik, yolg'on so'z, firibgarlik) larga duchor bo'ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to'g'ri yollarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo'lib, yaxshi ijtimoiy sifatleri takomillashib boradi.³

Tarbiya bu uzluksiz davom etuvchi asrlardan asrlarga ulanib boruvchi jarayondir. Bunda har zamonda ortish yoki bo'rtish xolati ko'zga tashlanadi. Aziz talaba tarbiyaning har qaysi davrda dolzarb masala bo'lganligini allomalarning fikrlaridan bilib olishimiz mumkin.

Husayn Voiz Koshifiy insonning eng yuksak xulq-atvor egasi bo'lishi uchun o'nta qoidaga amal qilish zarurligini ilgari suradi: «Elga teskari ish qilmaslik, o'z nafsiga insof tilash va tiyish, kishi aybini ochmaslik, kishilarda uchraydigan yomon xulq-atvorni yaxshilikka tomon burish, o'z aybiga iqrar bo'lib, uzr so'ragan kishining uzrini qabul qilish, och-yupunlarning xojatini chiqarish, inson uchun mashaqqat tortish, xalqqa toza yuz bilan ko'rinish, kishilarga yaxshi so'z aytish, inoqlikka, tinch-totuv yashashga chaqirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib etish, kasb-hunar, ilm-ma'rifatni egallashga chaqirish, ilmi kishilarning jamiyatda tutgan o'rnini ta'kidlab, olimlarni, umuman, ilm ahlini e'zozlash kerak», - deydi.

Koshifiy axloq-odobga doir quyidagi fikrlarni ham keltirib o'tgan:

– Komil inson yetuk axloqlilik haqidagi fikrlarni an'anaga ko'ra buyuk donishmandlar, sarkardalar, shohlar tilidan bayon etadi va ularni adolatli, dono, oqil va kamtar inson sifatida ta'riflab, o'zining komil inson haqidagi konseptsiyasini ilgari suradi.

– Koshifiy faqat podsholarnigina emas, har bir oddiy insonda ham eng oliyjanob xislatlar tarkib topishini istaydi.

– U o'zining ijtimoiy axloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita, deb ilm ma'rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi.

– Koshifiy odobli insonni axloqli, deb tushunadi. Inson faqat odobli, sahovatli, to'g'ri, halol, pok bo'lgandagina haqiqiy inson bo'lishi mumkin. Insonparvarlik va halollikni eng yuksak insoniy fazilatlaridan deb biladi.

Pedagogika tarixi ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning

³ Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).



harkatlantiruvchi kuchi bo'lishi, inson kamoloti haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etiladi. Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o'rnatilgan. Bu yerda o'ziga xos ta'lim – tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratilgan. Yunonistonlik olimlar – Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflotun (427-347), Arastu (383-322), shuningdek, mashhur Rim pedagogi Kvintilian (42-118) lar o'z asarlarida ta'lim – tarbiya, o'qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratganlar.

Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rta qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini, salbiy namunalarning zarurligini ta'kidlagan.

Aflotun bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa, qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. «Agar pedagog yoki ota-ona, – degan edi u, – bolaga: mana bu adolatli, bu esa – adolatsiz, bu ishni qilish yaxshi, bu esa – uyat, bu narsa – muqaddas, bu esa – nopoklik: bu ishni qilish kerak, buni qilmaslik lozim, deb aytmasa va ko'rsatmasa bolani tarbiyalay olmaydi».

Arastuning «Iskandarga nasihat»i⁴da bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan hamon qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham o'qituvchi bobida diqqatga sazovordir⁵.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning falsafiy va pedagogik qarashlarida tarbiyadan kutilgan maqsad insonnomani bilishini bilib olishiga erishish; uni tarbiyali shaxs qilib voyaga yetkazish; u o'zining tarbiyasida mardlik, donolik, mo'tadillik tushunchalarini belgilab

⁴ «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» Toshkent, «O'qituvchi». 1995, 39-46-b.

⁵ Pisarenko V. I. Pisarenko P. Ya. Pedagogicheskaya etika. Minsk, 1977. 10-11-b.



boradi. Uning fikricha, mardlik qoʻrquvni daf qilish, donolik, jamoat qonunlariga rioya qilish yoʻllarini oʻrganishdir.

Suqrotning taʼlimoticha, inson, eng avvalo, umumiy axloq meʼzonlarini, inson uchun muqaddas boʻlgan fazilatlarni egallab olishi kerak.

Yunonistonning mashhur, mumtoz faylasufi Aflotun tarbiyani tashkil etish haqidagi fikrlarini «Davlat», «Qonunlar» asarida bayon etadi. Uning fikricha, kattalarning bolalarga koʻrsatgan taʼsiri, bolalarda axloqiy sifatlarning tarkib topishida koʻrinadi.

His-tuygʻuga taʼsir etish kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashni asosi, deb hisoblaydi. Faylasuf bolani tarbiyalashda adabiy asarlardan oʻqib berish, afsonalarni hikoya qilish juda katta samara berishini taʼkidlagan.

Qadimgi yunon mutafakkiri Arastu oʻzining axloqqa oid «Nikohma etilak» «Entim elikusi» asarlarida tarbiyaning maqsadi tabiat bilan bogʻliq insonlarning bosqichma-bosqich rivojlanishidan iboratligini, aql va irodani rivojlantirish muhim ekanligini aytadi. Uning taʼlimotiga koʻra bolalarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda tarbiya muddatini 21 yil – bola tugʻilgandan 7 yoshgacha, 7 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha, deb belgiladi. U bolaning har bir davridagi oʻziga xos xususiyatini koʻrsatadi, har bir davrda amalga oshiriladigan tarbiyaning maqsadi, mazmuni va usullarini bayon etadi.

A.S.Makarenkoning fikricha esa, «Tarbiya sohasi baʼzi hollarda taʼlim metodikasidan farq qiluvchi alohida sohadir... Tarbiyaviy ish metodikasi taʼlim mantigʻidan farqli oʻlaroq, oʻz mantigʻiga ega. Taʼlim va tarbiya – pedagogikaning ikki boʻlimini tashkil etadi»⁶.

Pedagogika shaxsning kamolga yetishini murakkab ziddiyatli jarayon, deb biladi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan taʼlim-tarbiya va nihoyat oʻzining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. R.Mahmudov Koshifiyning axloqiy gʻoyalariga insonni kamolga yetkazish maqsadida uni tarkib toptirish uchun zarur boʻlgan xislatlarni unga boʻlib turkumlashtiradi.

Barchamizga maʼlimki, Respublikamizda ham mustaqillikning ilk

⁶Makarenko A. S. Sochineniya: v 8 t. T. 5 Gʻ A. S. Makarenko. – M.: APNSSSR, 1985. – 333 b.



yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxsni tarbiyalashga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.⁷ Yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, shaxsiy ishiga maqsadli yondashuv hamda reja va amal birligi hissini uyg'otish navbatdagi vazifa ekanligi belgilandi.

Har bir o'qituvchi qaysi sinfda qanday fandani dars berishidan, qanday bolalar jamoasi bilan ishlashidan qat'i nazar hamisha va har doim tarbiyachi hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyaning metodlarini, uni shakllarini tashkil qilish mahoratini egallash – har bir pedagogning eng muhim vazifasi. Tarbiyaviy ish metodikasi fani tarbiyalash mahoratining asoslarini bayon qiladi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi oldida dars o'tish, to'garaklar mashg'ulotlarini olib borish, o'quvchilarni ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil qilish, ularni turli ijodiy faoliyatga jalb qilish, ularda serqirra qiziqishlarni shakllantirish kabi keng ko'lamli vazifalar yotadi. Qanday maqomni ijro etmasin u birinchi galda yaxshi tashkilotchi, mohir targ'ibotchi, pedagogik ta'sir etish ustasi bo'lishi kerak.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Birgina «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ining qabul qilinishi bu sohada yurgizilayotgan siyosatni yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligining dalilidir.

Tarbiya-yoshavlodni hartomonlamavoyagayetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun

⁷ Qurbonniyozova Z. «Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.



zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonlaridir.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, itilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar tashkil topadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: «Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi...

... har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim ...»

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak qilib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarini singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;



faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

– **tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar**

– bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;

– **tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi.** Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

– tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart-sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalarga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funktsiyalarini o'z ichiga oladi.

– **o'quvchi-yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish** – tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq.

– **tarbiyaviy ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi** – tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ilm olishi, o'z qobiliyatlarini har tomonlamaa rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Ta'lim to'g'risida qabul qilingan qonunda esa



maktabning, unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi.

Ma'lumki, yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo'lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o'rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari bor. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti sinfda va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish, har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo'nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'atining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining o'rganish obyekti esa ta'lim muassalaridagi uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilamaing tarbiyaviy ish va tadbirlarning mazmunli bo'lishini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanishga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilgandir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi, milliy istiqloq talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga



yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Shunialohidata'kidlashkerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolotining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Shu jihatdan har tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Albatta, bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. O'zbekiston mustaqilligi tufayli shaxsni tarbiyalashga, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning mazmunida yoshlar tarbiyasi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan 2008-yilni «Yoshlar yili» va 2010-yilni «Barkamol avlod yili», 2012-yilni «Mustahkam oila yili», 2013-yilni «Obod turmush yili», 2014-yilni «Sog'lom bola yili», 2016-yilni «Sog'lom ona va bola yili», Sh.Mirziyoyev tomonidan esa, 2017-yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili», 2020-yilni «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilinishi va ushbu yillar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya barkamol avlodning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilar turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

«Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi:



iste'dodga, ilmga va mashqqa», – degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;
- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;
- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosiga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an'analarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish;
- tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish;
- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish;
- tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;
- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga DTS lariga mosligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy



jiyatiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlilikka, metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va uning vazifalarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

– Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'rganishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga mos ravishda bir qancha ta'lim-tarbiyaga oid fanlarga bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

– Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

– Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish shug'ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muassalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi.

– Tarbiyaviy ishlar jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'rganishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga mos ravishda bir qancha ta'lim-tarbiyaga oid fanlarga bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish shug'ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muassasalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlari tayanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erisholmaymiz. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasining fanlar bilan ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga egaligi, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy



jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarining iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni o'rganishga yordam beradi.

Gigiyena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishga nazariy va amaliy g'oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o'rgatish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Bundan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi fani pedagogika fanlari tizimi bilan uzluksiz va mustahkam munosabatga ega hisoblanadi. Ular



quyidagilardir:

Umumiy pedagogika - pedagogikaning konseptual masalalari va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlar va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Metodika - xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni



yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi - xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qommiyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya - ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunslilikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'limning antropologik modeli va texnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsnig yetuk rivojlanish cho'qqisi - «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.

Sanab o'tilgan fanlarning tarbiya jarayonida qisman bo'lsada ishtirokini sezamiz. Ularning qaysidir birini tarbiya tizimi to'g'ri tashkil etishda ahamiyat kasb etmasligi ko'zga tashlanmaydi. Zero,

har birining murojaat qilinadigan o'z o'rnini va vaqti bor.

Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Ta'lim-tarbiya jarayoni muayyan pedagogik muammolarni tadqiqotish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya faoliyatida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rnini va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi. Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur.

Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;



– tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;

– tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini bashorat qilish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi kabilardir. Zamonaviy sharoitda, tarbiyaviy ishlar yuzasidan tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod⁸.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida olingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish,

⁸B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 34-39 b.



muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samaradorligi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchilikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida awaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil bayon etishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar). Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:
 - 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
 - 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmashligi kerak;
 - 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
 - 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini

ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi. Respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va boshqa narsalar) qayd etilgan daftar va hokozalar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:



1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham xoli emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligim asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma‘lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma‘lum o‘quvchiga xos individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- bilimlar bellashuvi;
- fan olimpiadalari;
- turli mavzulardagi tanlovlar;
- maktab ko‘rgazmalari;
- festivallar;
- musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko‘rish»,



«tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma‘lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash hamda unga baho bera olishi zarur.

Tarbiyaviy ishlar tizimi va tarbiya jarayoni har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a‘zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikka yuz tutadi va oqibatda inqirozi mahkam bo‘ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o‘sib, rivojlanishi uchun moddiy va ma‘naviy boyliklar yetishtirishni, ajdodlardan yaxshiroq darajaga ko‘tara bilishi kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma‘naviy qobiliyatlar shakllantirishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Nazorat savollari

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari?
2. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan?
3. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ahamiyati?
4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining fanlar tizimidagi o‘rni?
5. Tarbiyaviy ishlar tizimida pedagogning vazifalari va uning o‘ziga xosligi?
6. Sharq mutafakkirlarining ijodiy merosida tarbiyaning ulug‘lanishi?
7. O‘qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Президентимиз Ш.Мирзиёев. 2018 йил 10 декабрда «Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллиги»га бағишланган тантанали маросимда қилинган маърузасидан.

2. Каримов И.А. «Юксак маънавият — енгилмас куч» Т.: «Маънавият». 2008.

3. Каримов И.А. Энг асосий мезон — ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. — Тошкент, «Ўзбекистон», 2009. — 24 бет.

4. А.Авлоний «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» Т, 1992й. 160 б.

5. А. Волжский. Методика воспитательной работы с молодежью. — М. 2003.

6. Б.Х.Ходжаев. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Дарслик. - Т.: «Сано-стандарт» нашриёти, 2017йил, 34-39 б.

7. Ж.Ҳасанбоев, Х. Тўрақулов, М.Ҳайдаров, О. Ҳасанбоева. Педагогика фанидан изоҳли лугат. Т.: «Фан ва технология» 2008, 313-314-б.

8. Макаренко А. С. Сочинения: в 8 т. Т. 5/А. С. Макаренко. — М.: АПН СССР, 1985. — 333 б.

9. Н.Тўхлиев умумий таҳрири остида. Ўзбек тилининг изоҳли лугати учинчи жилд Н — Тартибли «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, Т.: 2007, 678-б.

10. Писаренко В. И. Писаренко П. Я. Педагогическая этика. Минск, 1977. 10-11-б.

11. Р.Мавлонова, Б. Нормуродова, Н. Раҳмонкулова, Тарбиявий ишлар методикаси. -Т.: «Тиб-китоб», 2010.

12. Қурбонниязова З. «Тарбиявий ишлар жараёнида тарбияланувчиларда миллий ўзликни англашни шакллантиришнинг педагогик асослари» номзодлик диссертацияси. Т., 2002.

13. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

1. www.zivo.net

2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz

4. www.iste'dod.uz

5. www.lex.uz

6. www.mv.gov.uz

2 - MAVZU

JAHON TARBIYA KONSEPTSIYALARI

Raja:

1. Konsepsiya tushunchasining mazmuni.
2. Tarbiya konsepsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.
3. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari.

Tayanch soʻz va tushunchalar: Tarbiyaviy ishlar, konsepsiya, mustaqillik, ma'naviyat negizi, iftixor, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, iymon va e'tiqod, tarbiya, uzluksiz ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya konsepsiyasi.

1. Konsepsiya tushunchasining mazmuni. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.

Konsepsiyaning maqsadi. Yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Wikipediya da esa, «Konsepsiya» (lotincha «Conceptio» «tushunish tizimi» degan ma'noni anglatadi. «Bir narsaga qarashlar majmui, bir-biri bilan bog'liq va o'zaro bog'liq tizim; har qanday hodisani tushunish, talqin qilishning ma'lum bir usuli; asosiy nuqtai nazar, ularni yoritish uchun qo'llanma; hodisalarga – dunyoda, tabiatda, jamiyatda qarashlar tizimi; yetakchi g'oya, konstruktiv printsip – ilmiy, badiiy, texnik, siyosiy va boshqa faoliyat turlarida; muammoni hal qilish usullari tizimi; faqat o'ziga xos bo'lgan mulohazalar va xulosalar chiqaradigan har qanday hodisani tushunish, farqlash va izohlash usuli», – deya izohlanadi.

Konsepsiya tushunchasining mazmuni. O'zbek tilining izohli lug'atida, «Konsepsiya – lotincha, qarashlar, fikrlar sistemasi; fikr



yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli» sifatida taʼrifi keltirilgan⁹. Bizningcha esa, «**Konseptsiya** – maqsadga yetishishning xomaki rejasi mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konseptsiya yoki ilmiy asoslangan taxminga» aytiladi.

Konseptsiya harakatlar strategiyasini belgilaydi. Turli tushunchalar oʻzlarining terminologik apparatlariga ega. Taxmin ilmiy asoslanib, konseptsiyaga aylanayotganda oʻz bosqichida qolib ketishi yoki xomaki taxminning baʼzi oʻrinlari tasdiq topib, baʼzi oʻrinlari inkor qilinishi yoʻli bilan konseptsiyaga aylanadi. Xomaki taxminning hamma oʻrinlari yuz foiz konseptsiya bosqichga oʻtmaydi¹⁰.

Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida turli jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi boʻlib turibdi. Chunki jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy oʻzgarishlarni insonning oʻzini oʻzgartirmay turib amalga oshirib boʻlmaydi. Jahon tarbiyasi insonlarni doimiy taʼlim olish orqali rivojlanib borish insoniyatni bilim egallashga, qobiliyatlarini oʻsib borishiga va kelajakda komil inson boʻlib, jamiyatda oʻz oʻrnini topib olishiga imkoniyatlar yaratib beruvchi eng qadrli narsa hisoblanadi. Shu sababli ham, dunyoviy tarbiya millatlararo muhim hisoblanadi. Chunki bu nafaqat insonni rivojlantiradi, balki jamiyatning yuksak darajada rivojlanishiga turtki boʻladi. Mana shu sabablar uchun dunyo davlatlari jahon tarbiyasiga eʼtibor qaratmoqda.

Ammo yangi kishini tarbiyalash oʻz-oʻzidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Jahon tarbiyasiga bundan tashqari turli xil taʼriflar berilgan. Masalan, bunday tarbiya insonlarni dunyoda tinchlik oʻrnatishga, oʻzaro tenglikka, umumiy teng huquqlikka chorlovchi, dunyoga nisbatan yaxshi fikrli boʻlishga undovchi bir vositadir. Bulardan tashqari, jahon tarbiyasi urushlarni oldini olishga va dunyoviy anʼanalarni keng yoyilishiga sababchi boʻluvchi muhim omil hisoblanadi.

Tarbiya yoki farzandni voyaga yetkazish farzandni chaqaloqlik davridan to voyaga yetgunga qadar uni fiziologik, ruhiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishi uchun qoʻllab quvvatlash jarayonidir. Tarbiya faqatgina

⁹Z. M. Maʼrufov. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. M.: «Rus tili» nashriyoti, 1981, 397-b.

¹⁰J. Hasanboyev, X. Toʻraqulov, M. Xaydarov, O. Hasanboyeva. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. T., Fan va texnologiya», 2008, 162-bet.



biologik aloqani emas, balki farzand voyaga yetkazishdagi barcha mayda xususiyatlarni nazarda tutadi. Tarbiyada, umuman olganda, birinchi navbatdagi g'amxo'rlik qiluvchi ota-ona hisoblanadi. Holbuki, tug'ishgan aka yoki opa, bobo va buvi, qonuniy vasiy, amma, xola, amaki yoki tog'a, boshqa oila a'zosi yoki oilaga yaqin munosabatdagi shaxs ham bu vazifani bajarishi mumkin. Tarbiya jarayonida davlat va jamiyatning roli ham muhim. Yetim qolgan va qarovsiz qolgan (tashlab ketilgan) bolalar g'amxo'rlikni qarindoshlik rishtalari bo'lmagan begona shaxslardan olishadi. Boshqalari asrab olinadi yoki mehribonlik uylarida voyaga yetishadi. Tarbiya metodlari turli xil va yaxshi tarbiya metodlariga ega ega bo'lgan ota-ona namunali ota-ona deb hisoblanishi mumkin. Tarbiya metodlari vaqtlar o'tishi mobaynida, irq, etnik kelib chiqish, ijtimoiy guruh va boshqa ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarib boradi.

Zamonaviy hayot doimo inson huquqlari va har bir shaxsning qadrigimmati yetakchilikni olishi uchun sharoit yaratadi. Bugungi kunda ko'p tarbiyachilar tushunishdiki, mamlakatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarish faol hayot, o'ziga ishonish, mustaqil bo'lish, xohish-iroda kabi xarakter xususiyatlarni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu holat butun boshli fundamental bardavom pedagogikaning o'zgarishiga, ayniqsa, tarbiya konseptsiasining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

1. Tarbiya konseptsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. Tarbiyaviy ishlar konseptsiasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar g'oyalar, ish uslublarini ishlab chiqish va o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida ta'lim islohotlarda olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» risolasida shunday deb yozgan edi:



«Maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq».

«Yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarini asrab, avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il qizlari etib tarbiyalash masalasi, ma'naviyat yuzasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i lozim».

Ijodkor ilg'or o'qituvchi-tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad, milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e'tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;

- tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;

- tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish; bola shaxsiga hurmat va talabchanlik.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatga ega bo'lib, uni qanday darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son Qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2019 yil 31 dekabrda 1059-son Vazirlar Mahkamasining »Uzluksiz ma'naviy tarbiya konseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori qabul qilindi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konseptsiyasi sakkiz bob va uzluksiz ma'naviy tarbiya konseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi kabi tizimni o'z ichiga qamrab oladi. Quyida qaror yuzasidan

qisqacha ma'lumotga ega bo'lish mumkin:

I bob. Umumiy qoidalar;

II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari;

III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish;

IV bob. Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

V bob. Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish;

VI bob. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish;

VII bob. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish;

VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi

Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrjijylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik



mexanizmini yo'lga qo'yish;

– ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

– **birinchi bosqich** – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr – homila davri, ikkinchi davr – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

– **ikkinchi bosqich** – maktabgacha ta'lim 3-7) yoshgacha bo'lgan davr;

– **uchinchi bosqich** – umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – 7-10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr – 11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

– **to'rtinchi bosqich** – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar – 17-30 yosh, ikkinchi davr – o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

– umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I-XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fanini joriy qilish bilan bog'liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish kabi masalalar va ularni ijrosi masala qararorda to'liq va asosli ravishda ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu qaror ta'lim tizimidagi tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish pirovardida esa, ijobiy samaradorlikka erishishning boshlang'ich manbasi bo'lib xizmat qilishi hech shubhasizdir.

O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e'tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi.



Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishlar fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi.

Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog'langan.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi. Shunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog'liqdir. Tarbiyaviy ishlar konseptsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishini yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar g'oyalar, ish uslublarini ishlab chiqish va o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida ta'lim islohotlarda olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Ade Sent-Ekzyuperi «Tarbiya ta'limdan ustundir. Insonni tarbiya shakllantiradi. Bilimdan ko'ra uni egallash uchun ishlatiladigan qurol muhimroqdir»,¹¹- deydi. Tarbiyaviy jarayon ko'p qirrali ekanligi shaxsga yondashuvlarning turfa xilligi bilan murakkablikni ayni damda esa kasbiy yetuklikni talab etadi.

Ijodkor ilg'or o'qituvchi-tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad, milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga **singdirish** va e'tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta'lim bilan uzviyligini

¹¹ Сент-Экзюпери А. Сочинения: в 3 т. Т. 3. Репортажи, письма, очерки /А. Сент-Экзюпери. – Рига: Полярис – 415 б. – (UrbietOrbi).



ta'minlash;

- tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;
- bola shaxsiga hurmat va talabchanlik.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatga ega bo'lib, uni qanday darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

2. Jahon tarbiya konseptsialari. Bugungi kunda tarbiya tushunchasi dunyoning hamma davlatlarida ham mavjud emas. Ayniqsa, tarbiya tushunchasidan ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda foydalanilmaydi. Uning o'rniga ta'lim (education) atamasidan foydalaniladi. Chunki bu davlatlarda ta'lim tarbiyaning asosiy qismini egallaydi va u o'zini yaxshi tutadigan shaxsning xususiyatlarini aniqlovchi ta'limning ma'lum bir bosqichi hisoblanadi.

Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda «axloqiy ta'lim», «diniy ta'lim», «shahar ta'limi», «ko'pmillatlar ta'limi» va «xarakter xususiyatni rivojlantirish modeli» atamaları foydalaniladi.

«Journal of American Indian Education» jurnali tarbiyaviy faoliyat strategiyasi haqida so'z yuritib, «yaxshi inson»ni shakllantirish birinchi navbatda axborot, ma'rifat, ongning rivojlanishi, qarama-qarshiliklarni yengib o'tish, tanqid, ijodiy faollik, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarida mustaqil qaror qabul qila olish kabi ko'nikmalarni integral shakllantirish orqali kechishi lozim»ligini ta'kidlaydi¹².

AQShda ilmiy manbalar tabiya tushunchasi falsafa, etika, psixologiya, teologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot sohalaridagi ilgari surilgan nazariyalar sifatida tasniflanadi. AQShda tarbiyaning bosh maqsadi qonunga bo'ysunadigan va axloqiy ta'limga ega fuqarolarni shakllantirish.

AQSh hukumati o'z fuqarolarida bolalikdan aniq fazilatlar to'plamini tarbiyalanishini nazorat qiladi. Pedagog olimlarning fikricha, bu xarakter sifatlarini har bir amerikalikning xulqida ko'rish mumkin. Misol uchun, «o'zini boshqalarning oldida erkin, bamaylixotir tutish, «nomukammallik kompleksi»dan begonalik, har qanday murakkab, tang vaziyatlardan sarosimaga tushmasdan, bosiqlik bilan chiqa olish, ichki erkinlikning siyosiy madaniyat va qonuniylik doirasida yaqqol

¹² Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.



namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu mental xususiyatlarga bolalikdan zamin qo'yib boriladi»¹³.

Masalan, AQShning 2001-yilda qabul qilingan «The Student Citizen Act of 2001» qonunida zamonaviy ta'lim oluvchida qanday sifatlar tarbiyalanishi kerakligi belgilab qo'yilgan. hujjatda quyidagi sakkiz fazilatning tarbiyalanishi qonun tomonidan talab qilinishi qayd qilinadi¹⁴:

Dovyuraklik - o'z vijdoniga sodiqlik, olomon fikriga qarshi tura olish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda qat'iyatlilik. Biz yaxshi fazilatlar, ezgu tilaklar egasi bo'lishimiz mumkin, biroq harakat qilishdan, o'zimizni ko'rsatishdan, qiyinchiliklardan va omadsizlikdan qo'rqsak, ular bizga foyda bermaydi. Yuksak akademik tayyorgarlik hali ana shu bilim va fazilatlar asosida faol harakat qilish degani emas. Ya'ni talabalarda o'z huquq va burchlarini bilish bilan birga, ularni himoya qilish, muhim masalalar bo'yicha o'z mustaqil fikrini bildirish, o'ziga xosligini ko'rsatishga uyalish, boshqalarga o'xshamay qolishdan qo'rqish, ikkilanish, o'ziga ishonmaslik kabi shaxsni sustkash qiluvchi kamchiliklarni bartaraf etish;

To'g'ri qarorlar qabul qila olish – yaxshi va muhim maqsadlarni ikkinchi darajalilaridan ajrata olish, o'z harakatlarining oqibatlari xaqida fikr yuritib, sog'lom fikrlab, mantiqiy to'g'ri qarorlar qabul qilish;

Halollik – to'g'riso'zlik, ishonchli va halol bo'lishni ta'minlovchi ichki kuchni shakllantirish lozim. Adolat va g'urur bilan harakat qilishga o'rgatish;

Mehribonlik – o'zgalarga e'tiborli bo'lish, xushmuomalalik, yordamga hozirlik, boshqalarni tushunish, qayg'urish, hamdardlik, do'stlik, saxiylik, o'ziga ravo ko'rmagan narsani birovga ham ravo ko'rmaslik ko'nikmalarini shakllantirish;


Qat'iyatlilik – qiyinchiliklarga chidamlilik, ularni yengib o'ta olish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish;

Hurmat – odamlarga, xususan rahbariyat va o'ziga, mulkiga va Vatanini doim, hamma joyda hurmat qilish;

Mas'uliyatlilik – o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda sobitlik, ishonchlilik, bergan va'dasining ustidan chiqish, o'z xatti-harakatlari uchun javob berish, jamiyat hayotida faol bo'lish. Hozirgi yoshlarda, ko'pincha, mas'uliyatlilik, atrofidagi kechayotgan voqealarga

¹³Крылова У. Как воспитывают детей в США? /Digest subscriber.

¹⁴ Character Education – ERIC Resources [Electronic resource]. – URL: www.indiana.edu.



daxldorlik tajribasi yetishmaydi. Yoshlar ko'proq tafakkur qilib, atrofni o'zgartirishda shaxsiy mas'uliyatlari haqida o'ylashlari lozim. Hozirgi zamon fuqarolik tarbiyasi talabalarni bilish va harakat qilishga o'rgatishi lozim;

O'zini idora eta olish – qattiq mehnat qilishga tayyorlik, maqsadga erishish uchun intilish, o'zida irodani tarbiyalash, doimiy rivojlanish va obro', o'z sha'ni, or-nomusini pok tutish. Bu esa o'z navbatida o'z so'zlarini va harakatlarini boshqarish, zararli odatlardan tiyilish va o'zini eng yaxshi tomondan namoyon etish kabilardir.

AQShning «Pedagogik entsiklopediyasida» (2001) fuqarolik tarbiyasining maqsadi «AQSh fuqarolarining o'z huquq va majburiyatlarini hamda hukumatning ishlash mexanizmlarini o'rganish» sifatida belgilanib, unga «Jamiyatdagi konstitutsion tuzumni saqlash va mastahkamlashga xizmat qiluvchi fikr, malaka, ko'nikma va odatlarni rivojlantiruvchi tarbiya», sifatida ta'rif beriladi¹⁵.

Fuqaroning shakllanishi quyidagi bir qator muhim ijtimoiy-pedagogik g'oyalar bilan bog'liq. Ya'ni «Fuqarolik jamiyatining bardavomligi o'sib kelayotgan avlodlarni tarbiyalash va ta'lim berish bilan ta'minlanadi va takomillashtiriladi; fuqarolik ko'nikmalarini bolalikdan shakllantirish lozim; fuqarolik tarbiyasi uch unsur: fuqarolik bilimlari, fuqarolik ko'nikmalari, fuqarolik pozitsiyasidan iborat»,¹⁶-deb hisoblanadi.

Fuqaroshunoslik bo'yicha AQSh «Milliy standartlarida» bilim komponenti besh asosiy yo'nalishda namoyon bo'lib, ularni fuqaroviy hayot, siyosat va hukumat; Amerika siyosiy tizimi asoslari; Amerika demokratiyasi tamoyillari; Amerikaning boshqa davlatlar bilan munosabatlari va davlatning jahon siyosatida tutgan o'rni; AQSh fuqarosining demokratiyani ta'minlash va rivojlantirishdagi o'rni tashkil etadi¹⁷.

¹⁵ Creamer D. G. College student development: Theory and practices for the 1990-s / D. G. Creamer. – Alexandria, VA: American College Personnel Association, 1990. – 156 p

¹⁶ Фахрутдинова А. В. Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / А. В. Фахрутдинова // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215-220.

¹⁷ National Standards for Civics and Government: Center for Civic Education [Electronic resource]. – URL: <http://www.civiced.org/stdst.htm>.

Creamer D. G. College student development: Theory and practices for the 1990-s / D. G. Creamer. – Alexandria, VA: American College Personnel Association, 1990. – 156 p.

Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.

Крылова У. Как воспитывают детей в США? / Digest.subscriberu. Character Education – ERIC Resources [Electronic resource]. – URL: www.indiana.edu. Сент-Экзюпери А. Сочинения: в 3 т. Т. 3. Репортажи, письма, очерки / А. Сент-Экзюпери. – Рига: Полярис. – 415 б. – (UrbietOrbi).



Finlyandiya pedagoglarining nafaqat ta'lim, balki «Tarbiya ilmi» deb ataluvchi pedagogik fani mavjud. Finlyandiya pedagogikasiga ko'ra, tarbiya «o'qitish» va «ta'lim-tarbiya» tushunchalarini o'z ichiga oladi. Finlar fikricha, o'qitish va ta'lim asosan o'quvchilarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim. Ular o'ylashicha, tarbiya har qanday ta'limning asosiy qismi hisoblanadi.

Bu holat Britaniya va Amerikadagi ta'lim va tarbiya tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikning mutlaqo aksi.

Germaniyada tarbiyaning bosh maqsadi xavfsizlik hissini shakllantirish. Bu mamlakatdagi bolalar jazolanmaydi, kimningdir fikriga havola etilmaydi, tajovuz qilinmaydi va ota-onalar ularning mustaqilligini, harakat va fikr erkinligini ta'minlashadi.

German pedagogikasida ham tarbiya tushunchasi va tarbiyaga yaqinroq bo'lgan nazariy fan mavjud. Lekin tarbiya konseptsiyasi ta'lim va o'qitish tushunchalarini anglatmaydi. Germaniyada bular ikkinchi darajali kategoriyalar hisoblanadi. Hozirda Germaniyada yaxlit tarbiya tushunchasi mavjud emas. Tarbiya tushunchasi dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida «oila tarbiyasi», «ijtimoiy tarbiya», «jamoat tarbiyasi», «diniy tarbiya» kabi sohalarni o'z ichiga oladi. tarbiya konseptsiyasi bu mamlakatlarda fuqarolik, demokratik va xalqaro tarbiya tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Tarbiyaning aynan qaysi xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilganligi jamiyatning ideal fuqarolarining milliy qarashlariga ko'ra bir-biridan mutlaqo farq qiladi.

Angliyada tarbiyaning bosh maqsadi xarakter hosil qilish va an'analarga sodiqlikdir. Buyuk Britaniyaning ta'lim bo'yicha Milliy komissiyasi (1993) maktabga yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, odamlarga g'amxo'rlik, madaniy merosga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat fuqarolari bo'lish, bag'rikenglik fazilatlarini singdirish, axloq va ma'nan kuchli shaxslar qilib yetishtirish vazifalarini yukladi¹⁸.

Fransiya va Belgiyada tarbiyaning bosh maqsadi bolalarda muomala madaniyatini shakllantirishdir. Italiya va Gretsiyada bolaning yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga katta urg'u beriladi. Shuning

¹⁸Развитие образования в европейских странах в условиях глобализации и интеграционных процессов: Сборник научных трудов / Коллектив авторов: Вульфсон Б.Л., профессор, д.п.н., член-корр. РАО, Савина А.К., д.п.н., Долгая О.И., к.п.н., Дудко С.А., Лысова Е.Б., к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, - 2013. - 448 с.с. 321. С.А., Лысова Е.Б., к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, - 2013. - 448 с.с. 321.

uchun bular shaxsi erkinligiga katta e'tibor beriladi: u jazolanmaydi, so'kilmaydi va ma'lum bir qoidalariga amal qilinishi talab etilmaydi. Bu munosabat bolaning shaxsiyati va ijodkorligini yuzaga chiqarish uchun yo'naltirilgan. Bu mamlakatlarda ular bolaning ishonchini ularning qobiliyatlarida, iqtidorlarida va erkinliklarida shakllantirishadi.

Ispaniyada, tarbiyaning asosiy maqsadi «yaxshi» va «yomon» tushunchalarini shakllantirishdan iborat. Bu mamlakatlarda barcha e'tibor bolaning baxtiyorlik, xursandlik va o'ziga bo'lgan ishonch kabi hissiy tarbiyaga qaratilgan.

Shvetsiya, Finlyandiya va Daniyada tarbiyalash so'zlashuvga (dialoglar) ga asoslangan. Ota-onalar doimiy so'zlashuv muloqoti orqali farzandlarini tarbiyalashadi.

Yaponiyada tarbiyadagi eng omil an'analarga roiya qilish. Ularning tarbiya jarayonida har bir yosh uchun muayyan o'rnatilgan vazifalari mavjud. Yaponiyaning «Ta'lim to'g'risidagi fundamental Qonuni»¹⁹ da ta'lim muassasalariga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish missiyasi yuklatilgan. Ya'ni shaxs sifatlarini to'liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatlilik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas'uliyatlilik; mustaqil fikrlilik; o'zgalar bilan hamkorlik, mustaqil fikrga egalik; an'anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o'zini baxtli va boshqalar bilan uyg'un qila olish fazilatlarini shakllantirilmogda.

Ta'lim muassasalari uchun chiqarilgan «Ideal yapon yigit-qizining fazilatlarini» deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. 16 fazilat 4 guruhga bo'lingan. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o'zigaxoslikni rivojlantirish, mustaqil bo'lish, o'z hohishlarini idora qila olish, pietet (ehtiro) tuyg'usiga egalik; 2) oila boshliqiga xos sifatlar: o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o'z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlar: vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lishni o'rgatadi. (2.1.1-jadval)

¹⁹Железняк О. Н. О принятии в Японии нового основного Закона об образовании



2.1.1-jadval

Ideal yapon vigit-qizining fazilatlarlari

Shaxsiy fazilatlar	Oila boshlig'iga xos fazilatlar	Ijtimoiy fazilatlar	Fuqarolik fazilatlarlari
Erkinlik	O'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantirish olish	O'z ishiga sadoqat	Vatanga sodiq bo'lish
O'ziga xoslikni rivojlantirish	Oilaviy qadriyatlarini e'zozlash	Jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik	Davlat ramzlarini qadrlash
Mustaqil bo'lish	Ota-ona burchlarini bajarishda sobitlik	Milliy (ijtimoiy) qadriyatlarini hurmat qilish	Ijtimoiy faollik
O'z hohishlarini idora qila olish	Oila manfaatlariga hurmat	Jamiyat manfaatlariga ustuvorligi	Eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lish
Pietet tuyg'usiga ega	Mehribonlik	Xushmuomalalik	Daxldorlik

Janubiy Koreyada XX asrning 50-yillarida «Tabiiy resurslar cheklangan, ijod cheklanmagan» degan shior ko'tarilgan. Bu – yuksak intellekt komil inson fazilatlarining gultojiga aylantirishni anglatar edi. Yuqoridagi qiyosiy fikrlarni xulosalab, shuni aytish mumkinki, rivojlangan davlatlarning bugungi taraqqiyotiga «Fazilatlar pedagogikasi» asosida yondashish o'zining yuksak samaralarini berganini ko'rsatadi. Ta'lim sohasida yaxshi baho uchun eng muhim talab bilim, konspekt, davomat emas, balki talabaning o'z bilimini hayotning turli vaziyatlarida amaliyotda qo'llay olishini ko'rsata olishidir²⁰.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonining rivojlanishi bilan bir qatorda ilmiy, muhim hisoblangan jahon tarbiya tushunchasi yetakchi rivojlanayotgan yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Bu kategoriyaga ko'ra, milliy tarbiya modellari inson qadriyatlariga va maqsadlariga ko'ra farqlanadi. Bu konseptsiya globallashgan inson jamiyatida, xavf tahdid solayotgan jamiyatda bardavomligini saqlab qolishi bilan rivojlanadi.

Nazorat savollari

²⁰ <https://selfmadetrip.com/vyisshee-obrazovanie-v-vuzhnoy-korei/>



1. Tarbiyaviy ishlar konsepsiyasining zaruriyati haqidagi tushunchalaringizni ifodalab bering?
2. Jahon tarbiya konsepsiyalarida insonparvarlik tamoyillarining nazariy va amaliy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
3. Insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasining uzviyligiga ehtiyoj qanday deb o'ylaysiz?
4. Ta'lim va tarbiya nazariyasi konsepsiyalarining mazmuni va uzviyligi qanday?
5. Rivojlangan davlatlar, AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Germaniyada tarbiya tushunchasi qanday izohlanadi?
6. Sharq va G'arb mamlakatlarida tarbiyaning induktiv va deduktiv mezonlari?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т: Маънавият, 2008 й.
2. Развитие образования в европейских странах в условиях глобализации и интеграционных процессов: Сборник научных трудов / Коллектив авторов: Вульфсон Б.Л., профессор, д.п.н., член-корр. РАО, Савина А.К., д.п.н., Долгая О.И., к.п.н., Дудко С.А., Лысова Е.Б., к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЕТ, - 2013. - 448 с.с. 321.
3. С.А., Лысова Е.Б., к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЕТ, - 2013. - 448 с.с. 321.
4. Железняк О.Н. О принятии в Японии нового основного Закона об образовании.
5. Фахрутдинова А. В. Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / А. В. Фахрутдинова // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215 – 220.
6. Creamer D. G. College student development: Theory and practices for the 1990-s / D. G. Creamer. – Alexandria, VA: American College Personnel Association, 1990. – 156 p.
7. Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.

8. Крылова У. Как воспитывают детей в США? /Digest. subscriberu.

9. Character Education – ERIC Resources [Electronic resource]. – URL: www.indiana.edu.

10. Сент-Экзюпери А. Сочинения: в 3 т. Т. 3. Репортажи, письма, очерки /А. Сент-Экзюпери. – Рига: Полярис. – 415 б. – (UrbietOrbi).

11. Колосникова А.Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. М., 2006.

12. Xoshimov K va b.«O`zbek pedagogikasi antologiyasi» T, «O`qituvchi». 1995y.

13. Ochilov M., Ochilova N. O`qituvchi odobi. T., 1997y.

14. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools Leadership guide Status: 8.Recommended.Date of issue: 09-2004.Ref: DfES 0444-2004 G.10.

1. www.zivo.net

2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz

4. www.istedod.uz

5. www.lex.uz

6. www.my.gov.uz

7. <https://selfmadetrip.com/vyisshee-obrazovanie-v-vuzhnov-koree/>

8. National Standards for Civics and Government: Center for Civic Education [Electronic resource]. – URL: <http://www.civiced.org/stdst.htm>

3-MAVZU

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI TUSHUNCHASI

Reja:

1. Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi.
2. Ijtimoiy yo'naltirilgan tarbiyaviy ish.
3. Axloqiy tarbiyaviy ish.
4. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish.
5. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ish.

Tayanch so'z va tushunchalar: tarbiyaviy ish, negiz, tizim, maqsad, sifat, tarkib va tuzilish, ijtimoiy yo'naltirish, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi.

1. Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi. O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'lga ega bo'lishi xalq xo'jaligining turli sohalarida, jamladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analaramizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqbol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Tarbiyaviy ishlarning samardorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi,



yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish lozim.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamoalari, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi.

Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'st, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning rirligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhim.

Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Martin Jay pedagogik jarayonda tarbiya uzluksiz ravishda davom etishi va uni davriyligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Pedagogik jarayonda tarbiyaning davriylik tuzilishi - bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo'lgan, uning tarkibiy qismlari yig'indisidir. O'qituvchi buning natijasida tarbiyaning davriylik tuzilmasini belgilab olishi mumkin:

1. *Maqsadni belgilash* - tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma'lum bir muddatli jarayonlarga bo'lib chiqishi.

2. *Mazmunni tanlash* - tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari darajasida mustaqil ishlab chiqishi.

3. *Demokratik faoliyatli* - tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o'zaro munosabatda erkin fikrlilik va umuminsoniylik me'yorlariga rioya qilish qonuniyatlari.

4. *Baholash* - tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o'qituvchi tomonidan baholanib borishi



va doimiy tahlil qilinishi»²¹-o'ylashimizcha, o'qituvchida tarbiyaning davriyligi haqida tushunchalar bo'lishi va uni amaliy faoliyatda o'z o'rnida qo'llay olishi tarbiya tizimida natijadorlikka erishishga xizmat qiladi.

Tarbiyaning negizida quyidagilar yotadi:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat haqida bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smarning bilimdonligini va ijodiy itikoniylarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insorparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlar, toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositari maddoxlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka shafqatsizlik) keng qo'llanishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish. O'z xalqi, davlati himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish. O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy ma'suliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya;

- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki

²¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T. Ma'naviyat, 2008. – 176 b.



va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirish kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblanmish mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

- tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat, deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlar, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

Amalda tarbiyaviy jarayonning yaxlit va uzluksiz ishiga turli yoshdagi bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki, ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyahgan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarning boshqa faoliyatga ham yo'naltirish ishlari olib boriladi. Faoliyatning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.



Sifatli tarbiyaning umumiy maqsadlari

Insoniyat tarbiyaga doimo katta qiziqish bilan qaragan. Yashash sifati va insonning o'ziga xosligini rivojlanish sifatida ham qaratgan. Tarbiya zamirida doimo ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish va xalqni siyosiy rivojlanish quroli sifatida tushiniladi. Millatning rivojlanishi uning iqtisodiy va ijtimoiy xolatidan kelib chiqib belgilanadi.

Tarbiyaning asosiy maqsadlari:

- Shaxsiyatni rivojlantirish uchun aqlni charxlash;
- Xarakterni yaratish;
- Shaxs va insoniyatni yaratish;
- Malakali shaxs va jamoaviy ruhiyatni yaratish;
- Insonlarda tabiatni anglashga sabab bo'lish;
- Shaxsni bilim va donolik bilan qurollantirish;
- Bolalarga umumbashariy qadriyatlarni o'rgatish;
- Bolalar fikrlashini oshirish va ularni foydali ko'nikmalarini oshirish;
- Muhim insoniy qadriyatlarini tarqatish;

2. Ijtimoiy yo'naltirilgan tarbiyaviy ish. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning yaratilishi ta'limni tubdan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qancha nutq va risolalarida istiqbolga erishishning yo'llari, tamoyillarini aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Ayniqsa, «Istiqlol va ma'naviyat», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Barkamol avlod orzusi» kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy jihatdan yangilanishi va rivojlanishi, tarbiya masalalari, ijtimoiy tarbiyaning asosiy negizlari bayon etilgan.

Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Islahotlarimizning muhim tamoyillaridan biri – aholining kam ta'minlangan tabaqasi, ya'ni qariyalar, nogironlar, bolalarni



muhofaza qilish, ularni puxta himoyalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir.²² O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlar va milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda.

Ijtimoiy hayotda yuz beruvchi islohotlar tarbiyaning asrlar davomida shakllangan mumtoz nazariyalariga o'zgartishlar kiritadi. Natijada bir-biriga yaqin yangi va an'anaviy (ma'naviy-ma'rifiy ishlar – tarbiyaviy ishlar kabi) qarashlar birgalikda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda biz shartli ravishda «ma'naviy-ma'rifiy ishlar» va «tarbiyaviy ishlar» iboralarini bir-birini taqozo qiluvchi integrativ tushunchalar sifatida qaraymiz. Bunga ma'nodosh misol sifatida «tarbiyaviy tizim» va «tarbiyaviy ish tizimi» tushunchalarini keltirish mumkin. Ba'zida bir tushuncha ikkinchisini ham o'z ichiga qamrab oladi (misol: «tarbiyaviy tizim» «tarbiyaviy jarayon» sifatida ko'riladi)²³.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat,

²² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

²³ Макарова О. Ю. Воспитательное пространство вуза и его роль в подготовке молодого специалиста / О. Ю. Макарова // Педагогическое образование: история, современность, перспективы. – Казань, 2012. – С.



ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan shaxsning sifatlari –jamiyat yuksalishi haqida qayg'urish, nizolarni bartaraf etishga intilish, umumiy manfaat uchun jamoada ishlashga tayyorlik, o'zgalar nuqtai nazarini qabul qila olish, o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondoshuv, o'zi va o'zgalar haqida qayg'urish, o'z xatti-harakatlarining boshqalarga qanday ta'sir etishini o'ylab ish tutish, o'z xatti-harakatlarining kutilmagan natijalari uchun javob bera olish, mas'uliyatlilik va bag'rikenglik, individning siyosiy samaradorligi, umumiy muvaffaqiyat va oxir-oqibat eng muximi jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun o'ta muhim²⁴ hisoblanadi.

Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kab etadi, Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda

²⁴ Фахрутдинова А. В. Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / Фахрутдинова А. В. // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215 – 220



faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlandi. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash hukmronlik qilgan. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning sinfiy xarakterga ega emasligi isbotlanadi. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik san'atiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustivorligi muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bevosita mamlakat hayoti, xalq tarbiya tizimi bilan mustahkam bog'langandir.

Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, bola shaxsining har tomonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etib va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib bola shaxsini kamol topishini ta'minlashdir.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamoalari, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'st, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Barchahayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning uzluksizligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhim vazifadir.

Bunda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Tashkillashtirish:

- sinfda maqsadli tarbiyani yoʻlga qoʻyadi;
- tarbiyaviy ishlar rejasi va dasturini tuzadi, amalga oshiradi;
- tarbiyaviy ishlarni baholab boradi;
- tarbiyaviy ishlarga oid muammolarni hal qiladi.

2. Yoʻnaltirish:

- oʻquvchilar va maktab jamoasini tarbiyaviy ishlardagi eng muhim yoʻnalishini belgilaydi;
- sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ishtirokchilarining ahilligi va birligini taʼminlab beradi;
- tarbiyaviy ishlarni takomillashtirib borish choralarini koʻradi.

3. Muvofiqlashtirish:

- sinfda fanlar oʻqituvchilari tomonidan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiradi;
- maktab direktorining maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari tashkilot va «Kamalak» bolalar tashkiloti «Yoshlari ittifoqi» tashkiloti, ota-onalar qoʻmitalarining tarbiyaviy ishlardagi hamkorligini taʼminlaydi;
- tarbiyaviy ishlar monitoringini olib boradi;
- sinf tarbiyaviy ishlarining istiqbollari moʻljallaydi.

Zero, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarda tutgan oʻrni muhim ahamiyatga ega. Bunda sinf rahbari faoliyatida quyidagilar birlamchi oʻrin tutishini qayd etish lozim:

- a) tarbiyaviy ishlarni kengaytirib borish;
- b) tarbiyaviy ishlar metodlarini eng maqbullarini tanlay olish;
- c) tarbiyaviy ishlar shakllarining toʻgʻrisini belgilash.

Malakali va mahoratga ega sinf rahbari tarbiyaviy ishlari quyidagi talablarga javob beradi:

- yuqori darajada maʼnaviyatlilik va yetuk darajada pedagogik-psixologik tayyorgarlik;
- milliy gʻoya, taraqqiyot va istiqbolga sadoqatli boʻlish;
- axloqiy yetuklik, huquqiy faollik va ijtimoiy faollikda oʻquvchilar va oʻzgalarga iborat koʻrsatish;
- tarbiyaviy ishlarda oqil pedagog va nafis psixolog sifatida ish koʻrish.



Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlardagi mavqeyi va nufuzi tarbiya metodlarini yaxshi bilishi bilan ham belgilanadi. Bunday metodlarning eng asosiylari quyidagilardir:

1) shaxsongini shakllantiruvchi metodlar:

- suhbat;
- mashgʻulot;
- bahs;
- ibrat.

2) axloqiy faoliyat va xulq-atvor fazilatlarini shakllantirish metodlari:

- pedagogik talab;
- ijtimoiy fikr; -oʻzlashtirish;
- boshqarish;
- tarbiyaviy vaziyat yaratish;

3) faoliyat samaradorligiga erishish metodlari:

- oʻrganish;
- odatlanish;
- musobaqa;
- ragʻbatlantirish.

3. Axloqiy tarbiyaviy ish. Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir)

– ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat maʼnaviy-ruhiy hayotida oʻziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi oʻrni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri boʻlib xizmat qiladi.

«Axloq» tushunchasi omma fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan oq ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli koʻlamda ishlatilib kelingan.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlishi bilan birga ijtimoiy tartib-qoida boʻlib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (oʻquv, ishlab

chiqarish, xalq anʼanalari) da oʻz talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning koʻrsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan bureh shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat maʼnaviy taʼsir koʻrsatish shakllari doirasida yuz beradi.

Axloqiy tarbiyaviy ish yoʻllari:

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, oʻqish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida. oʻzaro taʼsir koʻrsatish usullari, xulq-atvor meʼyorlarini oʻzlashtirishlarida namoyon boʻladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning toʻgʻri yoʻnalish olishi uchun hal qiluvchi taʼsir koʻrsatadigan muhitni (oilal, oʻrtoqlar va doʻstlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yoʻl va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy eʼtiqodni yuksaltirishga taʼsir koʻrsatadi, yaʼni:

- oʻquvchilarni oʻzlarining axloqiy tajribalarini muhohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;
- turli manbaalarda axloq toʻgʻrisida olingan bilimlarni sinaydi;
- shaxsning oʻzini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy mazmundagi taʼlim-tarbiya ishini tashkil etish taʼlim muassasasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi boʻlib, ularni oʻtkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi aʼzolari, ota-onalar qoʻmitasi, oʻquvchilarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadi.

Taʼlim muassasalarida axloqiy tarbiyani yoʻlga qoʻyishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, koʻriklar, konferensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida taʼlim muassasalari faoliyatini tashkil etishda oʻz oʻrni va ahamiyatiga ega.

Axloqiy mazmundagi tadbirlarni oʻtkazish ushbu tarbiyani tashkil

etishdagi koʻzlangan asosiy maqsadga xizmat qilmogʻi kerak.

Axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol boʻlib shakllanishida mustahkam asosdir.

Taʼlim oluvchilar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasida oʻziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud boʻlib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos boʻladi. Yoshlar orasida olib boriladigan maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha maʼlumot beramiz. Axloqiy tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir suhbatlar:

– oʻquvchining muomala madaniyati; talabaning maʼnaviy qiyofasiga qoʻyladigan talablar;

– maʼnaviyat tushunchasi;

– Vatan tuygʻusi – muqaddas tuygʻu;

– oʻquvchining tashqi koʻrinishi va uning ichki dunyosi;

– kitoblar – bilim va maʼnaviyat manbai;

– oʻquvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirish;

– mustaqillik nashidalari;

– yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati;

– fidokor yoshlar qanday boʻlishi kerak?

– ajdodlar merosi – maʼnaviyatimiz sarchashmalari;

– zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va maʼnaviyat;

– Amir Temur yoshlar kamoloti haqida;

– Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari;

– mustaqil Oʻzbekiston jahon nigohida;

– Oʻzbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yoʻnalishlari;

– yuksak madaniyat va maʼnaviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori;

– tarix – millat maʼnaviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish.

Axloqiy tarbiya tizimida maʼnaviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang boʻlishi mumkin.

Axloqiy xulq, bu boradagi hayotiy tajribalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi metodlar

Rasmiy kasbiy o'yinlar. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma'lumotlar to'planadi va ayniqsa, buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari, asarlarl asosidagi axloq kategoriyalari va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o'yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O'yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarni yoki murabbiy» va shu kabi o'yinlarni uyushtirish.

- Fikr va g'oyalarni tizimlashtirish.
- Bahs-munozara.
- Musobaqa.
- Devoriy gazeta.
- Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash.
- Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili.

Axloqiy tarbiya berish yo'llari

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qishi, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oilā, o'rtoqlar va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

- talabalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;
- turli manbaalarda axloq to'g'risida olingan bilimlarni sinaydi;
- shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to'g'risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o'zlashtirgan

bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur. Axloqiy bilim, asosan, axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzui, kechalar, turli kasb namoyandalari bilan uchrashuvlar, talabalar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Maktab, barcha ko'rinishdagi o'quv yurtlari, oila va jamoatchilik faoliyatini bolalar, o'smirlar tarbiyasi bo'yicha muvofiqlashtirish quyidagicha tashkiliy ko'rinishda amalga oshiriladi:

1. O'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va boshqa ommaviy vositalarning har birining aniq vazifasi belgilangan holda tarbiyaviy ishlar rejasini muvofiqlashtiriladi.

2. Eng ilg'or o'qituvchilar yordamida ota-onalar va jamoatchilik vakillari hozirgi zamon pedagogikasidagi eng samarali yo'l va usullar bilan qurollantiriladi.

3. Tarbiyaviy ishlarning borishi va ularning natijalarini sinchkovlik bilan o'rganish hamda birgalikda muhokama qilish, paydo bo'layotgan kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun birgalikda chora-tadbirlar ko'riladi.

Demak, yaxshi va samarali tarbiya jarayoni uchta asosiy bo'g'in: maktab, oila va jamoatchilik faoliyatini birlashtirishni taqozo etadi. Bu hamkorlikda yetakchi o'rin maktabga tegishli hisoblanadi.

4. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish. Estetik tarbiyaviy ishning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning xayotiylikni ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq, deb topdik:

- go'zallik – bu kishining qalbi go'zalligi;
- go'zallik – bu kishining istarasi issiqligi;
- go'zallik – bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi;
- go'zallik – bu bamisoli daraxt, yaprog'i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat. Bir so'z bilan aytganda, odam bolasidagi go'zallik – tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarini o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoilij).

Demak, estetik tarbiyaviy ish nafasat tarbiyasi ham, odamiylik



tarbiyasi ham, to'la-to'kis ahamiyatga ega bo'lgan go'zallik tarbiyasidir. Shu sababli talaba-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash g'oyat murakkab, ko'p qirrali dinamik jarayon bo'yib, uning yordamida barkamol shaxs tarbiyasi jarayonini olib borishning optimal variantlarini qo'lga kiritish mumkin.

«Estetik tarbiyaviy ish – o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ritushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir».

O'quvchilarda estetik tarbiyaviy ishni tarbiyalashning mazmuni asosan:

- estetikaga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- estetik jihatdan bilimdonlik;
- estetik ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;
- estetik his-tuyg'uning mukammalligi;
- o'z mehnatidan zavq ola bilish va natijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mavjudligi;
- go'zallikka intilish va didlarni tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

Estetik tarbiyaviy ishning asosiy maqsadi o'quvchilarda ina'naviy jihatdan go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san'at asarlarini sevishni shakllantirish, tarix va me'moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg'otish, jonajon tabiatimizga ongli munosabatda bo'lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish ko'nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashdan iborat.

Estetik tarbiyaviy ishni maktablarda quyidagi yo'nalishlarda olib borgan ma'qul va bu har bir yo'nalish estetik tarbiyaviy ishning asosiy maqsadini hal qilishdagi vazifalarga doir:

- talaba-yoshlardagi estetik tarbiyaga ehtiyojni aniqlash.
- talaba-yoshlardagi estetik moyillikni aniqlash.
- estetik ongning shakllanganligini aniqlash.
- talaba-yoshlar ongida estetik tarbiya kategoriyalarining mazmun-mohiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

– ilmiy dunyoqarashning ma'naviy qiyofasini shakllantirish.
 – estetik tarbiyani milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etish.

– talaba-yoshlarni estetik faoliyatga tayyorlash.

– estetik va badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Estetik tizim tarbiyalanganlikning yuqori darajasini belgilovchi vosita bo'lib, uning talablarini bir maromda o'quvchi ongiga singdirib borish uchun har bir o'quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o'qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi:

- tarbiyada o'quvchilar jamoasi muhitining birligi;
- o'quvchilar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi;
- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- o'quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog'ligi haqida qayg'urish;
- axloq me'yorlariga amal qilish²⁵.

Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari

Estetik tarbiyaviy ishnisamarali amalga oshirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kino-teatrlar, galereyalar, o'tmish obidalari, tarixiy mehmorchilik yodgorliklari, san'at asarlari va tarixiy madaniy joylar va hayot tarzimizdagi borlig'imiz hamda ulardagi go'zalliklar talaba-yoshlarimizni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo'ladi.

Estetik tarbiyaviy ish vositalari – o'quvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san'at estetikasi va yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriyy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiyaviy ish, shu jumladan muntazam ravishdagi

²⁵Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.



jismoniy mashqlar kishi organizmining har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sogʻligʻini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq untr koʻrish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda hukumatimiz bunday muhim omillarni eʼtiborga olib qolmasdan, balki ularni muntazam ravishda amalga oshirib borishni davlat siyosati darajasigacha koʻtarmoqda. Jumladan, «Umid nihollari» (oʻrta umumtaʼlim oʻquv muassasalari oʻquvchilari uchun), «Barkamol avlod» (oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalari oʻquvchilari uchun), «Univsiada» (oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun) kabi Respublika miqyosidagi musobaqalar davlatimiz tomonidan talaba-yoshlarimizning ham jismonan, ham mahnan yuk-saktigini oʻylab qilinayotgan tadbirlardir. Bular orqali yoshlarni bar-kamol shaxs darajasida tarbiyalashga erishamiz va ular yuksak unumli ongli mehnat qilishga tayyor boʻladi hamda oʻz ona-Vatanini sodiqlik bilan qoʻriqlashdek xislatlarga ega boʻladi. Yuqorida qayd etilgan tadbirlardan asosiy maqsad – yosh avlodni bolalik chogʻidan boshlab jismoniy jihatdan sogʻlom va baquvvat hamda irodali qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Jismoniy tarbiyaviy ishning maqsadi – insonni har tomonlama jismoniy jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qathiyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli shaxsni tarkib toptirishdir. Bunda kishining ijodiy imkoniyatlari doirasini kengaytiriladi va ularning mehnat tarbiyasiga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yoʻnaltirilishiga eʼtibor kuchaytiriladi. Bular bolalardagi harakat koʻnikmalarining ortib borishi, jismoniy sifatlarning takomillashuvi va sogʻligʻining mustahkamlanishiga har tomonlama yordam beradi.

Jismoniy tarbiyaviy ishning vazifalari quyidagilar:

- har tomonlama, yaʼni ham jismonan, ham maʼnan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga muhim hissa qoʻshib va ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik koʻnikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir (bosh vazifa);
- sogʻliqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy takomillashuvga asos yaratish;
- yoshlar ongida harakat turlari toʻgʻrisida tasavvur hosil qilish va ularning kishi sogʻlom turmush tarzidagi ahamiyati haqidagi koʻnikma va malakalarni shakllantirish;



– kishining harakatlanish jarayoniga tegishli faoliyatini takomillashuviga yordam berish;

– yoshlarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi mexanizmlarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish;

– jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va ongliklik sohasidagi ma'lumotlarni bayon qilishda axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutish;

– yoshlarning sport bilan qiziqish va unga bo'lgan maylligini hosil qilish yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan muntazam ravishda shug'ullanish uchun odatlanishiga yordam berish (ijobiy ta'sir ko'rsatish);

– yoshlar turmush tarzida jismoniy tarbiyaga onglik munosabatda bo'lishni o'rgatish, ya'ni o'z sog'lig'iga onglik munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni gigiena qoidalariga amal qilishni va ertalabki gimnastika qilishga odatlantirish hamda doimiy ravishda sport mashg'ulotlariga qatnashishini tarkib toptirish.

Jismoniy tarbiyaviy ishning eng muhim tomonlaridan biri – o'quvchilarni onglik harakat qilishga o'rgatishdir. Bu borada kichik yoshdagi bolalarning asab tizimi nihoyatda sezuvchan va ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli ham ularda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish samarali kechadi. Ana shunda ularning fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda harakat qilishga o'rgatish izchil ravishdagi pedagogik va metodik talablar asosida tashkil etilsa, u holda yoshlardagi jismoniy tarbiya samarali bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaviy ishning mazmuni, shakl va metodlari.

- Ertalabki badantarbiya.
- Mashg'ulotlargacha.
- Jismoniy tarbiya daqiqasi.
- Madaniy jismoniy yayov yurishlar va sayr qilishlar.
- Darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tarbiya.
- Sport musobaqalari.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaviy ishni tashkil etishda muayyan vazifalar hal qilinadi. Ya'ni:

VAZIFALAR

1. Inson aʼzolarining funksional kamoloti (ichki aʼzolar, asab va harakat suyak-muskel tizimi, tana uygʻunligi va ularning funksional faolligini boshqarish laʼyoqati)ga egalikni taʼminlash
2. Oʻquvchilarning sogʻligini mustahkamlash
3. Ularni gʻiyetda qoidalariga amal qilishga koʻniktirish.
4. Oʻquvchilar mohirligini har tomonlama oʻstirish
5. Oʻquvchilarning jinsiy jihatdan toʻgʻri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish.
6. Oʻquvchilarda mustahkam iroda, qatʼiy xarakter, intizomga soʻzsiz amal qilish koʻnikmalarini shakllantirish.

5. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ish. «Ekologiya» – yunoncha soʻz boʻlib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan oʻzaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni oʻrganadigan fandir.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», – deb taʼkidlangan.

Oʻzbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilgan «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida»gi qonuni, «Sogʻlom avlod uchun» ordenining taʼsis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik taʼlim tarbiya konseptsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jangʻarmasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ayniqsa, umumtaʼlim maktablarida ham ekologik yoʻnalishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarining shakllanishi yosh avlodga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganini koʻrsatadi. Maktabni bitirib, mustaqil hayotga qadam qoʻygan har bir yosh, qanday ixtisos egasi boʻlishidan qatʼi nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻlishi kerak.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xom ashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ining qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning ham oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoldi.

- Ekologik tarbiya – tarbiya nazariyasining yangi shakli

- Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichidan pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

- Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi.

- Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

- Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga og'li munosabatni shakllantirishdan iboratdir,

- Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbe» ni ochib, birinchi so'zini hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini

mutolaa etishlarini istardim», – deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichiklagidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

– Ekologik tarbiyada o'quvchilarni o'z maktabini; yashaydigan muhiti – shahar va qishloq ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

– Ekologik savodxonlik va madaniyat. avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

– Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish xissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash; hojatxonalarni ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash; yong'in chiqmasligi chorasini ko'rish; turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtdan emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish; nihollarni sindirib, payhon qilmaslik; qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan», «Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang, katta gunoh ish bo'ladi, chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor», – deb pandu nasihatlar qilganlar.

– Islom dinidan avval zardushtiylik dinida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darraga mahkum etilgan. Suvga hurmat islom dinimizda ham saqlanib qolgan. Mana shu hurmat ta'sirida xalqda ko'plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar, ertaklar vujudga kelgan.

– Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiy ta'lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda



mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Bu o'rinda hayotiy misollar orqali hozirgi paytda oilalarda ekologik savodxonlikning pastligi uqtiriladi. Masalan, hozir ko'plab odamlar mollarini ekinzorlarda, bog'larda, hatto mevali va manzarali daraxtlarga bog'lab boqadigan bo'lib qolishmoqda. Axir, o'tmishda xalqimiz qaramog'idagi hayvonlariga maxsus podachi saqlagan-ku. Buning ustiga hozirgidek hayvonlarni duch kelgan yerda emas, alohida ajratib qo'yilgan yaylovlarda o'tlatgan yoki oilaviy dam olishga chiqilganda o't-o'lanlar payhon qilinmagan, qir-adirlarda shisha siniqlari, ovqat qoldiqlari tashlab ketilmagan. Daraxtlarga, o'simliklar olamiga, hayvonlarga zarar keltirilmagan. Ma'lumki, inson aqli uning umumiy rivojlanishning dastlabki 3-4 yilida 50 foizni, 4-8 yilida 30 foizini, 8-17 yilda esa 20 foizni tashkil qiladi. Shuni hisobga olib, ekologik ta'lim-tarbiyani; asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur.

– maktabgacha yoshdagi bolalarda avval, ekologik ta'lim tushunchalari shakllantiriladi. Boshlang'ich (1-4) sinflarda esa, asosan, atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya beriladi.

– o'lkamizning tabiiy o'simliklar dunyosi, ularning foydasi, bu boyliklarni muhofaza qilish kerakligi haqidagi masalalar bilan yoshlarni maktab partasidan keng tanishtirib borish o'zining samarasini beradi. Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda umumlantiriladi. Shu bilan birga fakultativ mashg'ulotlarda, darsdan tashqari to'garak yig'ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o'zlariniig kundalik faoliyatlari davomida ekologik muammolarni o'rgana boradilar.

– fanlarni o'qitishda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish o'qitishda qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda hamda tanlangan ekologik materiallar mazmuni mavzu mazmuniga mos holda tanlab olinishiga e'tibor qilinadi.

– hozirgi zamon ekologiyasining qonun va qoidalarini, dastlabki ekologiya ma'lumotni hamda madaniyatni shakllantirish 3 yo'l bilan – dars mashg'ulotlarida, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda va



ekskursiyalar vaqtida amalga oshiriladi. Bunda tabiat o'quvchilarga ekologiya haqida ekologiya qonuniyatlar va tushunchalar to'g'risida bilim beriladi.

– ekologik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi;
- o'z tumanini, shaharini, qishloq va maktab hovlisini, ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- atrof-muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarini namunalari;
- oiladagi, maktabdagi tarbiyani, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- tabiatga ongli munosabat jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- yoshlarning ekologiya tarbiyalashida milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish kabilardir.

Bolalarda ekologiya xususidagi tasavvurlarni kengaytirishda tarix fanining imkoniyati katta. Bunday besh yuz yil, ming yil avval o'lkamiz tabiati qanday bo'lgan, o'simliklar va hayvonot olami, uning ekologiyasi-chi kabi savollarga tarix fanidan javob topish mumkin.

Maktabda o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir bilim tarbiyani geografiya darslarida har bir mavzuga bog'lab berib borish mumkin. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish darslarida joy nomlaridan foydalanish ona tili bo'yicha mashg'ulotlarni yanada qiziqarli qiladi. Ona tili darslaridagi ko'plab mashqlar o'quvchilarda tabiatga mehr uyg'otishda qo'l keladi. Mashqlardagi suv va havo, o'simlik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan matnlarni tahlil qilish orqali ham tabiatga mehr uyg'otish mumkin.

Adabiyot fani ham ekologiya bilan chambarchas bog'langan. Bunda har bir asarni o'qib tahlil qilish vaqtida va o'quvchiga tushuntirayotganda faqat bezash nuqtai nazaridan emas, ya'ni tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mana shu usul



bilan adabiyot darslarida ham o'quvchilar ongiga ekologik tarbiyani singdirib boriladi. Shuningdek, 5-11- sinflarda «Tabiatni asrash – Vatanni asrash», «Tabiatni e'zozlaylik» kabi mavzularda turli bahs va she'rxonlik kechalari uyushtirish orqali ham ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin. Adabiyot fanida o'qitilayotgan xalq og'zaki ijodi misolida esa o'quvchilar ajdodlarimizning ekologiya xatolari nimadan iboratligini hamda bu sohada ularning qanday ibratli ishlari borligini o'rganadilar. O'quvchilarga aytiladigan ertaklarda hayvonlar va o'simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi o'rni ochib beriladi. O'qilgan badiiy asarlar misolida, o'tkazilgan suhbatlarda tabiatga yaxshi munosabatda bo'lish va toshbag'irlik bilan qarash dalillari muhokama qilinadi.

Ekologik yo'nalishdagi to'garaklarda bolalarni tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishga o'rgata boriladi. To'garak mashg'ulotlarida o'tiladigan «Tabiatni e'zozlaylik», «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Qushlar – bizning do'stimiz» kabi mavzularda tabiatga qiziqishni yanada oshiradi. Bag'ritosh, shafqatsiz, tabiatni mensimaslik kayfiyati bilan qaraydigan bolalarni hushyorlikka chorlaydi. To'garak mashg'ulotlarida yana hasharotlarni tutib, ularga ozor beradigan, chumolilar inini, qushlar uyasini buzadigan, o'simliklarni bosib, yulib oladigan o'quvchilarning xatti-harakatlarini muhokama qilish zarurligini uqtiriladi. O'quvchilar to'garak ishlarida faqat mavzular o'rganib yoki turli kechalar o'tkazibgina qolmay, bevosita amaliy ishlar ham qiladilar. Ya'ni gullarni o'stiradilar, qushlarni, quyonlarni boqib, parvarish qiladilar.

Demak, o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilishda, tabiat hodisalarini kuzatishga o'rgatishda ekologik to'garaklarni ta'siri katta. Maktabda ekologiyaga oid ta'lim-tarbiya birligi amalga oshirilsagina, o'quvchilarda bir butun ekologik bilimlar tizimi shakllanishi mumkin. Bunda, albatta, butun maktab jamoasining – sinf rahbarlari, fanlar o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi talab qilinadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, xalq pedagogikasidan bahramand bo'lish zaruriyati tug'ildi. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid

tarbiyani milliy qadriyatlar va anʼanalar, sharqona urf-odatlar orqali berish ehtiyoji paydo boʻldi.

Oʻqituvchining bolalarga ekologik tarbiya berishida xalqimizning oʻziga xos milliy tarbiyasidan oʻrinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda toʻrt narsa – yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga eʼtiqod qoʻyib, yozning eng jaziramakunlarida «Suv sayli» oʻtkazgan. Ota-bobolarimiz «Suv – tabiat inʼomi, hayot manbai», – deb, bejiz aytishmagan, har tomchi suvni gayhardek qadrlab, bogʻi-roʻgʻlar yaratishgan. Biz esa suvdan xoʻjasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tugʻilishiga sababchi boʻldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga toʻla yetib bormasligi natijasida bugun Oʻrta Osiyo uchun ahamiyatli boʻlgan Orolning butunlay yoʻqolish xavfi paydo boʻldi.

Maʼlumki, yer yuzining toʻrt dan uch qismi suv bilan qoplangan. Ammo 2,5 foizi yaqin chuchuk suv bor, xolos. Demak, ichimlik suvidan ham tejab-tergab foydalanish kerak.

Tuproq ham insoniyat boyligidir. Ajdodlarimiz oʻrmonlarning kesilishi – tuproq yemirilishining kuchayishiga, yer osti va yer usti suvlarning kamayishiga, iqlimning oʻzgarishiga, hayvonlarning yoʻqolishiga olib kelishini aniqlaganlar. Shuning uchun ham tabiatga yuksak mehr va ehtirom koʻrsatganlar. Asrlar davomida yosh avlodni suvga tupurma, nonni bosma koʻzingga surt, daraxtni sindirma, qushlarga ozor berma deb, tarbiyalab keldilar.

Oʻz qarashlarini insonlar xalq ogʻzaki ijodi orqali ifodaladilar. Masalan, maqollarda yer, yer osti boyliklari, suv, hayvonot olami, qushlar oʻsimliklar va boshqa tabiat boyliklarini chuqur mazmunli satrlarda taʼrifladi. Hatto oldinlari farzand dunyoga kelsa, unga atab, yaxshi umidlar bilan koʻchatlar oʻtqazganlar. Donishmandlik durdonasi hisoblangan hadislar taʼlim-tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish haqida hadislarda ham diqqatga sazovor fikrlar aytilgan. Masalan, «Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri doʻzaxga mahkum etur», deb insonlarni qoʻrqitish orqali tabiatga zarar keltirmaslik targʻib qilinsa, «Dehqonchilik bilan shugʻullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qoʻriqchilarni koʻpaytiringlar» deyishi bilan halol mehnat

samarasini ko'rish zarurligi uqtiriladi.

«Qaysi bir musulmon ekin eksa, yoki biror daraxt o'tqazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hayvon esa, uning ekinidari yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi», - deb bag'rikenglik, jonzotlarni asrash zarurligi g'oyasi ulug'lanadi. «Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomatqoim bo'lishi aniq bo'lganida ham ulgursangiz, uni ekib qo'yavering», «Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shahidlik ajri beriladi» kabi hadislarda ekologiya va tabiat muhofazasiga oid tushunchalar beriladi. Demak, ota-bobolarimiz azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishgan. Yurti obod etishgan, ko'chatlarni, hovlilarni sarishta saqlashgan.

Xalqimizning tabiatga munosabati urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, navrq'z bayrami, xirmon to'yi kabi bayramlarida ham ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarziga aylanib ketgan. Bu muqaddas zaminni, bu diyorni obod etish, uning atrof-muhitini toza saqlash – shu mamlakat har bir fuqarosining insoniy burchidir. Obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik har bir inson uchun, xususan, pedagoglar va o'qituvchilar uchun ham ekologik ma'naviy mezondir, o'quvchilar ekologik tarbiya ishlari jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish. Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash o'quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab-avaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyotkorlik hissinı tarbiyalash shaxsda axloqiy belgilarni rivojlantirishga yordam beradi.

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat



tarbiyasining o'zni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidir. Mehnat tarbiyaviy ishi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogika fanida yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta rol o'ynashini rus pedagogi K.D.Ushinskiy bunday deb yozgan edi: «Tarbiyaning o'zi, agar u kishining baxtiyor bo'lishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehnatiga tayyorlashi lozim».

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi. uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahli bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik zarur. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag'batini qaror toptirish;
- mehnatga ongli munosabatda bo'lishlikni qaror toptirish;
- mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va o'rnini anglash;
- o'tmish ajdodlarimizning mehnatini ulug'lovchi qadriyatlarni



anglash va shu kabilar.

Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi dasturi namunaviy xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilar mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijasiga nisbatan davlatning minimum (eng quyi) talablari aks etadi.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o'zgarmoqda, u o'zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hamda holatlarni ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo'lib, shaxsni yo'naltiruvchi xususiyatga egadir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnatta'limi va tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;

2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-ayaylashga o'rgatish;

3. Mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;

4. O'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;

8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

9. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalashi; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, «Mohir qo'llar» tanlovi, «Quvnoq shahar ustaxonasi», o'quv-ishlab chiqarish kombipatlari brigadalari, yordamchi xo'jalik, «Yosh radiotexniklar stansiyasi» va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi va boshqalar.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati – bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishini natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir:

- maishiy mehnat;
- o'quv mehnati;
- o'quv-ishlab chiqarish mehnati;
- texnik mehnat;
- ijtimoiy-unumli mehnat;
- ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Bolalar bajaradigan ilk mehnat turi maishiy mehnat bo'lib, u o'z-



o'ziga xizmat ko'rsatishdan boshlanadi.

Maktabda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga doir quyidagi mehnat ko'rinishlari davom ettiriladi: sinf xonalari va maktab binosi hovlisini ozoda saqlash, tartib-qoidalariga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gulxonalarda gullarni o'stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv havzalari (basseyn)da o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi yumushlarga o'quvchilarni jalb etadilar. Maishiy mehnat yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnatida mehnatsevarlik, qat'iylik, tashabbuskorlik, olg'a intilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

Maktab o'quv rejasiga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida shunday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishdan iborat. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim davrida mehnat ta'limi darslarida qo'l mehnati sirlarini o'rganadilar, turli materiallar bilan tanishadilar, dastlabki mehnat tajribasiga ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta ta'lim davrida o'quv ustaxonalarida, maktabga tegishli o'quv-tajriba maydonlarida, otaliq korxonalar tsexlarida anchagina murakkab mehnat faoliyatini tashkil eta boshlaydilar. Bunday sharoitda mehnat qilish egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatini beradi.

Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash ishlarini kuchaytirish maqsadida endilikda «o'quv-ishlab chiqarish» tizimini umumiy o'rta maktablar faoliyatiga olib kirish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan talablar:

- tashkil etilayotgan mehnat faoliyati bo'yicha yo'nalish, bilim, tushuncha tasavvurlarning shakllanganlik darajasini e'tiborga olish;
 - mehnat faoliyatining axloqiy asosda ijtimoiy-g'oyaviy mazmunga egaligi;
 - mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga egaligi va shaxs manfaatdorligi;
 - mehnat topshiriqlarini berishda o'quvchilar imkoniyatlarini hisobga olish;
 - mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo'lishiga erishish;
 - mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi;
 - mehnat faoliyati natijaviyligiga alohida e'tibor berish;
- O'quvchilar mehnat faoliyatining axloqiy asosda. ijtimoiy-

g'oyaviy mazmuniga ega bo'lishi. O'quvchilarning mehnat faoliyatiga qo'yiladigan mazkur talablar ularni vatan ravnaqi, xalq baxt-saodati yo'lida mehnat qilayotganliklari, mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida umumjaniyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun kelishiga harakat qilayotganliklarida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda fidoyilik, chidamlilik, sabr-toqat, onglilik, to'g'rilik, halollik, mehnatga nisbatan vijdonan yondashish kabi xislatlar shakllanadi. Bajarilayotgan mehnat yoki shaxsning o'ziga, shuningdek, atrofdagilarga yoki ijtimoiy jamiyat uchun foyda keltirishni o'quvchilarga tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularga har qanday mazmun va ko'lamdagi mehnatning besamar bo'lmashligini uqtirib o'tish joiz.

Mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga egaligi – muhim pedagogik talab sanaladi. O'quvchilar mehnat faoliyati ularda jamoatchilik ko'nikmalarini hosil qilish, o'zaro yordam va do'stlik aloqalarini mustahkamlashni ko'zda tutish lozim. Jamoa asosida tashkil etiladigan mehnat faoliyatida har bir o'quvchining yagona maqsadi asosida mehnat qilish uchun sharoit yaratiladi. O'quvchi mustaqil harakat qilish bilan birga o'rtoqlariga yordamlashadi. Muhimi, jamoa mehnat faoliyatining ijobiy samarasi uchun har bir o'quvchining mashg'ulligi ortib boradi.

Mehnat topshiriqlarni berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish. Mehnat topshiriqlari hamma vaqt o'quvchining kuchi va imkoniyatiga muvofiq bo'lishi kerak. Mehnat faoliyati ularni almashtirib turish, jismoniy mehnatni aqliy mehnat bilan yoki dam olish bilan qo'shib olib borish, mehnat jarayoniga yangi unsurlarni singdirish, mehnatni tashkil etish chog'ida o'quvchilarni zo'rliqtirmaslik, toliqtirmaslik zarur.

Mehnat tarbiyasi, mehnat faoliyatiga layoqatlilikni shakllantirish ham oilada ham ta'lim maskanida tashkil etishga qaratilgan jarayondir.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy yo'naltirilgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish yo'llari?
3. Axloqiy tarbiyaviy ish zaruriyati?
4. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish mazmuni?
5. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ishning mohiyati?



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Фахрутдинова А. В. Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / Фахрутдинова А.В. // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215 – 220.
3. Макарова О. Ю. Воспитательное пространство вуза и его роль в подготовке молодого специалиста / О. Ю. Макарова // Педагогическое образование: история. современность, перспективы. – Казань, 2012. – С. 291 – 293.
4. Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003). Columbia University Press
5. S. Nishonova. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. -
6. С.Т. Щацкий. Бодрая жизнь. Дети работники будущего. Пед. Соч. В 4 – М., 1962, Т. 1.
7. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T.: 2006.
8. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A, Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.
9. E.Yuzlikayeva. Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
10. O.Hasanboyeva, G. Shomaribxo'jayeva, Sh. Egamnazarova, N. Qayumova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma 4-nashri. T - «Ilm ziyo» - 2016.

1. www.zivo.net
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.istedod.uz
5. www.lex.uz
6. www.mv.gov.uz



4 - MAVZU

TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA GURUH RAHBARINING PEDAGOGIK MAHORATI

Reja:

1. Guruh rahbarining faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'рни.
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.
3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'zaro munosabatlarda nutqsiz vositalarning ahamiyati.

Tayanch so'z va tushunchalar: pedagogik mahorat, rahbarning ish stoli, pedagogik texnika, ma'naviy va estetik qiyofa, mimika, pantomimika, ijobiy tarbiyaviy ta'sir, nutq tempi, ovoz diapazoni.

1. Guruh rahbarining faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'рни. O'quvchilarni har xil fe'l-atvor yosh va saviyada ham teng bo'lgan jamoani boshqarib tutuvchi shaxsga guruh rahbari deb ataladi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida e'tiborli, tushunadigan bo'lishi kerak.

Guruh rahbariga qo'yiladigan birinchi axloqiy talab, bu o'quvchiga hurmat bilan, mehr bilan qarash. Ma'naviy shakllanish o'quvchidan ko'p kuch va ko'p vaqt talab etadi. Ichki qarama-qarshiliklar o'quvchini xulqida salbiy ko'rinishlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda murabbiy etiket chegarasi doirasida ish olib borishi mehr va toqat bilan ish yuritishi shart.

Murabbiy har bir shaxsni baholashda uning jamoadagi o'rniga, o'qishdagi muvaffaqiyatlariga, ota-onasining nasl-nasabiga qarab emas, balki shu o'quvchining ichki dunyosini shakllanishi darajasiga, odamiyligiga qarab baho berishi lozim. Bu kamsitmaslik ularning tarbiyasi ustida ish olib borayotgan davrda nuqsonlarni yo'qotishga harakat qilish va hurmat bilan qarashi zarur.

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sarmazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, o'quvchilar hayotining

nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshirishini behato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni kechadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Guruh rahbarining ish stolida «O'quvchilarni tarbiyalash ishining mazmuni» bo'lishi kerak. Chunonchi,

- dunyoqarashi asoslarini tarkib toptirish;
- siyosiy onglikni tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish, axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash;
- o'qishga ongli munosabatni tarbiyalash;
- bilish faolligini va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish;
- mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash, politexnika bilim doirasini kengaytirish, kasbni ongli tanlashga tayyorlash;
- o'z huquqini anglab yetishga o'rgatish, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalash;
- estetik madaniyat asoslarini tarbiyalash va badiiy qobiliyatni rivojlantirish;
- jismoniy barkamollik, salomatlikni, mustahkamlash va sanitariya-gigiyena madaniyati kabi muhim masalalar alohida qayd etiladi.

Pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Guruh rahbarining pedagogik mahorat o'ziga o'quvchilar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim muassasasi haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi:

- har bir o'quvchini shaxs sifatida o'rganish;
- o'quvchilarning guruhda tarbiyalashni tashkil etish;
- o'quvchining bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash;
- guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish;
- fan o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni (koordinatsiyalash) birlashtirish;
- o'quvchining ota-onalari bilan ishlash;

Guruh rahbari fan o'qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali



muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik o'quvchi qo'ygan, bu o'quvchi tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Demak, yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat:

- yuqori g'oyaviylik va onglilik;
- guruh rahbari katta obro'ga ehtiromga va hurmatga ega bo'lishi;
- pedagogik mahorat;
- madaniy qobiliyatning mavjudligi;
- pedagogik odobga ega bo'lish, yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromli bo'lish;
- tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bo'lish;
- tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish;
- guruh rahbari kasbini yuqoriga ko'tarish, mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo'lish;

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham, biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko'rsatishni zarur, deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

- o'quvchilarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- ularning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish;
- o'quvchilarning tartibga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish;
- guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan doimiy ijodiy aloqada bo'lish;
- darsda o'quvchilarning davomatini ta'minlash, guruhda va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xoitani jihozlash, xonadagi o'quv asboblarni saqlashga o'rgatish, o'quvchilarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o'tkazish;
- guruh majlislarini tizimli va tartibli o'tkazish;
- «Yoshlar ittifoqi» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning darsdan tashqari o'qishlari va anjumanlarini o'tkazish;
- guruh o'quvchilari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi

borasida tadbiriy choralar ko'rish, o'quvchilar sog'lig'ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish;

- o'quvchilarni rag'batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko'rish;

- o'quvchilarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatda bo'lish;

- o'quvchilarning shaxsiy va guruhga oid hujjatlarni tartibli olib borish;

Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari o'quvchining ta'lim olishlarini uyushtirishning tahminiy rejasini tuzadi. Bu reja esa o'quvchilar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

I. O'quvchining o'rganishning taxminiy dasturi

- o'quvchilar to'g'risida umumiy ma'lumot;
- o'quvchi qayerda yashashi;
- ota-onasining kasbi va ish joyi.
- oila a'zolarining va ularning moddiy ta'minlanganligi;
- oilada ota-onaning o'zaro munosabatlari;
- oilada o'quvchini tarbiyalash xarakteri;
- o'quvchining tartibi;
- oilaning xo'jalik ishlarida o'quvchining ishtiroki;
- o'quvchining hayotida eng muhim voqealar;
- o'quvchining sog'ligi to'g'risida ma'lumot;

II. Yoshlar taraqqiyotining umumiy holati:

- umumiy taraqqiyot (nutq madaniyati, dunyoqarashi, xarakteri, kino, teatr, muzey, sport majmualariga borish);

- o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabati;
- o'quvchining davomati;
- o'quvchining jismoniy mehnatiga munosabati;
- o'quvchining intizomi, xulqi, tirishqoqligi;
- o'quvchining qiziqishi (o'qishga, sportga);

III. O'quvchining jamoat ishlarida ishtiroki:

- guruhning jamoat ishlarida ishtirok etish;
- jamoat ishlarini bajarishi;
- o'quvchining guruhdagi obro'yi va mavqeyi.

IV. O'quvchi shaxsining asosiy xususiyatlari:

- jamoatchilik dunyo qarashi;
- o'quvchining ma'naviy sifatlari. vatanni sevish, do'stlik, insoniylik, baynalminallik;
- irodalilik, xarakteri va xususiyatlari. (maqsadli bo'lish, faollik, botirlik, tashkilotchilik, mustaqillik, intizomlik, bandlik, kamtarlik va hokazo)
- o'quvchi mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat, xotira, xayol, ruhiy holatlar)

V. O'quvchini o'rganish asosida guruh rabbari quyidagi chora-tadbirlarni tuzadi:

- o'quvchining qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim;
- o'quvchi axloqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak?

VI. Guruhni o'rganishning dasturi

- guruh hayoti;
- guruhdagi o'quvchilarning yoshi, ruhiy, fiziologik va gigiyenik xolatlari;
- o'quvchilarning shaxsiy taraqqiyoti, ma'rifatchilik jihatlari;
- guruhdagi jamoatchilik ishlari.

VII. Guruhning hamjihatligi va uyushqoqligi:

- o'quvchilarning o'zaro munosabati;
- o'quvchilarning birgalikda mehnat qilishlari va uning vaqti;
- qizlar va o'g'il bolalarning do'stligi hamda hamfikrligi;
- jamoa a'zolarini himoya qilish.

O'quvchilar jamoasining yuqori ko'rsatilgan usullar bilan holatini o'rganish o'qituvchiga ko'ra imkoniyatlar beradi, Tajribali o'qituvchilar hamma vaqt biror guruhning rahbarligini olishdan avval oldin guruhni batafsil o'rganadilar, bu esa keyinchalik guruh rahbariga vaqti tejashda, aniq ish rejalarini tuzishda va o'z faoliyatini o'quvchilari davomida belgilangan tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Har davrda har bir jamiyatning o'ziga xos tanlov yo'li bo'ladi. Muvaffaqiyatli natija ega bo'lgan yo'ldan esa boshqalar ko'rib, xulosa chiqaradilar. Quyida biz jahon tajribasi haqida to'xtalishni lozim topdik.

Yevropa Ittifoqi ta'lim paradigmasida har bir mutaxassisda shakllantiriluvchi besh kasbiy-axloqiy malakalar tizimi

Mas'uliyatlilik, birgalikda jamoada ishlash, qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog'liq malakalar;	Hozirgi global siyosiy-madaniy jamiyatda farovon tumnush kechirish, o'zga dinga e'tiqod etuvchi, boshqa til va madaniyat vakillari bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli yashay olish bilan bog'liq malakalar;	Rivojlangan nutq madaniyatiga ega bo'lish va ikki yoki undan ortiq xorijiy tillarni bilish bilan bog'liq malakalar;	Zamonaviy informatsion texnologiyalarni ishlatish, ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilish, talqin etish va o'zgartirish bilan bog'liq malakalar;	Ma'naviy va kasbiy faoliyat bilan bog'liq bilimlarni uzluksiz o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish malakalari.
---	--	---	--	--

Amerika pedagogik adabiyotlarida tarkibiy va metodik ishlangan talablar asosida hayotiy muhim malakalarni o'rgatishi bilan e'tiborga molikdir. Xususan, ish qidirish jarayonida yoki shaxsiy va kasbiy sohada yutuqlarga erishish uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy malakalar, fuqaroviy malakalar (ma'lumot olish, qaror qabul qilish, muloqotga kirishuvchanlik, fikrlash, hamkorlik qila olish ko'nikmasi v.b.). Malakaviy yondoshuvning amaliyoti va nazariyasi AQSh hukumatining qator huquqiy aktlarida o'z aksini topgan.²⁶

2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari, bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida

²⁶ National Council for the Social Studies, Curriculum Standards: Social Education // National Council for the Social Studies. – 2001. – 65 (9). – P. 315. – 318.



qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruhi komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozi boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruhi komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvofiqatda saqlab boshqara olishi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlari, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdagi tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi. Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga



ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati – pedagogik ta'sir ko'rsatishidagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va muloqotda no'noq bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi.

Psixolog olimlar R. Z. Gaynutdinov, M. G. Davletshin, S. Jalilova, M. Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, o'qituvchining shaxsiy «Mehnat professiogrammasi»ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigati maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan «O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi»da quyidagi xislatlar, ya'ni «Pedagogik texnika» malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

– ***O'qituvchining shaxsiy xislatlari:*** bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

– ***Kasbiga xos bilimlari:*** ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

– ***Kasbiga xos xislatlari:*** milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

– ***Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:*** dars mashg'ulotlarida zarur



materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamoasini boshqara olishi.

– **Tashkilotchilik malakalari:** o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

– **Kommunikativ malakalari:** o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

– **Gnostik malakalari:** o'quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi. o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalanib bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

– **Ijodiy xislatlari:** o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.

1. O'qituvchining pedagogik texnikasi – pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, be'rad uzoq ijodiy izlanishlar va azob-uqubatli kechinmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'qituvchining fahm-farosati, bilimi va mahorati bilan amalga oshiriladigan qizg'in ijodiy mehnatining mahsulidir.

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diktsiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 50 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga

bogʻliq. Oʻquvchilar oʻqituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan oʻqituvchining darsi oʻquvchilar uchun zerikarli boʻladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chogʻida ovozni baland qilib soʻzlashish oʻquvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi.

Oʻqituvchilar oʻz nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, soʻzlarning chiroyli, maʼnoli, taʼsirchan boʻlishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda soʻzlashish oʻqituvchining idrokini boʻshashtiradi va susaytiradi.

Oʻqituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bogʻlab ishlatasa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni oʻziga jalb etadi va oʻquv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

Oʻqituvchining notiqlik texnikasi soʻzlarni aniq, toʻgʻri, tiniq eshitilardi va tushunarli bayon qilishida namoyon boʻladi. Toʻgʻri va mukammal ovoz diksiyasiga ega boʻlgan oʻqituvchi soʻzlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jagʻ ishtirok etadi. Oʻqituvchi ifodali gapirishi, soʻzlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, oʻqituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslida koʻrib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, oʻqituvchi oʻz fanini, oʻqitadigan predmetining boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan oʻz-oʻzini tarbiyalay oladigan boʻlishi zarur.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish oʻqituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bogʻliq. Bu malakalar zarur bilimlar boʻyicha maʼruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni oʻqish orqali qoʻlga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yoʻl-yoʻriqlar, koʻrsatmalarni oʻzining individual kasbiy tajribasida

sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtireki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabalik yillarida o'zida tajribali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan xoli bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

II. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'zaro munosabatlarda nutqsiz vositalarning ahamiyati. Pedagogik ijodkorlikning asosiy

bosqichlariga nisbatan o'qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqlovchi omil ekanligi.

- sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida sodir bo'lishi, o'qituvchi ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

- o'qituvchining sinf jamoasi bilan muloqoti tizimi, pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

- o'quvchilar bilan muomaladan qanoat hosil qilish, keyingi pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil ekanligi.

Bolalar bilan bo'lajak muomala oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishida uning o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi o'qituvchining o'rganilayotgan yangi o'quv materialiga nisbatan o'z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o'qituvchi tomonidan quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran yodga tushirish; ko'zgu oldida takrorlash; namuna sifatida san'at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, rashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA – bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini ku-

chaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, chehra o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekamu ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Dostkaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA – bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin.

O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini «chiza» olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar. ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan xoli bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va organilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tirimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida

tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqlashlardan o'zini saqlay oladi.

Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilishda o'qituvchi quyidagi faoliyatlarga jiddiy e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir:

- sport bilan muntazam shug'ullanib borish;
- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borishi;
- o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo'lishi;
- o'z harakatini nazorat qilishi (muskul zo'riqlashini, qo'l,oyoq va bosh)
- harakatini, nutq tempini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish;
- madaniy xordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sog'ligiga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevinib o'qiy olish);
- o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lib, ta'sir ko'rsata olish.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishiga yordamlashadi.

Nazorat savollari

1. Guruh rahbarining faoliyatida pedagogik mahoratning tutgan o'rni qanday?
2. Guruh rahbarining faoliyatida kasbiy mahoratning ahamiyati?
3. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati?
4. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'zaro munosabatlarda nutqsiz vositalarning ahamiyati deganda nimalarni bilib oldingiz?
5. Sinf o'quvchilari jamoasini tashkil etish va tarbiyalashning o'ziga xosligi.
6. Pedagogik texnikaning namoyon bo'lish xususiyatlari.
7. Pedagogik texnika va uni egallash yo'llari qanday?



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; «Sharq», 1997, 20-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; «Sharq», 1997, 31-61 betlar.

3. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent, «O'zbekiston», 2009. – 24 bet.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 176 b.

5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.

6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi ning psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.

7. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1987. – 160 с.

8. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования.- М.: МГОПИ. Алфа, 1993.- 120с.

9. National Council for the Social Studies, Curriculum Standards: Social Education // National Council for the Social Studies. – 2001. – 65 (5). – P. 315. –318 .

10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 380 b.

11. Макаренко А.С. О воспитании //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.

12. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещение, 1990.- 254 с.

13. Sodiqova T. Murabbiy kim?... – T.: «Toshkent islom universiteti», 2006. – 83 b.

14. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.- 149 b.

1. www.zivo.net

2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz

4. www.istedod.uz

5. www.lex.uz

6. www.mv.gov.uz



5-MAVZU

TARBIYA JARAYONIDA MUOMALANING TUTGAN O'RNI

Reja:

1. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining mohiyati.
2. O'qituvchi muomala subyekti sifatida.
3. O'qituvchi faoliyatida muomalaning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: muomala mohiyati va subyekti, pedagogik muloqot, muomala madaniyati, vazifalar majmui, ijodiy va emotsional.

1. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining mohiyati.

Jamoatchilik printsiplarini amalga oshirish o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro munosabati muammosini eng dolzarb muammolar qatoriga qo'ydi.

«Muloqot – bu axborot va predmet aloqa bo'lib, bu jarayon davomida shaxslararo munosabat shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo faol muloqot bu tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligini tasdiqlovchi birdan-bir omildir»²⁷. Muloqotni to'g'ri tashkil qilish esa o'qituvchidan pedagogik mahoratni talab etadi. Bu haqida pedagog olimlarning o'z qarashlari mavjud.

N. K. Krupskaya jamoa tarbiya nazariyasini ishlab chiqar ekan, jamoatchilik printsiplarini, jamoa tarbiya usullarini tarbiya amaliyotiga joriy etish uchun kurashib, o'qituvchilar bilan o'quvchilarning insonparvarlik, o'rtoqlik munosabatlarini, o'qituvchilar bilan o'quvchilarning har bir jamoa a'zosiga, diqqat-e'tiborini maktab samaradorligining kafolati va manbai, jamoachilar tarbiyalashning zarur sharti deb hisoblaydi. U maktabda bunday munosabatlarni rivojlantirish masalasini qo'ydi, uni hal qilish yo'llari va usullarini ishlab chiqdi²⁸.

Nadejda Konstantinovna maktab va pedagogika tarixida birinchi bo'lib, bolalarni bir-birlari bilan va umuman odamlar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishlari zarurligi masalasini o'rta qo'ydi. U tarbiyaviy ishlar jarayonida bolalarga singdirishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarga bag'ishlangan asarlaridan birida jonli muomalani,

²⁷ Г.М. Андреева. Социальная психология. М.: Издательство «Аспект Пресс». -2014. Издание 5-е.-363 стр. С. 89.

²⁸ С.Т. Шацкий. Беслая жизнь. Дети работники будущего. Нед. Соч. В 4 – М., 1962. Т. 1.

masofadan turib muomala qilishni, tashkilotchilik ko'nikmalarini, o'zaro munosabatni alohida ajratib ko'rsatadi, ulardan har birining mazmunini ochib beradi²⁹.

Pedagoglar jamoasidagi o'zaro munosabatlar va muomala muammosi nazariya sohasida samarali ravishda tadqiq qilinyapti va shu bilan bir vaqtning o'zida maktab amaliyotiga faollik va jadallik bilan joriy etilib kelinmoqda. Bu masalalar S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylarning asarlariada ancha izchillik bilan qarab chiqilgan³⁰.

S.T.Shatskiy o'z pedagogik faoliyatining dastlabki qadamlaridan boshlab o'qituvchilarni muammosi nazariya sohasida samarali ravishda tadqiq qilinyapti va shu bilan bir vaqtning o'zida maktab amaliyotiga faollik va jadallik bilan joriy etilib kelinmoqda. Bu masalalar S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylarning asarlariada ancha izchillik bilan qarab chiqilgan³⁰.

S.T.Shatskiy o'z pedagogik faoliyatining dastlabki qadamlaridan boshlab o'qituvchilarni muammosi nazariya sohasida samarali ravishda tadqiq qilinyapti va shu bilan bir vaqtning o'zida maktab amaliyotiga faollik va jadallik bilan joriy etilib kelinmoqda. Bu masalalar S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylarning asarlariada ancha izchillik bilan qarab chiqilgan³⁰.

S.T.Shatskiy o'z pedagogik faoliyatining dastlabki qadamlaridan boshlab o'qituvchilarni muammosi nazariya sohasida samarali ravishda tadqiq qilinyapti va shu bilan bir vaqtning o'zida maktab amaliyotiga faollik va jadallik bilan joriy etilib kelinmoqda. Bu masalalar S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylarning asarlariada ancha izchillik bilan qarab chiqilgan³⁰.

S.T.Shatskiy o'z pedagogik faoliyatining dastlabki qadamlaridan boshlab o'qituvchilarni muammosi nazariya sohasida samarali ravishda tadqiq qilinyapti va shu bilan bir vaqtning o'zida maktab amaliyotiga faollik va jadallik bilan joriy etilib kelinmoqda. Bu masalalar S.T.Shatskiy, A.S.Makarenko va V.A.Suxomlinskiylarning asarlariada ancha izchillik bilan qarab chiqilgan³⁰.

²⁹ A.A.S.Makarenko. Педагогическая поэма. //соч. М., 1957. Т. 1. Марш 30 года.

³⁰ В.А. Сухомлинский. Мудрая власть коллектива. М. 1975.



ko'p qiziqarli fikrlar aytgan, foydali maslahatlar bergan.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan bevosita muomalasini maktab o'quvchilarining muomalasiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi, deb qarash mumkin.

Muomala axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda boshqarish subyektidan (pedagogdan) boshqarish obyektiga (o'quvchilarga) boradi va aksincha – obyektidan subyektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman, jamoa haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat xilma-xil axborotga ega bo'ladi va hokazo. O'z navbatida pedagog muomala jarayonida o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning o'quvchilarga murojaatida tag ma'no tarzida botinam kirib boradigan axborotni ma'lum qiladi.

Endi o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomalasi sohasida namoyon bo'ladigan ayrim bir qolipdagi fikrlarni qarab chiqamiz³¹. Bir qolipdagi fikrlar, umuman, pedagogik faoliyatda va xususan, o'quvchilar bilan munosabatlar sohasida ijobiy rol o'ynashi mumkin – pedagogning g'ayratini tejaydi, ancha tez pedagogik ta'sir etishga yordamlashadi va hokazo. Shuning uchun ham o'qituvchida tegishli bir qolipdagi fikrlarning muayyan sistemasi bo'lishi muhimdir, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. Gap birinchi navbatda o'qituvchida hosil bo'lgan shunday fikrlar, chunki o'quvchilar bilan, albatta, xushmuomalada bo'lish, o'quvchi shaxsiga printspial yondashuvning yuqori darajasini o'zining birorta ham o'quvchisi yomon bo'lishi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch bilan qo'shilib ketishi va hokazolar haqida boradi.

Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy namunalari ham estetik tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaligini unutmaslik kerak. Shuning uchun o'qituvchining jamoaga nisbatan diqqat motivlarini shakllantirishda, avvalo, tarbiyachining estetik jihatdan tarbiyalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.³²

O'qituvchining ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga

³¹В.А. Сухомлинский. Духовный мир школа. – М., 1961

³²Peter Menck. Locking Into Classrooms: Papers on Didactics



oshirish davrida, munosabat amalga oshgandan keyingi his qilinadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy o'qituvchilik munosabatni amalga oshirish uchun juda muhim bo'lgan o'qituvchining psixik holatlari va ularni faoliyati hamda munosabati jarayonida boshqarish muammosi ga yaqinlashib kelyapmiz.

Kasbiy pedagogik munosabat jarayonida ijobiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsga bo'lgan psixologik rag'bat, guruh bilan bo'ladigan munosabatga rag'bat, o'zaro fikr almashish ilhomi degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oshirilishi murakkab jarayondir. Dastlab o'qituvchining mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida uning o'qituvchilik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo'lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatidan qoniqishini oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom guruh bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilish paytida xuddi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo'ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi ijodiy kayfiyati o'qituvchining ijodiy individualligining o'ziga xosligi, o'quvchilar jamoasining xususiyatlari, faoliyat sharoitlari va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. O'qituvchining munosabatidagi kayfiyati o'qituvchilik ta'sir ko'rastirishning obyektari-subyektlari bo'lgan o'quvchilarning ijodiy kayfiyati bilan ko'p jihatdan bog'liqdir. Buning ustiga o'qituvchining mustaqil psixologik yo'l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning guruh bilan uzviy hamkorligi paytida aynan o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatga bog'liqdir.

O'quvchilar bilan bo'ladigan munosabat oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishda uning o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. O'quv materialiga o'z munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini o'ylab olish, tabiiyki, darsga, tadbirga shunday psixologik tayyorgarlik ko'rishga tayanadiki, uning tarkibiy qismlari sanab o'tilgan. Darsda tadbirlarda o'z fikrlari, his-tuyg'ularini qanday qilib yaxshiroq va yorqinroq gavdalanitirish ustida mulohaza yuritir ekan, o'qituvchi bo'lajak faoliyat vaziyatga kirib boradi, unga chog'lanadi, uning shakllarini his qiladi, faoliyatga bo'lgan o'zining hissiy munosabatini yetkazish vositalarini izlaydi.



O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalada o'zini boshqara bilishi nihoyatda zarurdir. O'qituvchining darsdagi yomon, noijodiy kayfiyati darhol umuman guruh ning ijodiy kayfiyatiga ta'sir qiladi, biragalikdagi faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ijodiy kayfiyatini boshqarishining taklif etilgan tizimi individual o'zlashtirishni, o'z ustida muntazam yo'naltirilgan quyidagicha ish olib borishni talab qiladi:

- o'quvchilar bilan muomala jarayonida va bevosita undan oldin ijodiy kayfiyatni boshqarish;
- o'qituvchi mehnatining eng muhim kasbkorlik talabi bo'lib, u o'qituvchining guruhda, o'quvchilar bilan muomalada va shu kabilarda erkin bo'lishni, xulq-atvorning samarli bo'lishni ta'minlaydi. O'qituvchilik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan o'qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta'sirining quydagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:
- o'qituvchining guruhdagi muomalasini oldindan payqashi uning ijodiy kayfiyatini safarbar qiluvchi omil ekanligi;
- guruh bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida o'qituvchi ijodiy kayfiyatining rag'batlantiruvchi omili sifatida;
- o'qituvchining guruh bilan muomalasi tizimi: u faoliyat jarayonida o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi;
- muomaladan qanoat hosil qilish shundan keyingi faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida.

O'qituvchining muomala jarayoni o'zida kechadigan bir qancha shart-sharoitlar bilan murakkablashadi. Muomala shart-sharoitlari muomala xarakteriga ancha ta'sir qiladi, aslida ular muomalaning kasbiy yo'nalishini ko'p jihatidan belgilab beradi. Muomalaning oshkoralik vaziyat ko'pgina qiyinchiliklar tug'diradi.

Tadqiqotchilar qayd etib tganlaridek, kishilar oldida, katta auditoriya oldida muomala qilish auditoriyaning gapiruvchiga diqqat qilishga mo'ljallangan bo'lib boshlovchilar uchun nihoyatda murakkabdir va maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan o'tkazilishi mumkin emas. Faqat o'zaro fikr almashish malaka va usullarini egallashgina muomala jarayonida o'qituvchining hissiy kayfiyatini ta'minlaydi.

Muomala madaniyatining o'quvchining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlari bilan

belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. O'qituvchining muomalasining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, muomalada har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik, sinf jamoasi bilan umumiy muomala jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin o'qituvchilik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muomala asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand o'qituvchilik va psixologik muomala uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga «kirib borish» ga yo'l ochadi;

uchinchidan, muomalada o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muomalaning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini xotirjamligini ta'minlaydi.

2. O'qituvchi muomala subyekti sifatida. O'qituvchilik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muomala madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda o'qituvchilik muomala madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muomala madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muomalaning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muomala asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar hatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muomala uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni o'zluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, xulq-atvorni vujudga keltirish;

- o'qituvchilik muomala madaniyatining samarali kechishi



uchun uning shart- sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning «ustoz-shogird» an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

– muomala obyekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nirnani anglash kerak?

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan muomala qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muomalani to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi:

2. Shaxsiy muomalada ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralari izlab topish: muomalada qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish;

3. O'qituvchi o'zi uchun muomala madaniyatining qulay bo'lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o'z-o'zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash;

4. O'zining muomala madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an'ana va ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish;

5. Muomala madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (o'qituvchilik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).

Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muomalada o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muomala madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida o'qituvchilik ta'sir ko'rsatish uchun, o'qituvchining o'qituvchilik muomala madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida o'quvchi qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muomala qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish o'qituvchilik muomala madaniyatiga amal qiladigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:



– mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy o‘quvchi va ehtiyojlariga mos bo‘lgan yuksak ma‘naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e‘tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg‘ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

– o‘quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko‘nikmasi va malakasining shakllanganligi;

– jamiyatda ro‘y berayotgan hodisalar, jahonda ro‘y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan o‘qituvchilik ko‘zatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;

– o‘qituvchilik faoliyatining barcha jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o‘z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

– har qanday favqulodda vaziyatlarga, jamiyatda ro‘y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo‘lish, o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

– o‘qituvchi faoliyatida, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

– dunyoqarashi va tafakkur ko‘lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilliligi, muayyan ilmiy salohiyat va o‘qituvchilik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

– o‘quvchilar bilan muomalada layoqatlilik, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma‘noli, ta’sirchan kuchga egaligi, psixologik ta’sir o‘tkazish bilan qurollanganligi kabilardir.

Har bir o‘qituvchi uchun o‘quvchilarga to‘g‘ri, omilkor axborot o‘zatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o‘qituvchining muomala madaniyati, ma‘naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘qituvchilik faoliyati uzluksizdir, shu sababli u o‘qituvchilik muomala madaniyatini ham muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor berishi lozim:



– yuksak o‘qituvchilik faoliyat nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini anglashi, (muomalada o‘zining o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o‘zaro fikr almashish yo‘li bilan o‘z-o‘zini tarbiyalashi;

– kishilar bilan o‘zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muomala asosida to‘g‘ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muomalada o‘zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o‘qituvchilar jamoasi, o‘quvchilar, ota-onalar) qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi;

– o‘zida muoshirat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi;

– o‘quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o‘zaro fikr almashish asosida o‘qituvchilik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi;

– muomala jarayonida paydo bo‘luvchi salbiy holatlarni yengish ko‘nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi lozim.

O‘qituvchi muomala madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o‘quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo‘lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o‘qituvchining o‘qituvchilik muomalai jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sinfda sodir etiladigan har qanday vaziyatga javobgar shaxs o‘qituvchidir. Bu – barcha davrlar o‘qituvchilik faoliyatida namoyon bo‘ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina o‘z faoliyatini boshlagan yosh o‘qituvchilarning o‘qituvchilik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan olib boradigan ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish, barcha o‘quv muassasalari o‘qituvchilik jamoatchiligiga, ustoz o‘qituvchilar zimmasiga yuk atilishi lozim. Pedagogik faoliyatida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yadigan o‘qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko‘lamiga, odatda, o‘quvchilar hech qachon e‘tibor bermaydilar. Chunki o‘quvchilar yoshidan va tajribasidan qat‘i nazar barcha o‘qituvchilarni ustoz, deb ataydilar. O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya va o‘qituvchilik muomalasining o‘ziga xos an‘analari, milliyligimizga mos shakl va metodlari mavjud.

Hozirgi zamon o‘qituvchisidan hayot sinovlariga bardoshli bo‘lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini

topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi.

O'qituvchilik muomalaga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud o'qituvchilik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muomala ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy xislatlarini rivojlantirib borishni ta'minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muomalaga ba'zi o'quvchilarning subyektiv qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muomalani oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda o'zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muomala jarayonida tarbiyalanuvchi obyektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko'ra bilish;

- obyektida psixologik to'siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo'lga kiritish;

- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanish mumkin muomalalarning bir nechta modeliga ega bo'lish;

- o'quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo'shilish, ularga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;

- o'zaro muomala natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni o'qituvchilik-psixologik vositalar asosida taqqoslash kabildir.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining muomala shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy-siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi shaxsining professional jihatlarini o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va xislatlarini, shuningdek o'qituvchilik faoliyat va muomalalarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo'ladi.

3. O'qituvchi faoliyatida muomalaning ahamiyati. Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda Odamlarning



ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muomala madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamonni o'quvchi bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati o'qituvchilik muomala madaniyati zahirida shakllanib, takomillashadi. O'qituvchining muomala madaniyati pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muomala madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, o'qituvchilik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining o'qituvchilik qobiliyatidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va o'qituvchilik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan



holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan o'qituvchilik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. O'qituvchilik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

- muomala obyekti bo'lmish o'quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;

- o'quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muomalaga tayyorlashi;

- o'quvchiga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchi ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi kerak.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

O'qituvchining muomalasi pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomala jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman, o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga egaligi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda o'qituvchik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muomala asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muomala madaniyatining buzilishiga sabab bo'lib, tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomala madaniyatiga



erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- o'qituvchilik muomala orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;

- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muomalaga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan o'qituvchilik muomala madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yo'zaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z-mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchining muomala madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. O'qituvchilik muomala madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasa-da, o'quvchi ichki dunyosida sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

Nazorat savollari

1. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining mohiyati nimalardan iborat?

2. O'qituvchi muomala subyekti sifatida nimalarni namoyon qiladi?

3. O'qituvchi faoliyatida muomalaning ahamiyati nimalarda aksini topadi?

4. Pedagogik muloqot va uning funksiyalari, ahamiyati?

5. Pedagogik muloqotning tuzilishi, uslublarining o'ziga xosligi nimada?



6. Kommunikativ qobiliyat va ularning farqlari qanday?
7. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish metodlari tushuntirib bering?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.
2. С.Т. Цацкий. Бодрая жизнь. Дети работники будущего. Пед. Соч. В 4 – М., 1962, Т.1.
3. А.А.С.Макаренко. Педагогическая поэма.//соч. М., 1957, Т. 1. Марш 30 года.
4. В.А. Сухомлинский. Мудрая власть коллектива. М. 1975.
5. В.А.Сухомлинский Духовной мир школа. – М., 1961.
6. Г.М. Андреева. Социальная психология. М.: Издательство «Аспект Пресс». -2014. Издание: 5-е.-363 стр. С. 89.
7. www.ziyo.net
8. www.tdpu.uz
9. www.pedagog.uz
10. www.istedod.uz
11. www.lex.uz
12. www.mv.gov.uz

6-MAVZU

TA'LIM MUASSASASI TARBIYAVIY TIZIMIDA GURUH RAHBARI

Reja:

1. Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni.
2. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari.
3. Guruh rahbarning o'quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari.

Tayanch so'z va tushunchalar: Guruh rahbari, faoliyati mazmuni, vazifalar, tekshirish, huquq va majburiyat, burch, qarorlar qabul qilish, ochiq eshiklar kuni, sinf majlisi, bolalarni sevish, ota-onalar.

1. Guruh rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh rahbari deganda o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatdan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog guruh rahbari deb ataladi. Guruh rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida bir-birlarini tushuna olishi, o'quvchilarga e'tiborli bo'lishi kerak. Maktabda o'quvchilarga tarbiya guruh rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim tarbiya beriladi. Shunga qarab o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ham rivojlanib boradi.

O'qituvchilik bolalarga bo'lgan munosabatda, katta mehribonligi, g'amxo'rliqi bilan xarakterlanadi. Bular esa katta talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta qurish xususiyati ham guruh rahbari uchun muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan gruppalar tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Zarur bo'lgan vaqtda o'qishda o'quvchilarga yordam ko'rsatishni tashkil etadi. O'quvchilar sog'ligini mustahkamlashga doir ishlarni o'tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o'rgatib boriladi.

Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda guruh rahbarining roli katta hisoblanadi. Sinf majlisi o'tkazish uchun, avvalo, jamoani jipslashtiriladi. Guruh rahbari majlisda ko'plab masalalar ko'radilar. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko'rilib muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o'z yechimini topish kerak bo'ladi.

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri o'qituvchi va pedagogika mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu pedagogik g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish kabilar hisoblanadi. Bularni hammasi o'qituvchilardan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi. Guruh rahbari ishini maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Masalan, boshlang'ich sinflar maktab ta'limining dastlabki bosqichi bolalar o'qituvchi rahbarligida ta'limga birinchi qadamni qo'yadilar.

«Buyuk didaktika» asarining muallifi Yan Amos Komenskiy «Akademik darajada faqatgina mehnatkash, vijdonli va bir ishga qodir insonlarning tarbiyalanishiga e'tibor qaratish lozim»,²³ – degan edi. Ayni vaqtda buyuk olimning so'zlari taxsinga sazovordir. Bizningcha, ixlossizni deb, ixlosmandni ixlosidan qaytarish bu joxillikdir. O'quvchilar o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakani egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. O'qituvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta qurish xususiyati ham guruh rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Guruh rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh rahbarining

²³ Коменский Я. А. Лабиринт света и рай сердца : Я. А. Коменский. - М.: МИК, 2000. - 311 б.



ko'p qirrali vazifasi va funksiyalari «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da. «Ta'lim muassasi ichki nizomlari»da bayon qilingan bo'lib, unda o'qituvchilarga, ota-onalarga va guruh rahbarlariga tavsiyalar berilgan; aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyaning vazifasi va mazmuni guruhlariga nisbatan moslashtirilgan. Huquqiy-me'yoriy hujjatlardan kelib chiqqan holda guruh rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan guruhda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarishda u yolg'iz emas. Shu guruhda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloq tarbiyasini amalga oshiradi. «Yoshlar ijtimoiy harakati» tashkiloti hamkorligida, muntazam suratda ularga tayanib va kundalik ishda yordam uyushtirib talabalar bilan darsdan tashqaridagi xilma-xil ishlarni tashkil etadi va guruh jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning birligiga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-ruhiy xususiyatini hisobga olgan holda, kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarni shakllantirish guruh rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda, u har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Guruh rahbarining diqqat markazida talabalarining yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir talabaning kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi, orqada qolayotganlarga o'z vaqtida kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Guruhdagi talabalarining o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, o'quv yurti miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z guruhining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Guruh talabalarining ota-onalari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi homiy mahallalar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Guruh rahbari shu guruhda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida, o'quv yurti bilan oila o'rtasida talabalarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga

pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan o'quv yurti o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Guruh rahbari o'z guruhidagi turli hujjatlarning: guruh jurnali, o'quvchilarning reyting daftarchasi, shaxsiy hujjatlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biri – bu talabaning o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim. qobiliyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, talabalarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning guruh jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, zaur vaqtda ularga tegishli yordam ko'rsatish guruh rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Guruh rahbari fan o'quv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko'p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo'yilgan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo'lsa ham biz quyida guruh rahbarining jamoani birlashtirish bo'yicha vazifalarni aniq tarzda ko'rsatishni zarur, deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

- talabalarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganish;

- talabalarning kundalik davomati, odob xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish;

- talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish;

- guruhda ishlaydigan fan o'qituvchilari bilan majlislar o'tkazish;

- darsda talabalar davomatini ta'minlash, guruhdagi va o'quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o'quv asboblarni saqlashga o'rgatish, talabalar bilan suhbatlar o'tkazish;

- guruh majlislarini tizimli o'tkazish;

- «Yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarni tashkil etish;

- talabalar bilan darsdan tashqari o'qishlari va anjumanlarini



o'tkazish;

- guruh talabalari bilan sport, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko'rish, talabalar sog'ligini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish;

- talabalarni rag'batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko'rish;

- talabalarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo'lish va ular bilan individual suhbatlar o'tkazish;

- talabalarning shaxsiy va guruh rahbariga oid hujjatlarini tartibli olib borish.

Guruhda tarbiyaviy ishlarga doir masalalarni har tomonlama hal qilish maqsadida guruh rahbari talabalarining ta'lim olishlari, guruhni uyushtirishining taxminiy rejasini tuzadiki, bu reja talabalar bilan tizimli ish olib borishga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qi maydi. Lekin guruh rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatidan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida o'rin egallaydi.

Guruh rahbarining burchi: guruh rahbari o'quvchilarni o'z farzandidek ko'rmog'i, ularga Vatanni sevishtga, do'stlariga sadoqatli va ta'lim muassasasi hayotida faollikka, o'z kasbining mohir mutaxassisi bo'lishga o'rgatishi zarur;

- guruh o'quvchisini har tomonlama o'rganish va uni o'z jamoasiga sodiq etib tarbiyalash;

- guruh o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'zlashtirishini nazorat qilish va past o'zlashtirish sababini aniqlash hamda bartaraf etishga yordam berish;

- o'quv jarayonida barcha fanlar bo'yicha to'liq o'zlashtirishga guruh o'quvchilarini diqqatini jalb etish;

- o'quvchilarni o'z kasbiga sodiq mutaxassis, ta'lim muassasasi mulkini e'zozlash va asrash, do'stlariga nisbatan mehr-oqibatli

bo'lishga o'rgatish;

- o'quvchilar ongini o'stirish, mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy soatlar o'tkazish;

- ta'lim muassasasi ichki qonun-qoidalarini virtualarini o'rgatish;

- o'quvchilarda kelajakka, o'ziga va o'rtoqlariga ishonch, o'z qadrini bilish, mehnat quvonchi, qiyin vaziyatlarda bir-biriga yordam ko'rsatish kabi xislatlarni tarbiyalash;

- madaniy xordiqni tashkil etish;

- fan to'garaklariga, jismoniy tarbiya seksiyalariga jalb yetish va ishtirokini nazorat qilish;

- o'quvchining tartib-intizomi va o'zlashtirishi haqida ota-onasiga ma'lumot yetkazish;

- talabalar uyi va ijarada yashovchi talabalar sharoitini o'rganish va yordam berish;

- o'quvchilarni ta'lim muassasasini, shaharni obodonlashtirishishlariga to'liq qatnashishini ta'minlash;

- ommaviy bayramlarga o'quvchilar ishtirokini ta'minlash.

Guruh rahbarining huquqlari:

Guruh rahbari etib eng malakali va namunali o'qituvchilar o'qitish jarayonining barcha davrida tayinlanadi. Guruh rahbari guruh o'quvchilarining yoshi, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda muntazam qat'iy jadval asosida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarni o'tkazishi lozim.

1. O'z guruhining nazariy va amaliy darslar tahlilida ishtirok etadi, o'qish jarayonida o'quvchining o'qishi va tarbiyasi haqida suhbat uchun ota-onasini chaqirtiradi.

2. Guruh majlisida o'quvchini odoblantirish, hayfsan e'lon qilish, zarur bo'lganda direktor va direktor o'rinbosarlariga yozma yoki og'zaki axborot berish mumkin. Ta'lim muassasasi direktorining ruxsati bilan sayohatlar va uchrashuvlar tashkil etish mumkin.

3. Guruh rahbarining o'quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari. Tarbiyaviy ishlarining tashkiliy shakllari, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qarorlarini hisobga olishni talab etmoqda. Mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish guruh rahbari tarbiyaviy ishlari tizimida quyidagilar

bo'lishi lozim:

- ulg'ayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish lozim;

- milliylikni o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

- pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish;

- maktabning jamoat tashkilot, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;

- bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;

- yashash joyi bo'yicha bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish;

- o'quvchilarning oilalariga borish va bolalarni tarbiyalashda ularga yordam berish;

- yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularini tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo, tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog'liq.

Guruh rahbarining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixini, madaniyatini, urf-odatini o'rganishiga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarini mufaffaqiyatli kechishga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi ayniqsa guruh rahbari milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, uni keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

Guruh majlisi o'quv muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning muhim shakllaridan biri bo'lib, guruhda o'tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish, o'quvchi-talabalarining fanlardan o'zlashtirish, tartib-intizomi, axloq-odobi, bir-biriga o'zaro yordami, kiyinishi, shuningdek, guruhda ro'y bergan boshqa favqulodda hodisalar muhokamasi kabi masalalarga bag'ishlab o'tkaziladi.

Guruh majlisi doimo guruh rahbari tomonidan o'tkazilsa, o'quvchilar oddiy tinglovchi bo'lib qoladilar va bunday guruh majlisining tarbiyaviy ahamiyati kamroq bo'ladi. Guruh majlisida talaba-o'quvchilarning faolligi ta'minlanishi lozim. Shundagina talabalar ma'naviyatida sezilarli o'zgarishlarni kuzatsa bo'ladi.

Guruh majlisini yaxshi o'tkazish uchun unga yaxshi tayyorgarlik ko'rish lozim. Guruh rahbarining majlisni tayyorlashda va uni

o'tkazishda doir ishlari:

- guruh faollarini yig'ilishga tayyorlashi: majlis mavzusi, maqsadi, ko'riladigan masalalarni belgilash va so'zga chiquvchilarni aniqlab ularga yordam ko'rsatish;

- tahrir hay'ati va guruh sardorlarining birgalikdagi tayyorgarlik ishlari mazmunini belgilashga yordam berish, ular to'plagan dalillarni qayta ishlash, majlisning tashkiliy tomonlarini aniqlab, ularga maslahatlar berish;

- guruh xonasini majlisga tayyorlash;

- majlis qarori loyihasini tayyorlashga ko'mak berish;

Majlisni guruh sardori ochadi. Majlis raisi va kotibi saylanadi. Rais tomonidan muhokama qilinadigan masalalar e'lon qilinadi va majlis ish tartibi belgilab olinadi. Avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida axborot beriladi. Ma'ruza va axborotlarni tinglab muhokama qilinadi. Majlis qarori chiqariladi. Guruh rahbarining yakunlovchi so'zi.

O'quv jarayonida guruh rahbari e'tibor berishi zarur bo'lgan jihadlar:

- ta'lim jarayonida reyting tizimini qo'llashni ta'minlash;

- o'quvchilar bilimi sifatini va obyektiv baholanganligini nazorat qilish, turli xil sinovlarni tashkil etish;

- o'quvchilarni darslarda muntazam qatnashishini ta'minlash;

- o'quv mashg'ulotlari jadvaliga rioya qilishlarini ta'minlash;

- past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar, hamda ular bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qilish;

- ta'lim muassasasida tashkil etiladigan fan haftaliklariga, tadbirlarga guruh o'quvchilarini faol ishtirokini ta'minlash;

- o'quvchilarni kutubxona va o'quv zali xizmatlaridan foydalanishga o'rgatish va nazorat qilish;

- har bir darsda o'quvchilar bilimini baholanishini nazoratga olish;

- barcha fanlardan yakuniy ballarni reyting daftarchalariga, guruh jurnaliga hamda guruh rahbari jurnallariga o'z vaqtida qayd qilinishini ta'minlash;

- har bir semestr yakunida guruh ota-onalar yig'ilishini chaqirish;

- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarga yakka tartibda yondashgan holda ularning yosh xususiyatlarini, qiziqish va moyilliklarini inobatga olgan holda fan to'garaklarida to'la ishtirokini



ta'minlash;

- guruh o'quvchilarini darsliklardan foydalanish, ularni ehtiyot qilish, o'quv qurollarini to'liq bo'lishini hamda samarali foydalanishga o'rgatish;

- yotoqxonada yashovchi o'quvchilarni darslarda tayyorgarlik ko'rishlarini nazorat qilish;

- o'quvchilarni o'quv ustaxonalaridagi faoliyati va mashg'ulotlarini nazorat qilish, ularning qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Guruh jurnalini yuritish bo'yicha tavsiyalar:

- guruh haqida ma'lumotlar to'liq yoziladi;
- o'quvchilar ro'yxati va ma'lumotlar alifbo tartibida to'liq yoziladi;

- ta'lim muassasasi bilan ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik shartnomasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va ta'lim muassasalarining ichki qonun qoidalaridan kelib chiqib tuziladi hamda imzolanaadi;

- o'quvchi haqida batafsil ma'lumotlar o'quv yilining boshida to'ldiriladi va yil davomida o'zgartirishlar kiritiladi;

- qoldirilgan dars soatlari har kuni nazorat qilinib, yakuniy hisobot semestr yakunida yozib boriladi;

- guruh rahbari o'quvchilar tomonidan dars qoldirish sababini bilishi zarur;

- kundalik o'zlashtirish nazorat qilib boriladi, semestr yakunida fanlar bo'yicha yakuniy ballar yozib qo'yiladi;

- har bir semestr davomida o'quvchining xulq-atvori, yo'l qo'yan kamchiliklari hamda yutuqlari «O'quvchi haqida umumiy ma'lumotlar»da qayd qilib boriladi;

- guruh jurnali yuridik hujjat bo'lib uch yilga mo'ljallangan;

- ta'lim muassasasini tugatgan o'quvchilarning guruh jurnali o'quv bo'limiga topshiriladi;

- o'quv yili davomida o'quvchining ta'lim muassasasidan ketib qolish sabablari yozib boriladi;

- guruh rahbarlari ishini nazorat qilish ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor muoviniga yuklatiladi.

Hech shubhasiz, yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, ta'lim tizimida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda guruh rahbarining vazifasi



hamda uning ish metodi ahamiyatga egaligi, uning o'rni beqiyos ekanligini aytish mumkin.

Nazorat savollari

1. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasining mazmun-mohiyati?
2. Guruh rahbarining yuksak madaniyati nimalarda namoyon bo'ladi?
3. O'qituvchi muomala subyektini qanday tashkil etadi?
4. Guruh rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini oshirish yo'llari qanday?
6. Guruh rahbarining olib boradigan ish shakllari nimalardan iborat?
7. O'qituvchi faoliyatida muamalasiga qo'yiladigan talablar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Коменский Я. А. Лабиринт света и рай сердца / Я. А. Коменский. – М.: МИК, 2000. – 311 б.
2. R. Mavlonova, O'To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika.- T.:»O'qituvchi», 2002.
3. N. Xo'jaev va boshqalar. Tarbiya nazariyasi.– T.: – 2003.
4. M.G. Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.– T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.
5. M.Mahkamov «Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T. 2005.
6. M. Ochilov «Muallim – qalb me'mori» T.: «O'qituvchi» 2001.
7. Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.
1. www.ziyo.net
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.istedod.uz
5. www.lex.uz
6. www.mv.gov.uz

7-MAVZU JAMOANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Reja:

1. Jamoa to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasini tashkil qilish bosqichlari.
3. Sinf rahbarining jamoada shaxsni tarbiyalashdagi faoliyati.

Tayanch so'z va tushunchalar: Jamoa, jamoa belgilari, jamoat tashkiloti, bosqich, o'quvchi, o'z-o'zini boshqarish, pedagogik rahbarlik, metodika, rivojlanish, tarbiya usullari, tarbiyalash, norasmiy, rasmiy, talablar, ishchanlik, yetakchi.

1. Jamoa to'g'risida umumiy tushuncha. Tarbiya nazariyasining yetakchi g'oyalariidan birisifatida maydonga jamoada o'quvchi shaxsini tarbiyalash chiqadi. Shuning uchun ham, sinf rahbari tomonidan tarbiyaviy jarayonlarda o'quvchilar jamoasini shakllantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarga jamoa to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Professorlar J.Hasanboyev, X.To'raqulov va boshqalar tomonidan nashr ettirilgan pedagogika lug'atida jamoa va uning yordamida yosh avlodni tarbiyalashga oid tushunchalarga quyidagicha to'xtalib o'tilgan.

Jamoa – bu kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish obyektidir (manbaidir). Ushbu jamoa a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlari jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunish, shuningdek, jamoa odidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar. Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari: ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi; birgalikdag umumiy faoliyatning tashkil etilishi; majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi; saylangan umumiy rahbariy organga

egalik va shu kabilar.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – bu tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning jamoa bo‘lib birlashishlari, o‘zaro yordam tuyg‘usini o‘stirish jarayonidir. Bunda tuyg‘u tashkil etilgan jamoa a‘zolarining qobiliyat va iste’dodini rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi va shuning bilan birga jamoada tarbiyalanuvchi har tomonlama rivojlanish uchun keng imkoniyatga ega bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo‘ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘ladi va har bir shaxsga ta’sir etadi. O‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo‘shib olib borish, o‘zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo jamoada shakllanadi. O‘qituvchi hamma vaqt tarbiyalanuvchilar jamoasiga tayanmog‘i, ularni jamoa bo‘lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o‘rgatib borish lozim.¹

Yuqoridagi tushunchalarga asoslangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarga nimalarni tushuntirish kerak bo‘ladi. Bunda:

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad sari intilish;
- umumiy maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyat;
- jamoaga birlik asosida munosabatda bo‘lish;
- jamoaning har bir a‘zosini hurmat qilish;
- jamoada yagona maqsadning mavjudligi;
- birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi;
- majburiy ma’suliyatli munosabatning yo‘lga qo‘yilishi;
- tarbiyalanuvchilarning jamoa bo‘lib birlashishlari;
- jamoa a‘zolarining bir-birlariga yordam berishi;
- uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga egaligi;
- o‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish;
- o‘zaro yordam berish kabi jihatlariga o‘qituvchi e’tibor berib, hayotiy misollar bilan tushuntirish ishlarini olib borsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’naviyat lug‘atida Qiyomiddin Nazarov tomonidan jamoaga quyidagi ta’rif berilgan. Jamoa (viylik) – odamlarning o‘zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlar da, jumladan, o‘zbeklarda azaldan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha. Jamoa

– odamlarning o‘zaro hamkorlik va yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi bo‘lib, individualizm, shaxsiy xudbinlik, egotsentrizmning ziddi hisoblanadi. Zero, oila, mehnat jamoalari moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish jarayonlarida kishilar o‘zaro birlashgandagina ko‘zlangan maqsad-muddaolarga erisha olishi mumkinligi jamoa ruhi shakllanishining bosh omilini tashkil etadi.

Jamoa ijtimoiy birlik, mahalla, elat va xalqlarning taraqqiyotini, turmush tarzining mazmun-mohiyatini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri bo‘lib, tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllangan va yuksak ma‘naviy qadriyat sifatida qaror topgan. Odamlarning jamoa bo‘lib yashash tamoyillariga «Avesto»da, qadimgi manbalarda, Suqrot, Aflotun, Arastu, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalar merosida alohida ahamiyat berilgan. Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida jamoa bo‘lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqdiradi.

Forobiy bu haqda quyidagi fikr-mulohazalarni bayon qilgan: «Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritolmaydi. Ularga ega bo‘lish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sabab, yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘payadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi». Jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiyligi, o‘zaro hamkorlik qilishlari zarurligi, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo‘nalganligi zaminida o‘zaro birgalikda harakat qilishlarini taqazo etishidan vujudga keladi. Odamlarning faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta‘lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelishi va samarali amal qilishi mumkin. Jamoalar mo‘tadil yoki muvaqqat

uyushmalar tarzida faoliyat ko'rsatib, mo'ljal qilingan maqsad-manfaatlar va kutilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yaratish orqali samara keltiradi. Inson farovonligi, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi, istiqbol baxt-saodati yo'lida omilkor xizmat qiladi. Jamoa tamoyili turli tarixiy davrlarda va tuzumlarda o'ziga xos tarzda talqin va targ'ib etilgan. Masalan, sho'rolar davrida shaxs manfaati ko'pchilik manfaatiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aksariyat G'arb mamlakatlarida individualizm va shaxsiy manfaat ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jamoa tamoyili asrlarlar mobaynida sharq xalqlarining shakllanishi va rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilib kelgan.

«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida birinchi Prezidentimiz jamoa tamoyilining xalqimiz tarixi va ma'naviyat rivojidagi ahamiyati ochib berilgan. Asarda ta'kidlangani kabi, sharq olamida, jumladan, O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab, hayot kechirishga zamin tug'diradi. Ezgu odatimizga aylangan jamoa tuyg'usi zaminida juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlariga ega. Bu tuyg'u insonning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi. Mintaqamizda yashaydigan xalqarga xos jamoaning tarixiy-ijtimoiy zaminiga alohida e'tibor qaratish lozim. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiat, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitiga moslashish zarurati azaldan vodiylarda, katta suv manbalari — daryo va anhorlar bo'yida yashab kelgan elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi. Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo'lib yashashga imkoni yo'q. Tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan. Bir so'z bilan aytganda, jamoa ya'ni jamuljam bo'lib yashash tuyg'usi xalqimiz uchun o'ziga xos hayot falsafasiga, yana ham aniqrog'i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Ushbu tuyg'u bugungi milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadi va bizni boshqalardan

ajratib turadigan xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. (*Qiyomiddin Nazarov*)

Bu ta'rifni, ma'lumotlarni keltirishdan ko'zlangan maqsad quyidagilarda o'z aksini topadi. Bular:

– bo'lajak o'qituvchilar tushunchalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishlari;

– jamoaning ijtimoiy birlik ekanligi;

– jamoa – odamlarning o'zaro hamkorlik va yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi ekanligi;

– jamoa individualizm, shaxsiy xudbinlik, egotsentrizمنىڭ ziddi hisoblanishini;

– kishilar o'zaro birlashgandagina ko'zlangan maqsad-muddaolarga erisha olishi mumkinligi jamoa ruhi shakllanishining bosh omilini tashkil etishi;

– jamoaning tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllanganligi va yuksak ma'naviy qadriyat sifatida qaror topganligini;

– odamlar o'zlarining faoliyat turlariga mos ravishda jamoalarni shakllantirishini;

– odamlar ta'lim-tarbiyaning shakllariga qarab jamoalarni shakllantirishini;

– kishilar tomonidan maishiy xizmatning yo'lga qo'yilishiga qarab jamoalarning vujudga kelishini;

– insonlar o'z qiziqishlari, iste'dodiga qarab badiiy ijod qilishni takomillashtirishga yo'naltirilgan jamoalarning faoliyat yuritishini;

– harbiy xizmatning turlariga qarab jamoalarning shakllanishini;

– sport turlariga qarab jamoalarning vujudga kelishini;

– oila jamoalar ichida eng nuqaddas jamoa ekanligini anglab olishlari muhimdir.

Bo'lajak o'qituvchilar ta'lim muassasalariga borganlarida yosh avlod bilan ishlashi va ularni jamoa sifatida shakllantirishi yuqoridagi bilimlarni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'ladi.

2. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasini tashkil qilish bosqichlari. Umumta'lim maktablarida sinf jamoasini shakllantirish uchun yuqorida qayd qilingan ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, sinf jamoasi deyilganda, bir yagona maqsad sari



yo'naltirilgan va amalga oshiriladigan faoliyat uchun o'quvchilar guruhlarining jipslashuvi tushuniladi.

A.Q. Munavvarov boshchiligidagi tayyorlangan umumiy pedagogika darsligida sinf jamoasini shakllantirilishining umumiy asoslari quyidagilardan iborat deb berilgan. «Talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy- siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kuchaytirish».¹

Shu bilan bir qatorda, mualliflar jamoaning rivojlanish bosqichlarini uchga bo'lib ko'rsatadi. Bular:

Sinf jamoasining rivojlanish bosqichlari

Birinchi bosqich. O'quvchilar jamoasi bilan ishlashning dastlabki cavri bo'lib, hali jamoa tashkil etilmagan shaxsga nisbatan jamoaning pedagogic talabi bo'lmaydi. Har bir o'quvchi o'zi uchun javob beradi. Bu bosqichda bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi.

Ikkinchi bosqich. Faollar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun astoydil ishlash, ularni jinslashtirish va o'zaro aloqada ishlashga o'rgatish bilan tavsiflanadi. Jamoani boshqa a'zolariga ko'ra, faollardan intizomga qat'iy amal qilishni ko'proq talab etish, ulami o'qishda va intizomda, jamoatchilik ishida ham boshqa o'quvchilarga namuna ko'rsatishga o'rgatish zarur. Ikkinchi bosqichda pedagogning talablari, faollarning jamoaga bildiradigan talablariga qo'shiladi.

Uchinchi bosqich. O'zaro bir-biriga bog'liq ikki masala: jamoatchilik fikri va an'analarini yuzaga chiqarish hal etiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stlikni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Pedagogning o'quvchilarga munosabati ham nihoyatda do'stona, samimiy bo'lishi kerak. Bu davrga kelib sinf rahbari tarbiyalanuvchilarning xarakteri, qiziqishi, talabi bilan tanish, ruhiy holatini yaxshiroq biladigan bo'ladi.

Birinchi bosqich. O'quvchilar jamoasi bilan ishlashning dastlabki davri bo'lib, hali jamoa tashkil etilmagan, shaxsga nisbatan jamoaning pedagogic talabi bo'lmaydi, har bir o'quvchi o'zi uchun o'zi javob beradi. Bu bosqichda bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanish mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun, bu bosqichda salbiy hodisalar ochiq muhokama etilmaydi.

Rivojlanishning bu davrida o'qituvchining talabi qat'iy, jiddiy, izchil bo'lishi kerak. Bu pedagogik talablar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobit qadam faoliyatining o'zaro mas'uliyatli munosabatlarning mavjudligi bilan muhimdir.

Shunday qilib, birinchi bosqichda pedagogning eng muhim vazifasi sinf jamoasining yadrosi bo'lgan faollarni shakllantirish va tarbiyalab ulug'vor vazifalarga intilishdan iborat.

Ikkinchi bosqich. Faollar bilan tarbiyaviy ishlarini tashkil etish uchun astoydil ishlash. ularni jinslashtirish va o'zaro aloqada ishlashga o'rgatish bilan tavsiflanadi. Jamoani boshqa a'zolariga ko'ra, faollardan intizomga qat'iy amal qilishni ko'proq talab etish, ularni o'qishda va intizomda, jamoatchilik ishida ham boshqa o'quvchilarga namuna ko'rsatishga o'rgatish zarur. Faollarga beriladigan imtiyozlar adolatli bo'lishi va u o'quvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, bu uning jamoa oldidagi xizmatlari natijasi ekanligini o'quvchilar his etishlari ko'zda tutiladi. Faollarga qo'yiladigan talablarning susayishi, o'rinsiz maqtovlar sinfda yomon vaziyatni keltirib chiqaradi.

Ikkinchi bosqichda pedagogning talablari faollarning jamoaga bildiradigan talablariga qo'shiladi. Pedagog faollardan barcha o'quvchilarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etish vositasi sifatida foydalaniladi, jamoaning birligini rivojlantirishga ko'maklashadi; faollar o'quvchilarga topshiriqlar beradi, ularning o'zi nazoratida amalga oshiradi va topshiriqlarni bajarishni talab etadi.

Uchinchi bosqich. Jamoa hayotining barq urishi, jamoada o'zaro munosabatlar shakllanishi, jamoaning shaxsga ta'sir doirasini kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqichda o'zaro bir-biriga bog'liq ikki masala: jamoatchilik fikri va an'analarini yuzaga chiqarish hal etiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stlikni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Pedagogning o'quvchilarga munosabati ham nihoyatda do'stona, samimiy bo'lishi kerak. Bu davrga kelib sinf

rahbari tarbiyalanuvchilarning xarakteri, qiziqishi, talabi bilan tanish, ruhiy holatini yaxshiroq biladigan bo'ladi.

3. Sinf rahbarining jamoada shaxsni tarbiyalashdagi faoliyati. Jamoani rivojlanishi chinakam o'z-o'zini boshqarish, ko'p qirrali jamoa faoliyati va axloqiy qimmatga ega bo'lgan jamoa munosabatlari bilan izohlanadi. «Hatto o'ta iste'dodli bo'lsa ham, bitta pedagog tarbiya tizimining o'rnini bosa olmaydi. Bu vazifari faqat o'zaro ahil kollektivgina bajara oladi»³⁴, – deydi bu haqda professor V.A.Karakovskiy.

Bunday jamoada shaxsni tarbiyalash jarayoni iroda, o'z-o'zini anglash, burch hissi, shaxsning shunga o'xshash axloqiy fazilatlarini takomillashtirish, kamchiliklarni o'z-o'zini tanqid ruhida baholash va ularni tuzatishi, o'z qadr-qimmatini anglab yetish (o'z-o'zini tarbiyalash rejasini ishlab chiqish, o'z-o'zini tarbiyalash vositalarini egallash, o'z-o'ziga majburiyat qabul qilish, o'z-o'zini nazorat qilish), ijtimoiy-foydali faoliyatda o'z-o'zini tarbiyalash ishini amalga oshirishga intilishni uyg'otadi.

Bunday jamoada shaxsning ijobiy fazilatlarini to'la ravishda ro'yobga chiqadi. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.



³⁴ Караковский В. А. Воспитание? Воспитание... Воспитание!: Теория и практика школьного воспитания / В.А.Караковский, Л. И. Новикова, Н. Л.Селиванова. – М.: Новая школа, 1996. – 546.



Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar kelgusida o'z sinfidagi o'quvchilarini jamoa orqali tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular:

- sinf jamoasining o'z oldiga qo'ygan maqsadi tarbiya nazariyasining maqsadlari va tamoyillariga mos kelishi;
- o'quvchilarda umumjamoa ishlariga nisbatan qiziqishini uyg'otish;

- umumjamoa ishlarida o'rnak bo'lganlarga nisbatan sinf jamoasida adolatli rag'batni yo'lga qo'yish; o'quvchilik burchiga yuksak mas'uliyat bilan yondashish;

- o'quvchi shaxsiga hurmat bilan qarashni o'rgatish;
- o'quvchilarning tashkilotchilik qobiliyatlarini yanada tarbiyalash;
- sinfdagi ishlarni birgalikda bajarishga o'quvchilarni odatlantirish;
- o'quvchilar jamoasiga jiddiy talablar qo'yish va uni nazorat qilish;
- sinf jamoasida o'zaro musobaqalarni tashkillashtirish;
- jamoa bo'lib ijodiy ishlarni yo'lga qo'yishga yo'naltirish;
- sinfdan bir-biriga yordam berish, bir-birini qo'llashga odatlantirish;
- ta'lim jarayonlarida o'zlashtirish sari harakat qilish;
- o'quvchilarga mas'uliyatli vazifalar yuklash;

O'qituvchilar sinf jamoasi yoki boshqa jamoalar orqali o'z o'quvchilarini ijtimoiy hayotning barcha qirralariga ilmiy nuqtai nazardan qarab baholashga va ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishga o'rgatib boradi. Shuning uchun, ham ular o'z o'quvchilariga tavsiya va maslahatlarni berib borishadi. Biz bo'lajak o'qituvchilarga jamoani shakllantirishda quyidagilarga e'tiborini qaratishni maqsadga muvofiq, deb bilarniz. O'quvchilar shaxsiga doimiy ravishda hurmat bilan qarash. O'quvchilarning yosh davrlar xususiyatlariga e'tibor berish. O'quvchilarning muomala madaniyatini rivojlantirish. O'quvchilarning layoqatiga mos tarbiyaviy ishlarni olib borish. O'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantirish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkillashtirish; Sinfdan ommaviy o'yinlarni tashkillashtirish. Ta'limga oid musobaqalarni tashkillashtirish.



1. Sinflararo intellektual musobaqalarni uyushtirish.
2. O'quvchilarni sog'lom turmush tarzi madaniyatiga odatlantirish.
3. Sinf jamoasi bilan ekskursiyalarga borish.
4. Milliy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash.
5. Bemor bo'lgan o'quvchilarni sinf jamoa bilan birga borib ko'rish, darslarini birgalikda tayyorlash.
6. O'ziga nisbatan ishonchni tarbiyalash.
7. Sinfdagi an'analarni mantiqan davom ettirish.
8. Sinfdagi do'stlik va o'zaro hurmatni tarkib toptirish.
9. Bayramlarni ota-onalar bilan birgalikda kutib olish.
10. Ijtimoiy foydali mehnatga ongli munosabatini tarkib toptirish.
11. Jamoa va davlat mulkini avaylab asrashni burch, deb his qildirish.

Davlat ravnaqiga o'z hissasini qo'shishni faxr deb bilishga odatlantirish orqali o'quvchilarni jamoa va jamoa orqali tarbiyalab, ta'lim-tarbiya jarayonlarida samaradorlikka erishib boradi.

Nazorat savollari

1. Jamoaning shakllanish darajalari deganda nimani tushunasiz?
2. Sinf jamoasi deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday jamoat tashkilotlarini bilasiz?
4. Jamoaga pedagogik rahbarlik deganda nimani tushunasiz?
5. Sinf rahbarining o'z-o'zini boshqaruv ishlariga nimalar kiradi?
6. Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasini tashkil qilish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
7. Sinf rahbarining jamoada shaxsni tarbiyalash faoliyati mazmuni nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» T. 2008 y
2. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
3. J.Hasanboyev, X.To'raqulov, Alqarov, N. Usmonov. Pedagogikadan izohli lug'at.
4. A.C. Макаренко. О воспитании //Золотой фонд педагогики.-



М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.

5. А. Voljskiy. Metodika vospitatelnoy rabot s molodejyu. – М. 2003.

6. Караковский В. А. Воспитание? Воспитание... Воспитание!: Теория и практика школьного воспитания / В.А.Караковский, Л. И. Новикова, Н. Л.Селиванова. – М.: Новая школа, 1996. – 546.

7. www.ziyo.net

8. www.tdpu.uz

9. www.pedagog.uz

10. www.istedod.uz

11. www.lex.uz

12. www.mv.gov.uz

8-MAVZU

AL VA KHKLARIDA TARBIVAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlar tarbiyasiga munosabat.
2. AL va KHKlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni.
3. Tarbiya qoidalari.

Tayanch soʻz va tushunchalar: Tarbiyaviy ish, guruh, rahbar, mahalla, maktab, oila hamkorlik, taʼsir, psixologik xususiyatlar, litsey, barkamol, mazmun, qoidalar, mamlakat, islohotlar, yoshlar tarbiyasi, munosabat, sinf burchagi, individual ish, ishlab chiqarish, jamoalar, aloqa, tarbiyaviy ish, tashkil etish, ijtimoiy, umuminsoniy.

1. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlar tarbiyasiga munosabat. Ijtimoiy jamiyat hayotining tartibli kechishini taʼminlash maqsadida axloqiy hamda xuquqiy meʼyorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy meʼyorlar omma tomonidan yaratilgan boʻlib, unda muayyan millat (elat, kabilalar yoki etnik guruhlar) kishilarning turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, oʻy-fikrlari, dunyoqarashlarini namoyon etuvchi talablar aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy meʼyorlar omma fikri asosida tartibga solinadi. Maʼlumki, ota-bobolarimiz azal-azaldan inson tarbiyasi masalalariga jiddiy eʼtibor berib kelishgan va bu anʼana avloddan-avlodga koʻchib, takomillashib, yangicha usullar evaziga boyib borgan. Inson maʼnaviyati tarbiyaga bogʻliq.

Tarbiyasiz maʼnaviyat poydevorsiz binoga oʻxshab omonatlik kasb etadiki, bu holni sharhlab, izohlab oʻtirishning xojati yoʻq. Shu boisdan taʼlim-tarbiya jarayoniga barcha davlatda kuchli ehtiyoj sezilgan. Maʼnaviy barkamol, komil inson tarbiyasi hozirgi kunning eng muhim, dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz Oliy taʼlim muassasalarini tugatib, yosh mutaxassis sifatida ilk bor taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatayotgan har bir oʻqituvchi oʻquvchilar bilan sinf yoki guruh rahbari sifatida dars va

darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratmog'i zarur:

- talabalarning maktabshunoslik va tarbiya nazariyasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida egallagan bilimlarini mustahkamlash va ularga bu bilimlarni o'quvchilar bilan olib boriladigan darsdan tashari tarbiyaviy ishlar amaliyotida tatbiq etishga o'rgatish.

- talabalarda maktab, akademik litsey hamda kollejlarda tarbiyaviy ishlar tizimini har tomonlama o'rganish, darsdan tashqari turli ko'rinishdagi tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish, o'quv-malakalarini takomillashtirish.

- talabalarda o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini etiborga olgan holda tarbiyaviy vazifalarni aniqlash, ularni hal qilish usullarini to'g'ri tanlash va qo'llay bilish o'quv-malakalarini tarkib toptirish.

- talabalarda darsdan tashqari tarbiyaviy ish turlarini maqsadga muvofiq, rejalashtira olish o'quv malakalarini shakllantirish.

- talabalarni guruh rahbari yordamchisi sifatida, guruh rahbari vazifalarini bajarishga, o'quvchilar bilan alohida-alohida va ommaviy tarzda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borishga o'rgatish.

- talabalarni tarbiyaviy ishlar sohasidagi ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga jalb etish va ularda pedagogik faoliyatga ijodiy, ilmiy va amaliy yondashish munosabatlarni, ijtimoiy pedagogik faollikni tarkib toptirish.

- talabalarda o'quvchilarga nisbatan tarbiyachilik kasbiga bo'lgan mehr-muhabbatni mustahkamlash, milliy umuminsoniy tarbiya muammolarini hal etishga imkon beradigan pedagogik qobiliyatni takomillashtirish, o'quvchi shaxsi va uning tarbiyasiga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish.

2. AL va KHKlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni. Uzlaksiz ta'lim tizimida AL va KHKning o'zni alohida ajralib turadi. Muassasa jamiyatga o'rta ma'lumotli kadrlarni yetkazib berish va shu bilan bir qatorda maktab hamda oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi integral ko'priq vazifasini o'tovchi vosita, desak aslo adashmagan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi

«Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PF-5313-son Farmoniga muvofiq, **majburiy umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim** umumtaʼlim maktablarida, **kasb-hunar taʼlimi ixtiyoriylik** asosida kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladi.

Akademik litsey – oʻrta maxsus oʻquv yurti. Akademik litsey oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal oʻstirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yoʻnaltirilgan bilim olishlarini taʼminlaydi. Akademik litseyda oʻquvchilar oʻzlari tanlab olgan taʼlim yoʻnalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) boʻyicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur oʻrganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Akademik litsey oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal oʻstirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yoʻnaltirilgan bilim olishlarini taʼminlaydi.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini koʻrsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi taʼlim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish koʻrsatkichlarini tubdan yaxshilash boʻyicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo boʻlmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda oʻquv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumtaʼlim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumtaʼlim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklari egallab olishga boʻlgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» PQ-2829-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari

va faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi:

- umumta'lim maktablarining eng iste'dodli o'quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o'qishni oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

- o'quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi, individual iste'dodlarni va har bir o'quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

- ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha yirik olim L.N.Sedova tarbiya tizimining dinamik xususiyatiga alohida e'tibor qaratadi: «Tarbiyaviy tizim pedagogik faoliyatning barcha subyektlari tomonidan yaratiladi, shuning uchun u doimiy harakatdagi va rivojlanib boruvchi fenomendir. Tarbiyaviy tizimning rivojlanish jarayoni ziddiyatli bo'lib, bir tekisda kechmaydi: unda ko'tarilish va tushishlar bilan birga barqarorlik hamda tanazzul holatlari ham bo'ladi».

O'rta maxsus ta'limi o'ziga xos xarakterga egaligi bilan uzluksiz ta'lim tizimida ajralib turadi. Bu tizimda tarbiya va tarbiya metodikasi ham dolzarbligiga ega hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida, xususan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda direktor o'rinbosarlarining o'рни kattadir. Direktor o'rinbosarining ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishni maxsus nizomga asosan amalga oshiradi.

Unga qo'yilgan talablar:

- pedagogik jamoa, mahalla, ota-onalar orasida o'zining bilimdonligi, insoniy fazilatlarini bilan namuna hamda hurmat-e'tiborga ega bo'lishi;

- pedagogik jamoada qulay psixologik iqlim (muhit) yarata olishi;

- ta'lim muassasasi va pedagoglar faoliyatini tahlil qilishi, muammolarni aniqlashi va ularning hal qilishning samarali yo'llarini

topishi;

- amaldagi bolalar huquqlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, Xalq ta'limi vazirligining maktab faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga oid bo'lgan buyruqlari, nizomlari, yo'riqnomalarini, jahon va respublikamizdagi mavjud pedagogika fanlari va amaliyoti, boshqarish psixologiyasi yutuqlarini bilishi;

- o'tkazilayotgan tadbirlarning tayyorlanishi va o'tkazilish sifat-samaradorligiga jiddiy e'tibor berishi, lozim bo'lganda foydali maslahatlar ko'rsatishi;

- ilg'or tajribalarni (tarbiyaviy ishlar bo'yicha) o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirishi;

- ish faoliyatini muntazam yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitishi, o'z kasb mahoratini va belgilangan muddatlarda o'z malakasini oshirib borishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda direktor o'rinbosarlariga ta'lim muassasasi amaliyotchi psixologi o'z tavsiya va takliflar berishi bilan hamda amaliyotchi psixolog vazifalari bilan muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy vazifalari:

- bolalar, o'quvchilar, talabalar va ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, ma'muriyat (direktor, rektor, mudira), o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy hamda jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish;

- ta'lim, tarbiya, taraqqiyot, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetganlar munosabati, maslak, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor, axloq-diyonat, iymon, vatanparvarlik muammolari yuzasidan yakka tartibda, guruh va jamoa tarzida maslahatlar uyushtirish;

- ma'muriyatga bolalar, o'quvchilar va talabalarni (yotoqda, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha maslahat berish; ularni faollashtirish, ularga ta'sir o'tkazish to'g'risida rahbar kadrlarga amaliy ko'rsatmalar va tavsiyalar tayyorlash;

- shaxsning psixologik holati yuzasidan ekspert-konsultant sifatida tergov ishlarida qatnashish, xalq sudlariga bolalar, o'quvchilar va talabalar psixik o'sishining xususiyatlariga oid ma'lumot berish, o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni

g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorga munosabatini bildirish, shaxsning taqdirini hal qilishda qatnashish va maslahatlar berish;

– xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlari va bosqichlarida ma'ruza o'qish, ota-onalar yig'ilishida, metod birlashma majlisida, pedagogik kengashda, ilmiy kengashda ishtirok qilish orqali muallimlar, ota-onalarning psixologik madaniyatini oshirishga harakat qilish.

– ota-onalarga bolaning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, odamlarning o'zaro munosabati, bunda farzandning yosh, jins, shaxsiy tipologik xususiyatlari muammosi yuzasidan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish.

Psixolog tarbiyaviy ishlarda: bosh maqsad bo'lgan shaxsning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim olish ko'nikmalari va malakalari, mutaxassislik fazilatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iborat sharaflı vazifani bajaradi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarbiyaviy ishlar tizimini hartomonlama o'rganish va o'quvchilar bilan dars-danashqari, tarbiyaviy ishlar olib borish IV kurs talabalari pedagogik amaliyotining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachining haqiqiy kasb faoliyatiga juda yaqin va o'xshash sharoitda o'tadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning eng asosiy va hal qiluvchi omillaridan biri guruh tarbiyaviy soatlari bo'lib, uni, tashkil etish pedagogikaning quyi yo'nalishlari asosida olib boriladi. Bular quyidagılardan iborat:

- guruh tarbiyaviy soatining mazmunini aniqlash;
- guruh xonasini jihozlash ishlarini tashkil etish;
- guruh tarbiyaviy soatlari turkumini rejalashtirish.

Hozirgi kunda ko'p yillik pedagogik izlanishlar va mazkur soha mutaxassislarning ilg'or ish tajribalari asosida ish ko'rish, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga to'g'ri yo'naltirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir, ularga maqsadli ta'sir ko'rsatish, eng avvalo, guruh tarbiyaviy soatlari mazmunini aniqlash va puxta rejalashtirish, ya'ni mavzularni fasllarga qarab, bayram, tarixiy sana va voqealar, tinchlik, do'stlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevisht, vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosi, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarimiz singari tarbiyaviy soatlar bo'yicha tasniflash (klassifikatsiyalash) katta muvaffaqiyatning garovi ekanligini ko'rsatmoqda.

Bunda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilmog'i lozim:

– **«Inson va insoniy munosabatlar».** Bunda milliy insoniy qadriyatlar, munosabatlar, jonajon maktabi, akademik litsey, kollej o'qituvchilariga, o'z ota-onasi, qarindosh-urug'i, do'stlari va boshqa kishilarga, ona Vatan boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostgo'ylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, vafodorlik, insoniylik, xalqlar do'st-birodarligi kabi etnik qoidalar tartibiga e'tibor qaratish;

– **«Fan va turmush».** Bunda dunyoni bilish, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo'lib borish, kitobga munosabat, uni o'qish qoidasi, turmush madaniyati, oila etikasi kabi masalalarga e'tibor berish;

– **«Go'zallik olamida».** Bunda go'zallikning mohiyati, go'zallikni xunuklikdan farqlash, etik va estetik qarashlari, kiyinishda, turmushda, mehnatda, axloqda, muomala va nutq, madaniyatida, san'atning turli sohalarida, she'riyatda, zamonaviy ishlab chiqarish kabi sohalarida go'zallik belgilariga e'tibor berish;

– o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari mashg'ulotlar mavzusini aniqlaydi; ta'lim muassasasi faoliyati bilan tanishgandan keyin o'zining shaxsiy ish rejasini tuzadi. Mazkur ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar tizimini o'rganish, guruh rahbari (yoki uning yordamchisi) sifatida tarbiyaviy, uslubiy va tadqiqiy ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi;

– o'ziga birlashtirilgan sinf o'quvchilari bilan suhbatlashadi, ularning shaxsiy hujjatlar yig'majildi bilan tanishadi, bolalarning odob-axloqi, xulq-atvori, o'qish sharoiti, ayrim fanlardan o'zlashtirishi va sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi; psixologiya va maktab gigiyenasidan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun hujjatlar to'playdi;

– amaliyotchi o'z sinfida o'tkazilayotgan turli xil tarbiyaviy tadbirlarni kuzatadi va tahlil qiladi. Talabalar pedagogik amaliyotning keyingi haftalarida shaxsiy ish rejasida ko'zda tutilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiradilar.

– talabalar pedagogik amaliyotda tarbiyaviy ishlarni o'rganish,



tashkil etish va o'tkazish dasturida belgilangan ishlarning barcha turlarini bajaradi. Har bir talaba tarbiyaviy tadbirga puxta tayyorgarlik ko'radi va uning ishlanmasini (rejasi va matnini) mashg'ulot o'tkazilishidan 3 kun oldin guruh rahbari va pedagogika kafedrasiga yo'riqchi-o'qituvchisiga ko'rsatib tasdiqlatadi. Talaba amaliyot jarayonida o'zini bilimdon va madaniyatli mutaxassis sifatida, namoyon qilishi, tashkilotchilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik fazilatlariga ega ekanligini ko'rsatishi lozim.

– talaba bitta tarbiyaviy tadbirni sinov tariqasida rejalashtiradi va o'tkazadi.

– talaba amaliyot davomida pedagogika kafedrasiga yo'riqchi-o'qituvchisi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishi shart va bajargan barcha xildagi tarbiyaviy ishlarni o'z kundaligiga qayd etib boradi. Kundalikning yo'qligi yoki yonida bo'lmashligi intizomsizlik hisoblanadi. «Mustaqil O'zbekiston davlati va inson huquqi haqida nimalarni bilasiz?». »Fuqarolik tarbiyasi». Bunda mustaqil O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosati, mustaqil respublikamiz davlat ramzlari, O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, Respublika Konstitutsiyasi, O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyoti, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi kabi masalalarga e'tiborni kuchaytirish;

– «**Psixologik mavzular**». Bo'lajak ota-onalar, kelajagi, buyuk Respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor karatish, shuningdek, vijdon, burch, do'stlik, fuqarolik his-tuyg'ulari, bo'lajak kasbga psixologik jihatdan o'zini tayyorlab borish kabi tushunchalarini singdirish va o'z-o'zini tarbiyalash kabilarga e'tibor qaratish;

– «**Sog' tanda – sog'lom aql**». Bunda o'quvchining yoshi va shaxsi xususiyatlariga qarab gigiyenik qoidalarga rioya qilishiga, inson go'zalligi, madaniyati va salomatligi shaxs kamolotining garovi ekanligi kabilarga e'tibor berish;

– «**Ekologik tarbiya**» da bolalarda tabiat in'om etgan boyliklarga nisbatan mas'uliyat hissi, ularni hozirgi va kelajak avlod uchun avaylab-asrash, ko'paytirish hamda muhofaza qilish his-tuyg'ulari

tushunchalarini tarkib toptirish kabilarga e'tibor berish lozim.

Guruh tarbiyaviy soatlari uchun xalq ta'limi muassasalari maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va o'qituvchi-tarbiyachilariga mo'ljallangan hamda ommabop gazeta va jurnallar, risolalar, pedagogika va bolalar tarbiyasiga doir badiiy adabiyot namunalari, kinofilm, diafilm va diapozitivlar, radio eshittirish va teleko'rsatuvlardan, komil inson tarbiyasiga yo'naltirilgan mavzular hamda hozirgi kunning eng muhim dolzarb masalalarini qamrab oluvchi, shuningdek, o'quvchilar uchun hayotiy zarur misollardan tanlab olinishi kerak. Shunda sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyati ta'minlangan bo'ladi, deb hisoblash mumkin. Bunday vaqtlarda texnika vositalari, ko'rgazmali vositalar, didaktik-reproduktiv materiallardan unumli foydalanish sinf tarbiyaviy soatlarini yanada yuksak ijobiy natijalarga olib keladi.

Guruh tarbiyaviy soatida tanlangan matn bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotga, eng avvalo, o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi zarur.

Mashg'ulot jarayonida ustoz o'z maqsadini shogirdlari ongiga ularning qalbini to'lqinlantira oladigan, ta'sirchan va ifodali nutqi bilan o'rnak bo'lish kabi turli pedagogik ta'sirlar orqali singdirishi maqsadga muvofiqdir.

Guruh tarbiyaviy soatlarida mehnat va urush faxriylari, qahramonlar, ilg'or kishilar, yozuvchi va shoirlar, ota-onalar va ishlab chiqarishning ilg'or vakillari ishtirok etishlari, unda ular o'z hayotiy tajribalaridan jonli hikoya qilib berishlaridan ham unumli foydalanish mumkin. Ana shu jonli muloqot va suhbatlar orqali o'quvchilar kattalarning ibratli hayot yo'li, orttirgan boy tajribalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Guruh soati o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni yoppasiga tashkil qilishning asosiy shakllaridan biridir. Pedagogik adabiyotlarda, shuningdek, maktablar, akademik litsey, kollejlarda amaliyotida tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilishning shakli «tarbiyaviy soat», «ma'naviyat soati», yoki «guruh rahbari soati» deb ham yuritiladi.

Guruh soatlari, ko'pincha, ta'lim muassasasi (maktab, litsey, kollej) dars jadvaliga kiritiladi va haftasiga bir marotaba o'tkaziladi. Lekin unga odatdagi yoki qo'shimcha dars sifatida qaramaslik kerak. Guruh soatlari mavzulari guruh rahbarlarining yillik tarbiyaviy ishlari



rejasida oldindan belgilanadi. Ko'pincha, sinf soatlarida haftalik yakun chiqariladi. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishi, tartib-intizomi, bir-biriga o'zaro yordami va shunga o'xshash masalalar muhokama qilinadi.

Guruh soatlari mavzusini tanlashda shaxsning axloqiy sifatlarini tarbiyalash, vatanparvar va baynalminal inson tarbiyasi, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, huquqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, iste'dodli bolalar tarbiyasi, mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish kabi masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ta'lim muassasasining, sinf va tadbir o'tkazayotgan mas'ul shaxs (guruh rahbari) ning ismi sharifi; tadbirning maqsadi va vazifalari; tadbir nimaga asosan o'tkazilyapti (maktab yoki sinf, guruh, an'anasi bo'lganligi uchun, maktab yoki sinf umumiy tarbiyaviy ishlar tizimiga ko'ra va shu kabilar).

Tadbirda tayyorgarlik ishlarining tahlili:

Tadbirda o'tkazilish tashabbuskorlarini tashkilotchilari, (guruh rahbari, talaba, ayrim o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar); ushbu tadbirni tanlashda o'quvchilar qiziqishining qanday darajada ekanligining hisobga olinganligi; tadbirga tayyorgarlik kurish xususiyatlari (tadbirning sinf, guruh, rahbari va o'quvchilar tomonidan birgalikda rejalashtirilganligi, vazifalarning taqsimlanishi, ma'lumotlarning to'planishi; o'quvchilarda tadbirga tayyorgarlik jarayonida yangi tushuncha va tasavvurlarning shakllanganligi; tayyorgarlik ishlarining sinf, guruh, o'quvchilariga ta'siri (tadbirning ijtimoiy-tarbiyaviy maqsadi va vazifalariga mos kelishi, o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinganligi, o'zaro yordam talabchanligi va tanqidiylik ko'rinishlari, o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi munosabatlar.

Tarbiyaviy tadbir borishining tahlili: tarbiyaviy tadbir turining mazmunga mosligi; tadbir mazmunining hayot bilan bog'liqligi; tadbirni o'tkazish jarayonida o'quvchilarning faolligi, uyushqoqligi, tartib-intizomi va unga qiziqib, berilib ketganligi; o'quvchilarning tashqi ko'rinishi va tadbir o'tkazilayotgan xonaning jihozlanishi hamda bezatilishining maqsadga muvofiqligi: o'quvchilarning diqqati; berilgan savollar mazmuni; musobaqa ruhi; kayfiyatlarining o'zgarishi;

ruhiy ko'tarinkilik darajasi, o'quvchilarning bir-biri bilan muomalasi kabilar.

Kitobxonlar kechasini tahlil qilishning taxminiy mundarijasi:

- sana, tadbir o'tkazilgan soat;
- ta'lim muassasasi (maktab, litsey, kollej) sinf ishtirokchilar soni;
- tadbir tashkilotchisi (guruh rahbari), tadbirga tayyorgarlik va tahlili;
- tadbir to'rining o'quvchilar yoshiga mosligi, tanlangan asarning nomi;
- asarning badiiy qimmati, uning o'quvchilar qiziqishi va yehtiyojlariga mosligi;
- asarga berilgan badiiy tahlil va muhokama qilingan masalalarning to'g'riligi;
- kechada o'quvchilarning bilim va axloqiy tajribasi hisobga olinganligi;
- kechada o'quvchilar fikr-mulohazalarining mustaqilligi, ularning faolligi;
- kechaning tarbiyaviy ahamiyati; kechaning yutuq tva kamchiliklari.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarni inobatga olishi zarur:

- tarbiyada o'quvchilar jamoasi muhitining birligi;
- o'quvchilar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi;
- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- o'quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog'ligi haqida qayg'urish;
- axloq me'yorlariga amal qilish.

Axloq-odob mavzusidagi suhbat, eng avvalo, o'quvchiga tanish, tushunarli bo'lgan mavzudagi samimiy, jo'shqin suhbatdir. Axloq va odobga oid suhbat axloqiy ongni shakllantirish usullaridan biri bo'lib, bu jarayon orqali o'quvchilarga yaxshilik va yomonlik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, adolat, insof va insofsizlik, do'stlik

va dushmanlik, donolik va nodonlik, mardlik va nomardlik, mehmon va mehmondo'stlik, go'zallik va xunuklik, kamtarlik va manmanlik, mehr-oqibat va oqibatsizlik, samimiylik kabi tushunchalarga oid axloqiy bilimlar tanishtiriladi. Guruh tarbiyaviy soatlarining tuzilishi, o'z mohiyati mazmuni, rejasi, to'plangan asosli tayanch materiallari jihatidan 4 qismdan, ya'ni kirish, asosiy qism, badiiy qism va yakuniy qismdan iborat bo'ladi.

Kirish qismida o'quvchilarning diqqati mavzuning dolzarbligiga, mazmuniga, inson hayotida, jamiyat rivojida, ishlab chikarishda tutgan o'рни va ahamiyatiga karatilmog'i lozim. Bunda tarbiyaviy soatni olib boruvchi o'quvchilarni o'quv-akademik jarayoni doirasidan bevosita erkin muloqot doirasiga olib chiqishga erishmog'i lozim.

Asosiy qismni esa olib boriladigan tarbiyaviy ishning kun tartibidagi to'laqonli mazmunini tashkil etadi. Badiiy qismda mavzuning mazmuni nixoyasiga yetkaziladi.

Yakunlovchi qismda, ko'rilgan va muhokama qilingan tarbiyaviy masalaga 5-10 minut davomida amaliy yondashish bilan yakun yasaliб, vazifalar belgilanadi va navbatdagi sinf tarbiyaviy soat mavzusi e'lon qilinib, topshiriqlar taqsimlanadi.

Guruh rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Guruh rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatning o'lchovi, chegarsi yo'q. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi.

Guruh rahbari pedagoglar ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining fikrlarini hisobga olishi, bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Guruh rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan

qiziqishni o‘stirishga, ta’lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Didaktik masala sifatida maktabda ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga bog‘liq bo‘ladi. O‘qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarini tarbiyalash bilimni muvaffaqiyali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Guruh rahbari o‘qituvchilar bilan birgalikda bolalarning o‘qishlarini nazorat qiladi, darslariga kiradi, kuzatadi va o‘z sinfdagi o‘quvchilar bilan birgalikda sinfda o‘quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi.

1. O‘quv mehnatiga ongli munosabatda yondashish hissini tarbiyalash; bilimning sifatli bo‘lishi bolaning o‘qishga bo‘lgan intilishiga, qiziqishiga, diqqatiga, faoliyatiga, tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog‘liqdir. Guruh rahbari bolalarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog‘lanishi, ular o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatishi, Vatanni himoya qilish hissini tarbiyalash orqali erishadi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg‘otish; bola bilimga qiziqmay turib, o‘qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o‘qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o‘zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg‘otish kerak. Boladagi o‘qish, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o‘qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilish faoliyatini oshirishga, qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishga olib keladi.

3. O‘quv mehnati madaniyatini oshirish; past o‘zlashtirishning oldini olinishi aksariyat, o‘quv mehnatini tizimli va rejali olib borish, iqtidorli bolalar bilan ham individual ishlash jarayonida kelib chiqadi.

Guruh rahbarining va o‘qituvchining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining fikrlashga o‘rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, bolalarda o‘qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o‘qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilish, olgan bilimlarini amalda qo‘llash zarur bo‘lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir.

4. O‘quvchilarni o‘quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o‘rgatish; o‘quv mehnati bilan dam olishni to‘g‘ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar rejimga itoat etishlarini o‘qituvchi, guruh rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak.

5. Sinf o‘quvchilari bilan yaxshi hamkorlikni o‘rnatish. Guruh

rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida guruh rahbarining fan o'qituvchilari bilan bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ham ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

3. Tarbiya qoidalari. Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonunlari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos muhim qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;

- o'quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz:

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi.

Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan, mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning, vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishini talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida iymon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil

jamo'a bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini singdirib borishi lozim.

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, shunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiyaning yetakchi tamoyillari hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish usuli ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni tarbiyalash; o'quv mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish; ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Yuqorida ta'riflangan barcha qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishini sinfdagi jamoa muvaffaqiyatining munosabatlarini rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi.

O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, maktabda, maktabdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir.

Guruh rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo'shimcha shart hisoblanadi. Chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. Shu bilan birga ishini endi boshlagan o'qituvchi, ayniqsa, guruh rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o'z tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir xil usullar talablar, topshiriqlar turlicha izohlanadi.

Ta'lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari guruh rahbarining katta e'tibor berishini talab etadi. Jamoa faoliyatida ko'proq muomala qilishga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi. Agar darsdagi muomalaga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri tushunilsa, uning negizida o'quvchilarning o'zaro yordami,

darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko‘rish, qiziqishlar bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Ta’lim jarayonidagi jamoatchilik tuyg‘usi ana shu, ya’ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish ijobiy kechinmadan boshlanadi. Shu tariqa o‘zaro yordam tashkil etish sinfdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yo‘llaridan biridir.

Nazorat savollari

1. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlar tarbiyasining qaror va farmonlarda yoritilishi?
2. AL va KHKlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni?
3. Tarbiya qoidalari nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. O‘quvchilarni darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish rejasini tuzing?
5. Guruh rahbarining ishlab chiqarish jamoalari bilan aloqasi qanday yo‘lga qo‘yiladi?
6. Guruh tarbiyaviy soatlarining mazmuni va unga qo‘yilgan talablar.
7. Kitobxonlar kechasini o‘tkazish va tahlil qilish dasturini qayta tuzing?
8. Guruh tarbiyaviy soatlarining tizimliliigi va izchilligi haqida munozara tashkil eting?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Седова Л. Н. Теория и методика воспитания / Л. Н. Седова, Н. П. Толстоуцких. – М.: Высш. образование, 2006. – 206 б.
2. www.ziyo.net
3. www.tdpu.uz
4. www.pedagog.uz
5. www.istedod.uz
6. www.lex.uz
7. www.mv.gov.uz

9-MAVZU

MEHRIBONLIK UYLARIDA TARBIVAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Reja:

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashda pedagogik-psixologik jihatlar.
2. Mehribonlik uylarida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy ishlar mazmuni.
3. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati.

Tayanch so'z va tushunchalar: Mehribonlik uylari, pedagogik-psixologik jihatlar, ma'naviy-axloqiy ishlar, innovatsiya, tarbiya texnologiyalari, fazilat, shakllantirish.

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashda pedagogik-psixologik jihatlar. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatda ta'limning rivoji, kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarning istiqboli va boshqa dolzarb masalalarga eng ustivor sohalardan biri sifatida qarab yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan edi. Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Islahotlarimizning muhim tamoyillaridan biri aholining kam ta'minlangan tabaqasi, ya'ni qariyalar, nogironlar, bolalarni muhofaza qilish, ularni puxta himoyalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir».

«Olijanob, bag'ri keng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan, fidoyilik bilan xizmat qilish – barchamiz uchun eng yuksak sharaf, oliy saodatdir».

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov tashabbusi va bevositara harbarligida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modeli takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlarga ega. U O'zbekistonning xalqaro andozalaridagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, tafakkurli, malakali, bilimli, mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatleri barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Milliy manba'larga asosan 2010–2011 yillarda mamlakatdagi turli xil bolalar muassasalari, masalan, go'daklar uylari, «Mehribonlik» bolalar uylari, nogironligi bo'lgan bolalar va kam ta'minlangan oilalar



bolalari uchun maktab-internatlar, oila shaklidagi bolalar uylari, SOS bolalar shaharchalarida hayot kechirayotgan bolalarning umumiy soni 34 817 tani tashkil etgan.

Albatta, bugungi kunda yosh avlodni sog'lom, barkamol inson qilib dunyoga keltirish bilan birga, yoshlar ongiga ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar bilan boyitish, mustaqil fikrlashga o'rgatish biz bo'lajak muallimlarning burchimiz va vazifamiz hisoblanadi. Biz yosh pedagoglar chin ko'ngildan murg'ak qalb egalari, bolajonlarni ongli har tomonlama yotuk va barkamol qilib yotishtira olsakkina, mustaqil O'zbekistonimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shgan bo'larniz.

Bu borada, birinchi Prezidentimiz shunday degan edilar: «Agar maqsadsiz bo'lsang, hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo'lmasa, buyuk ish qilolmaysan».

Insonlar orasidagi munosabatlarni o'lchashga birinchi bo'lib qo'lgan olim amerikalik tadqiqotchi E. Bogardus bo'lgan. U o'zining «Ijtimoiy masofalar» shkalasi tufayli fanda nom qozondi. «Ijtimoiy masofa» deganda odamning boshqa ijtimoiy guruh vakillariga nisbatan qo'llaydigan «keraklilik darajasi» tushuniladi. Bu shkaladan amerikalik fuqarolarning turli etnik guruh vakillariga bo'lgan munosabatlarini o'lchash va qiyoslash uchun foydalanilgan³⁵»

E.Bogardusning «ijtimoiy masofa» metodikasi asosida ishlab chiqilgan shaxslararo muvofiqlik» shkalasini modifikatsiyalashtirib, undan talabalar guruhidagi ma'naviy-axloqiy munosabatlarni integral baholashda foydalanish mumkin, deb hisoblaymiz. Zero, u ma'naviy-axloqiy munosabatlar masofasini ham miqdoriy aks ettiradi.

Darhaqiqat, Vatan aziz, Vatandan muqaddas nima bor? Insonga neki muqaddas bo'lsa, barchasi Vatan – kindik qoni bilan bog'liqdir. O'zga shaharlarning go'zalligi, binolarning mahobati va salobati nechog'lik hayratlanarli bo'lmasin Ona Vatanga teng kelolmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan, alla bilan qonga kiradi.

Tole yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,

O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,

Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi, deb, olis Hindistonning podshosi bo'lgan Mirzo Boburni yig'latgan ham Vatan tuyg'usi edi.

Yangi asrimiz, birinchi yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: - «XXI

³⁵ Bogardus E.S. Measuring social distance // J. of applied sociology. 1925. Vol. 9.



asr barchamiz uchun fikrlash va ishlash zamoni bo'lajak, O'zbekiston davlatining buyuk kelajagi voqelikka aylanajak».

Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Ta'lim-tarbiyasiz esa ma'naviyat bo'lmaydi.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib ketgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmim kasb etgan Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyotiga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishni asosiy sharti, deb hisoblagan. Bizning tariximizda komillik timsollari juda ko'plab uchraydi. Masalan, Alpomish – xalqimizning ideal qahramoni, mardlik, jismoniy kamolot va vatanparvarlikning badiiy timsoli. Hazrat Navoiy uchun Farhod ideal obraz, u esa aqliy va jismoniy kamolot egasi. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy ideal obraz hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: – «Biz shoshilmasdan asosiy maqsaddan og'ishmay izchillik bilan milliy dasturni amalga oshirishimiz lozim. Shundagina u umumiy madaniyatni yuksaltirishga farzandlarimizni jamiyatda o'z munosib o'rnini topishga xizmat qiladi».

Dono xalqimiz «Bola – boshdan, nihol – yoshdan» degan naqlni bejiz aytmagan.

Biroq «Mehribonlik uylarida»-chi? Uyordabolalarni vatanparvar, bir-biri bilan do'st-inoq, barkamol qilib tarbiyalash juda katta mas'uliyatni talab qiladi. Ana shuning uchun ham «Mehribonlik uylarida» faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodim o'z ishini o'ta mas'uliyatli olib borishlari kerak. Davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan qonunlar, qarorlar, nizomlarga asoslanib berilayotgan moddiy ko'maklar ana shu ishlarni tashkillashtirishga asos tug'diradi.

Insonparvarlik, («inson» – arabcha; «parvar» – fors-tojikcha; «lik» - o'zbekcha – kishiga g'amxo'rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun



kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

O'zbek xalqining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har doim o'zbek xalqiga ota-onasidan judo bo'lib qarovsiz qolgan bolalarga 'amxo'rlikni o'z zimmasiga olish an'ana tariqasida rivojlanib kelganini ko'ramiz. Boquvchisini yo'qotgan farzandlar barcha davrlarda ham jamiyatni tashvishga solgan. Bu muammo davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

XI asrda yashab ijod etgan Yusuf xos Xojib davlatning mas'ul xizmatida ishlayotgan kishilar «qashshoq, tul, yetimlarga mehribon, ko'ngil bo'lishi lozimligini, xususan, ularning ehtiyojlariga alohida munosabatda bo'lishni uqtirgan edi». Yusuf xos Xojib nazarida ana shu toifaga munosabat «chin adolatning huquqiy ko'rsatkichlaridan biridir».

Ayni fikrlar esa Ahmad Yassaviy hikmatlariga xos.

G'arib, faqir, yetimlarni(ng) boshin silab,
Ko'ngli butun xaloyiqdan qochdim mano.

Yoki

G'arib, faqir ko'ngillarni qilg'il shodmon, deb yozadi o'z «Hikmatlar»ida.

Buyuk hazrat Alisher Navoiy madrasasi yonida ota-onasidan yetim qolgan bolalar uchun maktab ochgan, ularni o'z hisobidan kiyim-kechak, oziq-ovqat va o'quv materiallari bilan ta'minlagan. Alisher Navoiy an'analari keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu an'analarni buzgan jamiyat ahli tomonidan juda qattiq qoralangan.

Qo'qon xoni Xudoyorxon yetimlarni boshini silab, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Xudoyorxon davrida yetim-yesirlar, ota-onasiz qolgan bolalar saroyda to'plab, tarbiyalangan.

Ba'zi nochor oilalar ham bolalarni xon tarbiyasiga topshirishgan. Chunki saroyda ularni o'qitishgan, sarpolar bilan ta'minlab xilma-xil kasb o'rgatishgan.

Bolalar saroyida, rasmiy idoralar, otxonalar, oshxona va choyxonalar, kaptarxonalar, bog'larda, hammomlarda xizmat qilib, xon va beklar uyushtirgan ovlarda ishtirok etganlar. Xon tarbiyasidan bahramand bo'lgan yetim-yesirlar ulg'aygach, eng ishonchli kishilar qo'yilishi kerak bo'lgan lavozimlarga shularni tayinlaganlar. Hujjatlarga nazar salsak, xazinachilar, qo'riqchilar, kichik lashkarboshilar ismida

«sag'ir» qo'shimchasi uchraydi.

– avvalgi yillarda yetimlikka urush va ocharchilik oqibati sifatida qaralgan bo'lsa, bizning kunlarimizda ota-onasi hayot bo'la turib «Mehribonlik uy» lariga tushib qolayotgan bolalar soni ko'pchilikni tashkil qiladi.

– maktabgachayoshdagi yetim bolalarning 80 foizi oiladan ajralgan, tashlab ketilgan go'daklardir. Bolalar uylarda ularga ism qo'yish tarbiyachilar jamoasining burchiga aylanib qolgan. Bu bolalar bilan muloqotda bo'lsangiz, ular ko'ringan odamga «ona» deb talpinadilar. Bu fojiali manzarani kuzatish nihoyatda qiyin.

– yoshlarimizga umuminsoniy qadriyatlar va milliy marosimlarimizdagi bolajonlik his-tuyg'usini singdirish va oilani tashlab ketgan shaxslarga ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish lozim.

– oiladagi ijtimoiy-ruhiy vaziyatning buzilishi, arzimas janjallar natijasida juda ko'p oilalarning darz ketishiga olib kelmoqda. Shuning uchun tirik yetimlar soni ko'paymoqda.

– yetimlikning kelib chiqish sabablari naqadar xilma-xil va murakkabligi Navoiy shahridagi viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 1-son mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan Sh. Adizov bilan bo'lgan suhbatda ko'rinadi. Adizovning aytishicha, uning onasi otasidan ko'p jabr ko'rgan. Otasi bilan onasi urishib qolib, otasi onasini uydin haydab chiqaradi va singlisining turmush o'rtog'i bilan kelishib, bir yoshlik Shavkatni mehribonlik uyiga keltirib tashlashadi. Uning ahvolidan onasi doimo boxabar bo'lib turadi. Lekin «Mehribonlik uyi»dagi tarbiya natijasidanmi, Shavkat otasini yomon ko'rishga qodir emas. Uning aytishicha: «Baribir, yomon bo'lsa ham, men dadamni yaxshi ko'raman, axir, inson otasiz yashay olmaydi-ku!»

Bugungi kundagi muammolarning juda xunuk ko'rinishlaridan biri oilalarning ajralishlari hisoblanadi. Quyidagi sabablar tufayli bunday salbiy holatlar ko'payib bormoqda.

– inson hayotining mazmunini tashkil qiluvchi oila va uning a'zolariga, oila turmush tarziga, oila ravnaqiga bo'lgan noto'g'ri munosabat;

– ota-bobolarimiz yaratgan, xalqimiz qo'llab kelgan an'ana, urfodat, rasm-rusumlarga nopisandlik bilan qarash;

– hayotda gunoh, diyonat, mehrsizlikka amal qilgan bag'ritosh insonlarni yetarli darajada tartibga chaqirish chora-tadbirlari

ko'rilmayotgani va boshqalar.

Bunday kamchiliklarni yo'qotishning asosi yetim bolalarning psixologiyasini chuqur o'rganishdir. Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari jamoa shaklida yashayotganlari sababli u yerda o'ziga xos ish uslubi mavjuddir. Bolalar uyida oilaviy hayot tarzining yo'qligi bolaning ruhiy holatiga hamda sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar tarbiyasini mukammal bo'lmog'i uchun quyidagilarga e'tibor bermoq lozim:

- bolalargao'zo'tmishinihechqachoneslatmaslik. Bu «Mehribonlik uyi»da bola tarbiyasining asosiy shartidir;
- bola shaxsiga nisbatan hurmat va talabchanlik;
- bolalar uyidagi yetimlarni ichki dunyosini, xarakteri va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish;
- bolaga va uning atrofidagi shaxslarga, mehnatga, jamoada o'zini tutishi, faolligi yoki faoliyatsizligiga o'z vaqtida baho berish;
- bolalarning o'qishi, ularning ruhiy holatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va boshqalar;

Bolalarning ruhiy holatiga xos bo'lgan o'zgarishlar: oilaviy hayoti, mehnat faoliyati, ma'naviy dunyosini har tomonlama o'rganib, tajriba guruhlar uchun kartoteka savollar tayyorlandi.

Bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ruhiy holatini ijobiy va salbiy xususiyatlarini o'rganish maqsadida tuzilgan kartoteka savollarida quyidagi masalalar yoritilishi lozimligi nazarda tutilgan edi:

- bolalarning axloqiy xususiyatlari va aqliy rivojlanishi;
- irodaviy kuchi;
- hissiyoti;
- qiziqish-havasi;
- xotirasi;
- mijozi va boshqalar.

Savollarga olingan javoblar bolalar ruhiy holatlarini aniqlashga keng imkoniyat yaratadi.

Ana shu izlanishlar tarbiyalanuvchilarni ikki guruhga ajratish imkoniyatini beradi.

1. Axloqiy-ma'naviy xususiyatlarida ijobiylik yetakchilik qiladigan bolalar (ijodkor, ijrochi, mulohazakor, mehnatkash, oliyanob, xushmuomala).

2. Ruhiyatdagi salbiy holatlari yuqori darajada bo'lgan bolalar



(qaysar, indamas, qo'rs, jamoaga qo'shilmaydigan va boshqa bolalar). Ota-onasizlarni oilaviy hayotga bo'lgan munosabatlarini o'rganish maqsadida oila va oilaviy hayotga, o'qishga, mehnatga munosabat va do'stlik, fikrlari darajasini aniqlashga yordam beradigan quyidagi anketa so'roqlarini tuzdik va ularni tarbiyalanuvchilarga tarqatib, ularga javoblar oldik:

1. Oilaga munosabati:

Oila, ota-ona, aka-uka va qarindosh-urug'larga munosabat.

- a) o'z oilasini yaxshi ko'rishi yoki unga befarq bo'lishi;
- v) ota-onasini sog'ligini yoki ularga nisbatan befarq, ko'rmaslikka intilish;
- s) oila a'zolarining mehri, hamkorligi, ularga nisbatan qiziqishning bor yo'qligi;
- d) ota-onalarining ularga munosabati, ularni erkalatganmi, alla aytganmi yoki uning qalbida jarohat qoldirganmi?
- e) oiladagi jihozlarni tasavvur qilishi va unga munosabati;
- f) aka-ukasiga mehri, achinish va qayg'urish hissinin bor-yo'qligi;
- j) oiladagi kamchiliklarni his etish darajasi va oilaga qaytish haqida qat'iy fikri borligi.

2. Davlat g'amxo'rligiga munosabat:

- a) o'zini jamiyat a'zosi deb hisoblashdagi hissiyoti;
- v) davlat mulkiga munosabati va uni ehtiyot qilish yoki unga nisbatan e'tiborsizlik bilan qarashi;
- s) yashab turgan manzilini Vatan xissiyoti bilan aloqadorlikda tasavvur etish darajasi.

Mehnatga munosabati:

- a) mehnatga ixlos va farosat bilan yondashdimi yoki uni majburiyat ostida bajaradimi?
- v) qaysi mehnat faoliyatiga ko'proq qiziqadi (o'qish, tikish, jismoniy, aqliy, ijtimoiy ishlar);
- s) mehnatga qiziqish darajasi (ishchanlik, ish yoqmaslik yoki majburiy ravishda ishlash). Ish sifatlimi yoki sifatsizmi?

Axloqiy munosabati:

- a) axloqiy, irodaviy xislatlari. O'ziga nisbatan talabchanligi yoki bo'shang, befarqmi?
- v) axloqiy motivlar: qo'rquv, o'z fikrini aniq aytolmaslik, sharm-

hayo, burch va vazifani anglashi yoki suhbatsizligi holati bormi?

s) axloqiy odob va soʻzlash madaniyatiga egami? Yoki qoʻpol, janjalkashmi?

d) koʻngilchanlik, mehr va ishonch bilan odamga qarash hissiyoti bormi? Yoki odamlarga nafrati kuchlimi?

Oʻqish va bilim olishga munosabati:

a) oʻz shaxsini parvarish qiladimi? Oʻzini gigiyena qoidalari asosida parvarish qila oladimi?

v) oʻzining xatti-harakati bilan Yoshlar ittifoqlariga qanday baho bera oladi? (ijobiy va salbiy tomonlariga)

s) oʻz taqdirini va kelajagini qanday tasavvur etadi?

d) orzulari va unga erishish uchun intilishlari bormi?

Quyidagi anketa savollarini tadqiqotchilar Navoiy shahridagi 1-son «Mehribonlik uyi»ning pedagog, psixolog va metodistlari hamkorligida muhokama qilindi va qoʻllab koʻrildi.

Biz mazkur dastur asosida oʻtkazgan tadqiqot ishlarimiz juda yaxshi natijalar bermoqda. Olib borgan muloqotlarimizda yana shu maʼlum boʻldiki, bolalarning ruhiy holatiga ancha taʼsir koʻrsatgan masalalar, ota-ona diydoriga muhtojlik, oilada yashash, sharqona oila jihozlarini bilishga, oʻzlariga yaxshi doʻst tanlashga intilishlari ekan. Ular ham haqiqiy jamoat aʼzosi sifatida mustaqil oilada yashashni orzu qiladilar. Bu savollarimizga bolalarning deyarli barchalari ijobiy javob berdilar.

Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda, farzandlar tarbiyasiga doir orzu-umidlar xalq pedagogikasida bayon etilgan afsona, ertak, maqol, qoʻshiq, hikoya va rivoyatlarda oʻz aksini topgan. Ayniqsa, unda ota-onasidan mahrum boʻlgan yetimlar tarbiyasiga alohida eʼtibor berilgan. yetimlarga oʻng koʻzbilanqarash, ularning koʻnglini oʻksitmaslikka, qalbiniezugulik bilan toʻldirishga harakat qilish keng yoritilgan. Xalqimizning yetimlarga bunday munosabati ertak va afsonalarda yorqin ifodalangan. Masalan, «Oʻgay qiz», «Hushyor bola», «Zumrad va Qimmat», «Yetimlar», «Gʻaribning baxti», «Choʻpon bola» kabi xalq ertaklarining bosh qahramonlari yetimlardir. Bu ertaklarda yetimlarning ruhiy holatlari, ojizliklari, ularga nisbatan qoʻpol munosabatlar, mashaqqatli ogʻir mehnatni qoralagan.

Yetimlar kim? Xalqning bu boradagi oʻz fikri, oʻz qarashlari bor. Xususan:

Ota-onasiz yetimlar. yetimlik deganda bolalik chogʻida ota-onasi



vafot etib, boqadigan odamidan ajralib, birovlarining qo'liga qaram bo'lgan bolalar nazarda tutilgan.

Yetimlarga rahm-shafqatli bo'lish. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida har doim ularga rahm-shafqatli bo'lib, hayr qilish, har bir kishi o'zining yordamini ayamashligi kerakligini uqtiradi. yetimlar har doim xalq, el ardog'ida bo'lganlar. Navro'z, Hayit kunlari ularning holidan xabar olib, boshpana berganlar. Xalqimizning boy pedagogik merosida yetimlar muammosi alohida o'rin egallaydi.

Faqatgina xalq maqollarining o'zinigina kuzatish xalqning yetimlar hayotiga turli nuqtai nazardan yondashganligini ko'rsatib turadi. Ularni nazarimizda shunday tasnif qilish mumkin. yetimlik nazoratsizlik demakdir.

Yetimlik bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning tegishli axloqiy-ma'naviy fazilatlaridan bebahra qolishga omil bo'ladi. Shunga ko'ra noxush xususiyatlarining kishini yarashisiz xislatlarni xalq orasida yetimlik bilan bog'liq holda talqin qilishini ham ko'rish mumkin:

Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy bo'lur,

Yetim bola asrasang, og'zi-burning qon bo'lur.

Yetimlik kishining ijtimoiy-ma'naviy imkoniyatlariga to'siqdir. Bunda ota-onaning, do'st-o'rtoqning madadi, ularning himoyasi bo'lmaydi. Bu faqat iqtisodiy jihatdangina emas, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham o'z kuchini ko'rsatib turadi. Xalq yetimlar ko'nglining o'ziga xos jarohatlarini yaxshi tasavvur etadi. Shuning uchun ham ularga panoj va tayanch bo'ladigan vositalarga ishorat qiladi, ularning ko'nglini olish uchun yo'l ko'rsatadi. Masalan: yetimning ko'ngli yarim. O'tmishda ularning huquqini muhofaza etish bilan maxsus tashkilotlar shug'ullangan. Quyidagi maqollar shu holatga ishora:

Yetim o'z ishini qilib,

Kishi minnatini eshitar.

Yetim qizga yelpig'ich chikora.

Yetimning og'asi ko'p, joniga og'asi yo'q.

Yetimlik jamiyat e'tiborini qaratishi shart bo'lgan hodisadir. O'zbekona insoniylik, bolajonlik, shu xalqqa xos bo'lgan qiyinchilik yetimlar manfaatini hech bo'lmasa, jamoatchilik asosida himoya



qilishiga undab kelgani «Yetimni yig'latma», «Yetimni yetim dema, yetimning xaqqini yema», «Yetimning xaqi yetti daryoni quritar», «Sag'irning haqi – tangrining o'qidir» kabi maqollarda o'z aksini topgan.

Ba'zi bir ma'lumotlarga yetimlikni ikki guruhga ajratilgani va ularning biri yetim, ikkinchisi tirik yetim nomi bilan ataladi. Xalq orasida bunday qarashlar ancha qadimgi zamonlardan beri mavjud ekanligini ko'rish mumkin emas. Ba'zi bir maqollarda ota-ona va farzandlar yaxlitligi oila ulug'lanadi, demakki, u yetimlikka zid qo'yiladi: «Davlating – ota-onang», «Savlatiing – o'g'il-qizing», «Davlatning boshi – farzand», «Odamning mevasi – bola». Ammo ota-onasiz yoki farzandsiz oila nomukammal hisoblanadi. Bunday maqollarda, ayniqsa, ota-onaning o'rni maxsus ta'kidlanadi: «Ona o'gay bo'lsa, otang o'zingniki emas».

Yetim asrash va uning haqini yemaslik to'g'risida Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, (Niso surasida) yetimning haqini yeyish gunohligi ta'kidlab o'tilgan. Mehnatkash xalq doimo yetimlar mehnatining qadrini bilishlik, yetimlarga nisbatan xayrixohlik, ular ahvoliga achinish, rahm-shafqat qilish, qo'lidan keladigan yaxshiliklarni ulardan ayamaslik ezilgan dillarga azob bermaslik zarurligi uqtiradilar. «Alloh Taologa eng sevikli bo'lgan uy yetimlar tarbiya topgan uydur».

Qur'oni Karimda o'tgan ummatlar haqida qissalar, tarix, jug'rofiya, ilmi falak, ilmi tabiat yoki boshqa ilmlarga tegishli oyatlar ham uchraydi.

Qur'oni Karim axloq-odob, insoniy tarbiya kitobi hamdir. Hozirgi ma'naviy, diniy tarbiyaga e'tibor berilgan bir paytda bu narsa katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ota-onaga, o'zidan kattalarga hurmat ehtiromli, do'stu o'rtoqlariga mehribon, muhtoj kishilarga mehr-oqibatli, odob-axloqli, jamiyatda foydali kishilar bo'lishi ruhida tarbiyalashda ham Qur'oni Karim muhim o'rin tutadi.

Qur'oni Karimning «Niso» surasida yetim-yesirlar haqida gap boradi. Bu sura 176 oyatdan iborat. 6-oyatda yetimlarni, to balog'at yoshiga yotgunlariga qadar nazorat qilib (voyaga yetish vaqtini kuzatib) turingiz: voyaga yetganlarini sezsangiz, (qo'lingizdagi omonat) mol-

mulklarini o'zlariga topshiringiz! Ularni isrof qilib va (ulg'ayib qolsinlar deb) shoshqaloqlik bilan yeb yubormangiz! Kim boy bo'lsa, (yetimnng mulkidan yeyishdan) saqlansin. Agar kambag'al bo'lsa, yaxshilikcha (me'yorida olib) yesin. Mol-mulklarini o'zlariga qaytarganingizda, ularga guvoh chaqiringiz. Alloh hisob-kitobda kifoya qiluvchi zotdir³⁶.

8-oyatda meros taqsimida uzoq qarindoshlar, yetim va miskinlar (bechora) hollar hozir bo'lsalar, ularni ham u (meros) dan bahramand qilib, ularga yaxshi gapiringiz!

10-oyatda yetimlarning mol-mulklarini zulm yo'li bilan yeydigan kimsalar, albatta, qorinlariga olov yegan bo'lurlar va albatta, do'zaxda kuygaylar.

Yetimlarga rahmdil, shafqatli bo'lish, ularni to'g'ri tarbiyalashda «Hadis» ilmi muhim ahamiyat kasb etadi.

At-Termiziy, Imom al-Buxoriy yozib qoldirgan hadislarini o'rganib tahlil qilganimizda yetimlarga bag'ishlangan quyidagi noyob fikrlarga duch kelamiz. Hadisi shariflarning birida **Yetim bolani tarbiya qiluvchilar fazilati haqida** bunday deyilgan:

Oysha onamiz bir tilanchi ayolga 3 ta xurmo bergan edilar, u yonida olib kelgan ikkita bolasiga bittadan berdi-da, bittasini o'zi uchun olib qo'ydi. Bolalar xurmolarini yeb bo'lgach, yana onalariga qarashdi. Ona qo'lida turgan xurmoni ikkiga bo'lib, bolalariga yarimtadan uzatdi. Payg'ambarimiz s.a.v kelganlarida hazrati Oysha onamiz voqeani u janobga hikoya qilib bergan edilar. «Sen nega bundan ajablanasan? Ikki bolasiga marhamat, mehr-shafqat qilgani uchun Alloh Taolo ham unga marhamat qiladi», - dedilar.

Hadisshunos olimlarning yaratgan asarlarida ham yetim-yesirlarning muammosi alohida o'rin egallaydi. Imom al-Buxoriyning «Adab durdonalari» asarida Xavofiy hikoyalaridan birida sag'irlar haqida gap boradi. Hikoyat nomi «Sag'irni tangri boqadi».

Bir odam xalifa Mutasinga iltimosnoma yozib yuboradi. Unda falon ismli lashkarboshi urushda shahid bo'ldi, undan ancha-muncha mol-mulk va sag'ir bolasi qolgan. Meros sag'irga ortiqchalik qiladi, shuning uchun ham uning bir qismini xazinaga olib borib topshirsam, lashkarning maishatiga sarf qilsalar» - deb yozgan ekan.

³⁶Qur'oni Karim tarjima va tavsiri. Shayx Abdulaziz Mansur umumiy tahriri ostida. T.: Islom universiteti nashriyoti. 2018. 77-Isol-bet.



Xalifa o'sha iltimosnoma yuborgan odamni chaqirtirib yubordi: «Shahid bo'lgan odamning bor mol-mulkini xazinaga topshir, sag'irni esa tangrining o'zi parvarish qiladi». 133-hadis. Hasan Basriydan rivoyat qilinadi. U kishi aytdilar: Abdulloh ibn Umar taom yeydigan vaqtlarida bir yetim bola kelib, u janob bilan birgalikda ovqat qiladi. Kunlarning birida Abdullohga taomlar keltirildi. Lekin yetim yo'q edi. Abdulloh o'zlari taomni yeb bo'lganlaridan so'ng bola kelib qoldi.

Bolaning taomini olib kelinglar, taom tugab qolgani uchun uzr aytilgandan keyin Abdulloh talqon bilan asalni keltirib bola oldiga qo'yadilar: «Mana buni tanovul qila qol!» Alloh nomi bilan qasamyod qilamanki, sen ziyon qiladigan bo'lmading, dedilar. Hasan Basriy aytdilar, «Vallohi, ibn Umar ham ziyon qilmadilar».

Yetim va yetimlik haqida bir qator qo'shiq, ertak va dostonlar ham yaratilgan. Aslida ularni xalq pedagogikasining mahsuli sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

«To'tinoma», «Hotamnoma», «Qobusnoma» kabi pedagogik asarlarda bola tarbiyasidagi ota-ona burchi, vazifasi hamda yetimlar boshini silash g'oyalari alohida ta'kidlangan.

Yetimlar bo'lmashligining birdan-bir asosi oilani mustahkamlash ekanligi haqida fikr mutafakkirlarimiz ijodida yozib qoldirilgan. Mumtoz adabiyotning yirik vakillari Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Abu Ali ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq», Firdavsiyning «Shohnoma», Kaykovusning «Qobusnoma», A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub», A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi asarlarida insonning farzand tarbiyasiga yuksak axloqiy fazilatlar alohida ko'rsatilgan.

Bizda oila azal-azaldan mehr-muhabbat, bir-biriga hurmat-e'tibor, ishonch va sadoqat, insof va diyonat, o'zaro hamkorlik va hamjihatlik, do'stlik va vatanparvarlikni asl beshigi bo'lib kelgan. Ota-onaning farzand oldidagi majburiyatlari, farzandning esa ota-ona oldidagi qarzlari behisobdir. Birinchidan, dunyoga kelgan bolasiga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lida savodini chiqarish, kasb-hunar o'rgatish va boshini qovushtirish ota-ona uchun eng oliy orzu-havas bo'lsa, ikkinchidan, o'z oilasiga mehr-oqibat ko'rsatish, ota-onaning xizmatida bo'lish,

qarigan davrida ularni e'zozlash farzandlar oldidagi muqaddas burch sanaladi.

Buyuk bobomiz Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarining «Tarbiya» to'g'risidagi bobida yosh bolalarni qanday tarbiyalash kerakligi haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Tarbiyachi yosh bolani hurmat qilishi, jondan sevishi va u bilan yaxshi muomalada bo'lishi kerak. Do'stlarining yonida yomon so'z aytmasligi, noto'g'ri harakat qilmasligi zarur, uning o'rinli xohishini bajo keltirishi lozim, uning fikricha, bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi qiliqlari o'rgatilgan bo'lsinki, kelajakda uning mustahkam xarakterli bo'lib yetishishiga olib kelsin.

Mehribonlik uylarida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy ishlar mazmuni

Mehribonlik uylari kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalovchi tarbiyachi-pedagoglarning bu sohadagi vazifalari ulkan va mas'uliyatlidir.

Har bir mehribonlik uyidagi tarbiyachi-pedagoglari pedagogika-psixologiyani mukammal bilishlari uchun doimiy ravishda o'qib-o'rganishlari, metod usullarini o'z o'rnida qo'llash, tajribali pedagoglarning ilg'or metodlaridan foydalanish, teatr pedagogikasi, so'z san'atiga ega bo'lishlik, televideniyo, matbuot yangiliklarini bilish bilan bir qatorda, ularni Vatanga, ona zaminga, mahallaga, o'zbek milliy urf-odatlariga, udumlariga va an'alariga mehr-muhabbat uyg'otishlari va shu yo'lda tarbiyalashlari talab etiladi.

Mehribonlik uyining kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilari maktabdan olgan bilimlarini mustahkamlashtirish maqsadida mehribonlik uylarida tashkil etilgan har xil to'garaklar, o'zbek milliy urf-odatlarimizni, sharqona madaniyatlarimizni tasvirlovchi bayram tantanalarida va bayram tantanalaridan tashqari kunlarda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda qatnashadilar.

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarni do'stlik ruhida tarbiyalash tarbiyachilar ularning yoshini, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq milliy urf-odatlaridan, madaniyatidan foydalanib, xalq



ogʻzaki ijodidan namunalar olib, kechalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarda mardlik, doʻstlik, sarvarlik, milliy gʻurur tuygʻularini oʻstirish uchun «Ertaklar olamiga sayohat» kechasini oʻtkazish mumkin. Ularning qiziqishlarini orttirish, ziyrakligini tekshirish, bilimlarini aniqlash, shuningdek, hikmatli soʻzlar bilan tanishtirish maqsadida «Dono bobo davrasida» kechasini oʻtkazish kutilgan natija beradi.

Bundan tashqari mehribonlik uyida boʻladigan bahor faslidagi «Navroʻz bayrami», «Sumalak sayli»ni oʻtkazish va ota-bobolarimizdan meros boʻlib kelayotgan, milliy kurashlar, aytishuvlar, qizlarning tolpopuklar taqib yurishlari, Navroʻz taomlarini ulashish kabi tadbirlar koʻngli yarim bolalarda oʻz millatiga, xalqiga, urf-odatlariga, merosiga mehr-muhabbat uygʻotadi. Jumladan, «Oilasirlari», «Siz kelin boʻlasiz», «Qaynona ham ona», «Oilada onaning oʻrni», «Bosh tarbiyachimiz – onamiz», «Farzandlik burchi» kabi mavzularda maʼruza, munozara va suhbatlar oʻtkazish tarbiyachi-pedagog va jamoaning asosiy vazifalaridandir. Mehribonlik uyida faoliyat koʻrsatuvchi pedagog-ustoz, nafaqat tarbiyachi, balki ota-ona hamdir. Chunki bolalar ularga suyanib qolishadi, maslahat soʻraydilar, sirlashadilar, erkalashadi va hokazo. Bularni hisobga olgan tarbiyachi hamma vaqt bolalarga mehr berishga tayyor turishi kerak.

Yana ularga «Sanama», «Aytishuv», «Cheklama» kabi xalq ogʻzaki ijodining namunalari oʻquvchilarning tez oʻrganishi va yod olishi uchun mos boʻlib, ularda qiziqish yoki intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Bolalarga bunday xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan oʻrgatish bilan birga ular ongiga tariximizga, oʻtmishimizga muhabbat tushunchalari singdiriladi.

Bunday tadbirlarni oʻtkazishimizdan asosiy maqsad ularning bir-biriga boʻlgan doʻstligini, oʻrtoqligini mustahkamlashdir.

2. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyati

Zamonaviy sharoitdayetim va ijtimoiy yetim bolalarni hartomonlama tarbiyalash, ularda ijtimoiy hayotga moslashuvchanlik koʻnikmalarini shakllantirish, shuningdek, mustaqil hayotda Respublikaning barcha

fuqarolari kabi jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etish malakalariga ega bo'lishlari yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli amaliy harakatlar negizida yangicha an'analar qaror topganligi ko'zga tashlanadi. Bu an'analar ijtimoiy yetimlarning shaxsi, toifasi, ijtimoiy ko'makka muhtojlik darajasi, yoshi hamda sonini aniqlashga bilan birga mazkur ijtimoiy-pedagogik hodisani keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish, bu jarayonga ta'sir etayotgan salbiy ijtimoiy omillarni belgilash hamda bartaraf qilish yo'llarini izlashga yo'naltirilgan faoliyat negizida aks etadi. Bevosita «Mehribonlik uylari»ga jalb qilingan tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirishda samarali natijalarni kafolatlaydigan quyidagi an'analarni sanab o'tish mumkin:

1. Xalqaro hamda respublika miqyosida yetimlik va ijtimoiy yetimlik muammosini tadqiq etishga doir ilmiy anjumanlarning uyushtirilishi va o'tkazilishi.

2. Ota-onalar qarovisiz qolgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy hayotga samarali moslashishlarini ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma (shu jumladan, jamoatchilik jamg'arma) larining tashkil topishi.

3. Faoliyati doirasida «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarini ham ijtimoiy hayot va munosabatlarga moslashtirishga yo'naltirilgan harakatlar tizimi hamda mexanizmlarining ishlab chiqilishiga ham rahbarlik qiladigan markazlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi.

4. Tarbiyalanuvchilarga to'laqonli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy yordam ko'rsatilishini yo'lga qo'yish maqsadida ijtimoiy tez yordam uylarining tashkil etilishi.

5. «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga moslashtirish tizimi va mexanizmlari mohiyatini yoritadigan dasturlarning tayyorlanishi va amaliyotga tadbiq etilishi.

6. «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror toptirilishi.

7. Tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlashning samarali shakli sifatida «SOS—O'zbekiston bolalar shaharcha (qishloq)

lari» loyihasining amalga oshirilishi.

«Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, tarbiyalanuvchilar ham teng huquqli a'zo sifatida jamiyat tomonidan tan olingan axloq mezonlariga rioya etishlari lozim. Xo'sh, axloq mezonlari o'zi nima? Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda «Mehribonlik uylari» ning tarbiyalarida qanday ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish taqozo etiladi? Ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mohiyatida nimalar aks etishi kerak? Quyida shu kabi savollar yuzasidan so'z yuritiladi.

Insoniyatning fikrlay boshlashi, yaxshi-yomonni ajrata olishi muayyan jamiyatda kishilik munosabatlarini tartibga soladigan axloq mezonlari, qoidalarining ishlab chiqilishiga zamin yaratdi. «Axloq (lotin. «moralis» – qoidaga, xulq-atvorga, urf-odatga taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlar» [177, 49]; «ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir» [Mavlonova, 398]. Manbalarda, shuningdek, axloq yig'indisi har bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligining o'z-o'zini tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o'ziga xos usuli [177, 49] sifatida ham ta'riflanadi.

«Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishdan avval ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi.

«Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilarida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishda ijobiy xislatlarni tarbiyalash, aksincha, salbiy illatlarga ega bo'lishlarining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari

1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari davlat muhofazasida.
2. Mehribonlik uylarida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy ishlar

mazmuni?

3. Mehribonlik uyi kichik yoshdagi tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlashning o'ziga xosligi?

4. O'smir yosh bolalar tarbiyasida psixologik diagnostika va korrektsiyaning uzviyligi?

5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashda pedagogik-psixologik jihatlarni ahamiyati?

6. Tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish innovatsion texnologiyalarning ahamiyati?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch». T: 2008-y.
2. Asqarova O'. va boshq. Mehribonlik uylarida tarbiya. T.2008-y.
3. «Axloq-odobga oid hadis namunalari». T 1998-y, –72-b.
4. Avloniy A. «Turkiy Guliston yoxud axloq» T, 1992y. 160-b.
5. Yo'ldoshev J.G'. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar». –T;1992, –28-b.
6. Bogardus E.S. Measuring social distance // J. of applied sociology. 1925. Yol. 9.
7. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993-y.
8. Uzoqov X., G'ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.:».1992-y.
9. 1001 hadis. T. 2009-y.
10. Hasanboeva O. Kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlar. T.1994-y.
11. www.zivo.net
12. www.tdpu.uz
13. www.pedagog.uz
14. www.istedod.uz
15. www.lex.uz
16. www.mv.gov.uz

10-MAVZU

YOIHTLARINING TA'LIM MUASSASALARI BILAN OLIB BORADIGAN ISHLARNING MAZMUNI

Reja:

1. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyati, maqsad va vazifalari.
2. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan faoliyati.
3. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyatini o'rganish.

Tayanch so'z va tushunchalar: yoshlar, o'quvchi, ijtimoiy harakat, «Yoshlar ittifoqi» partasi, uyushmagan yoshlar, rahbarlik, faoliyat, tashkiliy, metodik, mas'uliyat, burch hissi mafkura, tahdidlar, munosabat.

1. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyati, maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 30-iyun—O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun va «Yoshlar kuni», debe'lon qilindi. O'zbekiston yoshlar ittifoqining maqsadi – yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

Tashkilot o'z atrofida institut yoshlarini birlashtirish, ularni iqtidorlarini yuzaga chiqarish, daxldorlik hissi bilan yashash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda. Yoshlar tashkiloti institut miqyosida turli tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, tuman, shahar hamda respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etib yoshlar faolligi uchun harakat qilmoqda.

Jumladan, talaba yoshlar o'rtasida:

- «Zakovat» intellektual o'yinlari



- «Zukko kitobxon» koʻrik tanlovi
- «Quvnoqlar va zukkolar» koʻrik tanlovi
- «Iqtidorli talabalar» uyushmasi
- «Yoshlar klubi»
- «Rektor kubogi» uchun sport musobaqalari
- «Chet tillari» toʻgaraklari
- «Pazandachilik, tikuvchilik» toʻgaraklari faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Talabalar barcha loyiha va tadbirlarda faol ishtirok etishmoqda. Yoshlarning siyosiy huquqiy sohadagi bilimlarini oshirish borasidagi amaliy tadbirlar ham oʻz natijalarini bermoqda. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi boʻlishga intilmoqda.

Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sogʻlom, maʼnan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va «ommaviy madaniyat»ning zararli taʼsiridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama koʻmaklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, Oʻzbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, Oʻzbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni taʼminlash, yigit-qizlarning maʼnaviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarishga koʻmaklashishdan iborat.

Ittifoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– barkamol, mustaqil fikrlaydigan, oʻzining hayotiy pozitsiyasi va qatʼiy eʼtiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib oʻrin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch boʻlishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;

– yoshlarni, xususan, uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

– yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

– iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish;

– yoshlar, xususan, uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish;

– yoshlarni, xususan, uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg'unchi tashkilotlar ta'siridan, chetdan «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga binoan talaba-yoshlarni ijtimoiy himoyalash, ularning taklif va istaklarini o'rganish, mustaqil hayotdagi ilk qadamlarida ko'maklashish, o'qishdan bo'sh vaqtlarini ko'ngilli, mazmunli tashkil etish hamda «Yoshlar ittifoqi» atrofida birlashtirish bilan birga, ularda komil inson fazilatlarini tarbiyalash, yoshlarning dunyoqarashini bunyodkor g'oyalar bilan oziqlantirish, intellektual mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish, tashabbus va yangiliklarini qo'llab-quvvatlash va talaba-yoshlarni «Yoshlar ittifoqi» atrofida birlashtirishdan iborat.

O'zbekiston «Yoshlar ittifoqi»ning Oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkiloti Kengashi 13 nafar a'zodan iborat bo'lib, Kengash tarkibi:

O'zbekiston «Yoshlar ittifoqi», IBT Yoshlar yetakchisi, yoshlar yetakchisining birinchi o'rinbosari – faol va iqtidorli yoshlar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi, tashabbus va yoshlar tadbirkorligi yo'nalishi yetakchisi, ta'lim jarayoni sifatini monitoring qilish yo'nalishi

yetakchisi, muddatli harbiy xizmatni o'tab, o'qishga qabul qilingan talabalar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi, yoshlar yetakchisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari – ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar turizmi yo'nalishi yetakchisi, sport, salomatlik yo'nalishi yetakchisi, ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi, tashkiliy-nazorat va kadrlar yo'nalishi yetakchisi, matbuot kotibi – yoshlar media guruhi rahbari, talabalar murojaatlari bilan ishlash yo'nalishi yetakchisi jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan faoliyati. XX asr so'ngida taniqli tarixchi va madaniyatshunos akademik D. S.Lixachov tarbiya haqida: «Men XXI asrni gumanitar madaniyat – mehribon va tarbiyalovchi madaniyat asri, deb tasavvur qilyapman. Tarbiya vazifalariga moslashtirilgan ta'lim, iste'dodlarni jinoyat olamiga kirib ketishiga to'sqinlik qiluvchi insonni yuksak qadr-qimmatlash hissi, vijdon va insof tushunchalari bizga XXI asrda kerak bo'ladi³⁷, – degan edi.

Hech shubhasiz, D.S.Lixachov biz yashayotgan asrni ayni haqiqat nuqtai nazaridan ko'ra olgan. Buning isbotlarini biz har damda guvohi bo'lmoqdamiz. Yangi asr avlodlari fenomeni avvalgi asr yoshlaridan tubdan farq qiladi. Shunga ko'ra, bugungi kunda dunyo mamlakatlari qatori mamlakatimizda ham tarbiya masalasiga asosiy e'tiborini qaratmoqda, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Buni yoshlar ijtimoiy harakati misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotining ta'lim muassasalarida boshlang'ich tashkilotlari tuzilgan bo'lib, boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi ta'lim muassasalarida yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko'maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol shaxslar bo'lib yetishishiga munosib hissa qo'shishdan iborat.

Boshlang'ich tashkilot o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

– yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy istiqlool g'oyasi, milliy qadriyatlar, diniy

³⁷ Лихачев Д. С. Воспоминания. Раздумья. Работы разных лет. в 3 т. Т. 1 / Д. С. Лихачев. – СПб.: АРС, 2006. – 396 б.



bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va oilaviy qadriyatlarni chuqur singdirish;

- yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan fuqarolik huquq va burchlarini anglatish, ularga mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarni mazmun-mohiyatini tushuntirish;

- yoshlarning muammolari, ta'lim sifati, fanlarni o'zlashtirish darajasi, davomati, darsliklar va kutubxonadan foydalanish darajasini o'rganib borish, yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etishga ko'maklashish;

- yoshlarning chuqur bilim olishi, chet tillarini o'rganishi va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish;

- iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan klub va to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

- imkoniyati cheklangan hamda maxsus ehtiyojli yoshlarning inklyuziv ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan ishlarni qo'llab-quvvatlash;

- notinch oila farzandlari, tarbiyasi og'ir va nosog'lom muhitga tushib qolgan yoshlarni jamiyatga ijtimoiy moslashuvi hamda darslarni muntazam qoldirib kelayotgan talabalarni ta'lim jarayoniga qaytarish, qizlar o'rtasida erta nikohlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar olib borish;

- yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan huquqiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

- yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning kitobga bo'lgan muhabbatini oshirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

- yoshlarda «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi zararli illatlar, axborot hurujlari, diniy aqidaparastlik, missionerlik va ekstremistik g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- ta'lim muassasasi yoshlari o'rtasida yoshlar turizmini

rivojlantirish, ularni o'zlarini yashayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashrifini uyushtirish;

– yoshlar, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida sportni keng targ'ib etish, ularning sportga bo'lgan qiziqishini qo'llab quvvatlash va turli sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

– yoshlarga tibbiy madaniyat, xususan, kasalliklardan himoyalaniş yo'llarini keng tushuntirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

– yoshlar o'rtasida ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish orqali ularda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

Umumiy qoidalar:

1. «Yoshlar ittifoqi» kengashi – Respublikaning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi sinflarda iqtidorli va faol o'quvchilarni tengdoshlariga o'rnatqilib ko'rsatish uchun tashkil etiladigan loyiha hisoblanadi.

2. «Yoshlar ittifoqi» kengashini tashkil etishdan asosiy maqsad – ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, ularda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish hamda har tomonlama barkamol avlod voyaga yetishishida ko'maklashishdan iborat.

3. Loyihani tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi: ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'qishga, ijtimoiy faollikka bo'lgan qiziqishi va intilishini oshirish;

– ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'zlashtirishi, davomati, tartib-intizomi va ijtimoiy faolligi oshishiga hissa qo'shish;

– o'quvchilar o'rtasida har tomonlama sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

– har tomonlama namuna ko'rsatgan o'quvchilarni rag'batlantirish;

– o'zlashtirishi past, tarbiyasi og'ir yoshlar bilan ishlashda ta'lim muassasasiga ko'maklashish;

– «Yoshlar ittifoqi» maqsad-vazifalari har bir yoshga yetib borishi va ularning ongiga singishiga erishish.

4. «Yoshlar ittifoqi» partasi har bir sinfdan tashkil etilib, qaysi qator va qaysi o'rinda joylashishi erkin tanlanadi. «Yoshlar ittifoqi» partasi boshqa partalardan ajralib turishi uchun maxsus bezatilishi mumkin. Xususan, partadan O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i hamda

«Yoshlar ittifoqi» ramzi tushirilgan bayroq oʻrnatilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

5. «Yoshlar ittifoqi» partasida sinfning oʻtgan oy yakunlari boʻyicha eng iqtidorli va faol oʻquvchisi hamda unga birlashtirilgan oʻzlashtirishi past oʻquvchi oʻtiradi.

6. «Yoshlar ittifoqi» partasida oʻtiradigan oʻquvchilar oʻzlashtirishi, davomati, odob-axloqi va faolligi boʻyicha yuritiladigan oylik reytinglar asosida belgilanadi. Bunda oʻquvchilarning oʻtgan oy davomidagi faoliyatiga quyidagi mezonlar asosida balllar beriladi:

- darslarda olgan har bir bahosi uchun ball;
- sinf yoki maktabning jamoatchilik ishlarida har bir ishtiroki uchun;
- tanlov va musobaqalardagi yutuqlari uchun ball;
- oʻquv adabiyotlaridan tashqari har bir oʻqigan badiiy, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy yoki tarixiy kitoblari uchun ball;
- sababsiz qoldirgan yoki kechikib kelgan har bir dars uchun jarima ball;
- taʼlim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun jarima ball.

7. «Yoshlar ittifoqi» partasida oʻtiradigan oʻquvchilarni aniqlash uchun umumiy oʻrta taʼlim maktabidagi «Yoshlar yetakchisi» rahbarligida sinf rahbarlari va oʻqituvchilardan tuziladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi. «Yoshlar ittifoqi» partasida oʻtiradigan namunali oʻquvchi bir oy davomida sinf sardorining oʻrinbosari vazifasini bajaradi.

8. Har oyning birinchi sanasi (agar mazkur sana dam olish kuniga toʻgʻri kelsa, oʻqish boshlangan sana)da Yoshlar yetakchisi va sinf rahbari sinflarga kirib, «Yoshlar ittifoqi» partasida oʻtiradigan oʻquvchini eʼlon qiladi hamda ularni eʼtirof etgan holda mazkur partaga qoʻchiradi. Shuningdek, sinfdagi oʻzlashtirishi, davomati past yoki tarbiyasi ogʻir oʻquvchilardan birini tanlab, «Yoshlar ittifoqi» partasiga oʻtirgan namunali oʻquvchi yoniga koʻchiradi.

9. «Yoshlar ittifoqi» partasida oʻtiruvchi namunali oʻquvchi quyidagi talab va vazifalarni bajaradi:

- bir oy davomida oʻzlashtirishi, davomati, ichki tartib-qoidalariga rioya etishi, faolligi bilan tengdoshlariga oʻrnak boʻlishi;
- «Yoshlar ittifoqi» faoliyati, maqsad-vazifalarini sinf miqyosida

keng targ'ib etishi, boshlang'ich tashkilot faoliyatida faol ishtirok etishi;

– o'ziga biriktirilgan (o'zlashtirishi past, tarbiyasi og'ir) o'quvchining o'qishi va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlariga ko'maklashishi;

– «Yoshlar ittifoqi» partasini toza-ozoda saqlashi, ehtiyot qilishi.

10. «Yoshlar ittifoqi» partasida o'tiradigan o'quvchilar bir oy davomida belgilangan talab va vazifalarni a'lo darajada bajarsa, oy so'nggida «Yoshlar ittifoqi» tomonidan faxriy yorliq va sovg'a (kitob va o'quv qurollari)lar bilan taqdirlanadi.

11. Bir o'quvchi ketma-ket bir marotabadan, o'quv yili davomida ikki marotabadan ko'p «Yoshlar ittifoqi» partasida o'tirishiga ruxsat etilmaydi.

3. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlari faoliyatini o'rganish.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Joylarda, avvalambor, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini nazarda tutilib, shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati

to'g'risida»gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 5106 05.07. 2017 yildagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» Farmoni tasdiqlandi.

Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlari faoliyatini o'rganish masalasi Farmonda aksini topgan. Unda ma'lumotlar faoliyat yo'nalishi izchil va tizimli shaklda berib qo'yilgan. O'rganish ishlari quyidagicha amalga oshiriladi:

– Boshlang'ich tashkilot «Yoshlar ittifoqi» va uning qoshidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyatini umumta'lim maktabida tashkil etadigan quyi bo'g'in hisoblanadi.

– Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshlang'ich tashkilotlar ta'lim-tarbiyajarayonida o'quvchilar manfaatlarini himoya qilish, ta'lim sifati yuzasidan jamoatchilik nazoratini olib borish, o'quvchilarning iqtidor va iste'dodlarini yuzaga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularning bilimli, odob-axloqli, sog'lom fikrli, ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib yetishishida ta'lim muassasalariga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi.

– Boshlang'ich tashkilot umumiy o'rta ta'lim maktablarining «Kamalak» bolalar tashkiloti va «Yoshlar ittifoqi» a'zolari bo'lgan o'quvchilari hamda o'ttiz yoshgacha bo'lgan pedagog xodimlarini birlashtiradi.

– Boshlang'ich tashkilot faoliyati tabiiy yetakchilik qobiliyatiga ega, o'ttiz yoshdan oshmagan, «Yoshlar ittifoqi» ning faol a'zosi bo'lgan oliy ma'lumotli pedagoglar orasidan saylangan hamda jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan boshlang'ich tashkilot yetakchisi (keyingi o'rinlarda yetakchi deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi.

– Boshlang'ich tashkilot faoliyati umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda «Yoshlar ittifoqi» kengashi raisi o'rinbosari tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

– Harakat Yoshlar muammolari instituti, «Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazini ta'sis etgan. Harakat muassasaligida «Turkiston», «Molodyoj Uzbekistana» gazetolari, «Yosh kuch», «Sirli olam», «Sinfdoosh», «G'uncha», «Yoshlik» jurnallari nashr etiladi.

– Harakat tarkibida va uning homiyligida o'quvchilarni birlashtiradigan bolalar tashkiloti tuzilgan. Bolalar tashkiloti harakat Markaziy kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat ko'rsatib, o'z faoliyatini tarbiyaning o'ziga xos yondashuvi va usullaridan foydalangan holda bolalarning qalbi va ongiga harakatning asosiy maqsad va muddaolarini singdirishga qaratgan.

– «Kamalak» bolalar tashkiloti ham ixtiyoriy, mustaqil tashkilot bo'lib, bolalarning qiziqishlari asosida faoliyat olib boradi. Bu tashkilotning maqsadi o'quvchilarga milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan bo'lib, turli yo'nalishlar bo'yicha quyidagi vazifalarni bajaradi:

– Umumiy o'rta ta'lim maktablari ma'muriyati bilan hamkorlikda pedagogik jamoa, faol o'quvchilar, jamoatchilikni jalb qilgan holda o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga ko'maklashadi.

– Umumta'lim maktabidagi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolari, taklif-istaklarini o'rganish va hal etishda yordamlashadi.

– Maktab ma'muriyati «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorlikda iste'dodli o'quvchilarning intilishi va qiziqishlarini o'rganish, ijtimoiy faolligini oshirish, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda ko'maklashish, ular o'rtasida ko'rik-tanlovlar, bilimdonlar bellashuvi, sport musobaqlari, ko'rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar tashkil ko'maklashadi.

– Ta'lim muassasalaridagi sinflar bo'yicha «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorlikda «Kamalak» devoriy gazetalarini tashkil etish, «Kamalak» yo'nalish bo'yicha sinf sardorlari faoliyati, tashabbuslari, maktabdagi faol o'quvchilar erishayotgan natijalarni yoritib borish, bu ishga o'quvchilarni keng jalb etish.

– 5. Umumta'lim maktabining «Ichki tartib-qoidasi» ga o'quvchilarning to'liq rioya etishi ustidan jamoatchilik nazoratini

oʻrnatish.

– 6. Oʻquvchilar qalbida milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, past saviyali «Ommaviy madaniyat» va milliy maʼnaviyatimizga zid boʻlgan maʼnaviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan targʻibot ishlarini olib borishga koʻmaklashish.

– Maktab maʼmuriyati, sinf rahbari, «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorlikda oʻquvchilarning hududga yaqin joydagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflarini uyushtirishga koʻmaklashadi.

– Maktab maʼmuriyati, «Yoshlar ittifoqi» bilan hamkorlikda taʼlim muassasasidagi va sinflardagi davomatni, darsliklar va kutubxonadan foydalanish darajasini oʻrganib borish yordamlashadi.

– Maktab maʼmuriyati «Yoshlar ittifoqi» hamda sinf rahbari bilan hamkorlikda taʼlim muassasalaridagi kam taʼminlangan, yetim (chin yetim), yakka tartibda taʼlim oluvchi oʻquvchilar, tarbiyasi ogʻir bolalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bazasini yaratish, ularga maʼnaviy koʻmak berish, ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tashabbuslar koʻrsatish, taʼlim muassasasiga yaqin hududda istiqomat qiluvchi faxriylar, yolgʻiz qariyalar holidan xabar olish, nogiron bolali oilalarga borib, madaniy-maʼnaviy tadbirlar uyushtirish, uy-roʻzgʻor yumushlarida koʻmaklashish.

– «Kamalak» bolalar tashkiloti safiga oʻquvchilarni jalb etish boʻyicha harakatning maqsad-vazifalarini tushuntirish, targʻib qilishga qaratilgan tashviqot ishlarini olib borish.

– Boshlangʻich tashkilotning joylardagi mahalla fuqarolar yigʻinlari huzuridagi voyaga yetmaganlar, yoshlar, sport va sogʻlomlashtirish masalalari boʻyicha komissiyalar bilan hamkorligini mustahkamlash, maktab maʼmuriyati bilan birgalikda oʻquvchilarning maktabdan tashqari (oilal, mahalla)dagi tarbiyasi, odob-axloqi, oilaviy muhitdagi kamchiliklar toʻgʻrisida maʼlumotlar yigʻishga koʻmaklashish.

– Mamlakatimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari, muhim tarixiy sanalarni oʻquvchilar va oʻqituvchilar oʻrtasida munosib nishonlash boʻyicha tadbirlarda qatnashish. Bayram tadbirlarini uyushtirishga koʻmaklashish, maxsus devoriy gazetalar chiqarishni tashkil qilish.

Nazorat savollari

1. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyati, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarini tuzishdan maqsad?
3. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan faoliyati qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyatini o'rganish zaruriyati?
5. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faoliyati, maqsad va vazifalari.
6. Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan faoliyati qanday yo'lga qo'yiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Espublikasi Prezidentining pf – 5106 05.07. 2017 «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» Farmoni.
 2. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch». T: 2008-y.
 3. Asqrova O'. va boshq.Mehribonlik uylarida tarbiya. T.2008-y.
 4. «Axloq-odobga oid hadis namunalari».T 1998 y, –72 b.
 5. Avloniy A. «Turkiy Guliston yoxud axloq» T, 1992y. 160 b.
 6. Лихачев Д. С. Воспоминания. Раздумья. Работы разных лет: в 3 т. Т. 1 /Д. С. Лихачев. – СПб.: АРС, 2006. – 396 б.
 7. Yo'ldoshev J.G'. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar». –T;1992, –28 b.
 8. Uzoqov X., G'ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.:.1992 y.
 9. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993y.
 10. 1001 hadis. T. 2009.y
 11. Hasanboeva O. Kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlar. T.1994y.
1. www.ziyo.net
 2. www.tdpu.uz
 3. www.pedagog.uz
 4. www.istedod.uz
 5. www.lex.uz
 6. www.my.gov.uz

11-MAVZU

TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Raja:

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari.
2. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi.
3. Tashxislash natijarini qayd etish.

Tayanch soʻz va tushunchalar: tarbiyaviy ish, mezon, samaradorlikni aniqlash, tashxis, natijalarini qayd etish, sogʻlom avlod, fidoyilik, amalga oshirish.

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari.

Hozirgi paytda Oʻzbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-maʼnaviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta oʻzlashtirib olishlari uchun gʻamxoʻrlik qilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, koʻpgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida» Qonunni hayotga joriy etish, taʼlim-tarbiya, sogʻliqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliyalashtirish, oʻrta maxsus hamda oliy oʻquv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida oʻtkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar oʻz samarasini bermoqda.

Jamiyat maʼnaviyati va shaxs kamolotida muhim oʻrin tutuvchi maʼnaviy va axloqiy poklik, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar oʻz-oʻzidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar hamda oliy taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan taʼlim-tarbiya mazmuni, gʻoyaviy yoʻnalishi va samarasi yotadi.

Oʻsib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol

inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obyektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi,

boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza, olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan xoli vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, Respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi tasirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning g'oyat ko'pligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan

talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmashligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi) ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddatli jarayon;
- yaxlit tizimlilik jarayon;
- ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Bugungi kunda tarbiya metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- So'z orqali ifodalash;
- Ko'rgazmalilik;
- Amaliy, namuna;
- Rag'batlantirish va jazolash.

Birinchi guruh – so'z orqali fikrni bayon etish, maslahat berish, yo'naltirish, suhbat, hikoya, ma'ruza;

Ikkinchi guruh – kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va adabiyot;

Uchinchi guruh-tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, namuna va ibratdan foydalanish;

To'rtinchi guruh-o'quvchilarni yaxshi bajarilgan ish uchun rag'batlantirish. Rag'batlantirish ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Jazolash metodi ham kam ishlatilishiga qaramasdan o'zining ma'lum ta'sir kuchiga ega. Jazolashga tanbeh berish, qattiq ogohlantirish, uyaltirish kabilar kiradi.

Tarbiyaviy ish uslubiyatini o'rganish o'quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan

ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor inson shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish, talabalarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilib ko'rish; insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim. Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish; amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim. O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ota-bobolarimizning axloq-odobhaqidagi hikmatli hikoyalari, naql-rivoyatlari yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019-yildagi PQ-4307-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlarini

tasdiqlanishi va tarbiya masalasi hamisha dolzarbligini, shu bilan birga o'z ahamiyatiga jarayon ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi Qarorlarda quyidagilar nazarda tutilgan: o'rta ta'lim muassasalarining I – XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fanini joriy qilish bilan bog'liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish.

«Tarbiya» fanining ta'lim tizimiga joriy etilishi o'ylaymizki, bir qancha yig'ilib qolgan muammolarni bartaraf etilishiga zamin yaratadi.

Shu maqsadda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga qo'yishda uzluksiz tizimni amaliyotga tadbiiq etish zaruriyatini taqozo etdi.

2. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yukalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999-yil 3-sentyabrdagi «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining qo'llab quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim-tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Milliy pedagogika asoschilaridan

biri Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!»³⁸ – degan soʻzlari fikrimizga dalil boʻladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sogʻlom, maʼnan yetuk shaxs yaratishga eʼtibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Oʻquvchilarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga boʻlgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora oʻstirib, boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir oʻsmirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib koʻrish;

«Respublika mehnatiga qoʻshiladi» mavzusida mehnat haftaligi va oʻn kunliklari tashkil qilish mumkin. Bu xildagi ishlar oʻz mazmuni bilan oʻquvchilarda yuksak fuqarolik fazilatlarini shakllantiradi, gʻoyaviy-siyosiy mehnat hamda axloqiy tarbiya uygʻunligi taʼminlaydi va ana shular tarbiyadagi namunaviy munosabatni ifodalaydi. Guruh rahbari tarbiya ishlari tizimidan ham majmuaviy munosabat, ham vaziyatni yaratish maqsadida foydalanish kerak. Chunki tarbiyada vazifalar yaratadigan tarbiyani undan oʻz maqsadi uchun juda keng va unumli foydalana oladi ham.

Gʻoyaviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – gʻoyaviy-axloqiy jihatidan yetuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa, bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yoʻnaltirishdir. Har bir talaba oʻzini-oʻzi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishga yordamlashmoq kerak. Buning uchun har bir oʻquvchining ehtiyoj va qiziqish darajasini oʻrganish ularga oʻz ehtiyojlarini jamiyat manfaatlariga, hal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga boʻysundirishga, oʻz jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan ehtiyojlarni koʻra olishga va nihoyat ularning hal qilishning aniq shart-sharoiti va haqiqiy imkoniyatlarni topa olishga oʻrgatish guruh rahbarining burchidir.

Gʻoyaviy-axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish –

³⁸A. Avloniy «Turkiy Gulistan yoxud axloq» T. 1992y. 160 b



o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shaxsning faol pozitsiyasini tarkib toptirish, axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish ola bilishga o'rgatish, milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik bo'lib hisoblanadi. Mehnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish, asosan, darsda hal qilinadi, lekin bu ish guruh rahbari faoliyatida alohida o'rin tutishi kerak. Lekin bu muhim masalani hal etishda guruh rahbari quyidagi vazifalarni majmual hal qilish kerak:

1. O'quvchilarni ma'lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g'oya va tushunchalar bilan qurollantirish;

2. O'quvchilarda fuqarolik hislarini hosil qilish, ya'ni o'zining mamlakatdagi, xalqi hayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash;

3. O'quvchilarni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga, ijtimoiy foydali ishlarga mehnat faoliyatigafaoal jalb qilish yo'li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish.

3. Tashxislash natijalarini qayd etish. «Tashxislash» ta'lim va tarbiya jarayonining muvafaqqiyatini ta'minlovchi vositalardan biri, desak aslo adashmaymiz. Bizningcha, tashxislashsiz ijobiy natijaga erishishning aslo imkoni yo'q.

Pedagogik diagnostik faoliyatning maqsadi – tarbiyachilarga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mezonlarini belgilash, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni samarali yechish yo'llarini aniqlash, talabalar faoliyatini boshqarish va o'zining kasbiy faoliyatini tuzatish, pedagogik o'zaro ta'sirlar samaradorligini baholashga imkon beruvchi yaxlit axborotni aniqlashdan iborat³⁹.

«Hozirgi paytda diagnostika pedagogik instrument bo'lib, uning yordamida pedagoglar o'zlarining pedagogik, psixologik va metodik rejalarini amalga oshirish yo'llarini aniq belgilab oladi, ta'lim-tarbiya sohasida yangi bilimlarga ega bo'linadi va fanda hal etilmagan yoki

³⁹Байкова Л.А. Гуманизация педагогической системы образовательного учреждения: Теория и опыт. Моногр. / Байкова Л.А. - Рязань: РГПУ им. С.А.Есенина, 2000, -248 с., С.П.Баранов «Педагогика: Учеб. пособие для пед. уч-щ по спец.№ 2001



qisman hal etilgan masalalarga duch kelishga tayyor turadi⁴⁰».

Darhaqiqat, zamonaviy pedagog o'z faoliyatining samaradorligini ko'rishni istasa, albatta pedagogik diagnostika bo'yicha bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak.

O'quvchining tarbiya ko'rganligini aniqlash (diagnostika) – bu o'qituvchi tomonidan shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik darajasini belgilovchi jarayondir. Uning natijalarini tahlil qilish asosida tarbiyalash texnologiyasi asosiy unsurlarining yo'naltirilganligi va mazmunini aniqlashtirish yoki tuzatish amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika) muammosi pedagogik aniqlashning (diagnostika) yangi yo'nalishlaridan biri sifatida pedagog olimlarimiz tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqiladigan tadqiqot bosqichi hisoblanadi.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlash, pedagogik ilmiy adabiyotlarda mukammal darajada o'z aksini topmagan, bu esa uning tarbiyaviy texnologiyalarda ilmiy asoslangan holda amalga oshirilishini murakkablashtiradi. Bir vaqtning o'zida ota-onalar kabi o'qituvchilar va turli toifadagi tarbiyachilar ham, har doim uning natijalariga etarlicha subyektiv baho berolmaydilar. Buning natijasida aynan bir xil xarakterdagi o'quvchilarning tarbiya ko'rganlik darajasi har xil o'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan turlicha baholanmoqda. Hozirgi vaqtda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy holatlarga tayanmasdan turib, ushbu kamchilikni hal etib bo'lmaydi.

Eng avvalo, «tarbiya ko'rganlik» tushunchasining mohiyatini anglab yetish zarur. Afsuski, hech bir lug'atda ushbu daraja bevosita muammo sifatida qo'yilib ilmiy ta'rif berilmagan. Shu bilan bir vaqtda bir qator pedagogik tadqiqotlarda, shaxsni o'rab turgan ijtimoiy, biologik va geografik muhit, kishilar bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan eng olijanob shaxsiy xususiyatlar tarbiya ko'rganlikni belgilab berishi ta'kidlanadi. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash asosida shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik (rivojlanganlik)

⁴⁰Максимов, В.Г. Педагогическая диагностика в школе. В.Г. Максимов. – Москва: Академия, 2002 – 272 с. С-154.



darajasini ham o'rganishga imkoniyat yaratiladi.

Tarbiya ko'rganlik darajasini aniqlash jarayonining asosiy xususiyatlari pedagogika va psixologiyada, shuningdek, boshqa fanlarda ishlab chiqiladigan maxsus metodlar tizimini qo'llash natijasida belgilanadi. Ya.S.Turbovskiy, N.V.Kuzmina, I.P.Rachenko, V.P.Simonov, A.V. Xristeva kabi pedagog olimlar ularni uch guruhga birlashtiradilar: *ommaviy, an'anaviy va diagnostik* metodlar.

Ommaviy metod sifatida dialektikaning asosiy qonuniyatlari – insonning miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor etish qonuniyatlariidan foydalaniladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ular hech qanday istisnosiz, obyektiv reallikning barcha hodisalarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi, shu bilan birga, o'qituvchilarga faqat so'nggi natijalarni aniqlashtirib olishni talab etadi va o'rganiladigan obyekt to'g'risida aniq ma'lumotlarni beradi.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlashning **an'anaviy metodini** amalga oshirish yanada aniq natijalarni olishga imkoniyat yaratadi. Ular allaqachon, yetarli darajada ishlab chiqilgan va turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilmoqda. Amaliyotda olib borilayotgan faoliyatlar natijasida, kuzatish metodi birmuncha maqbul hisoblanadi. Ushbu metod insonning shaxsiy faoliyati xususiyatlarini, ularning tabiiy (ilmiy, o'yinli, kasbiy faoliyat va boshqalar) shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini tahlil qilish asosida o'rganib chiqish tushuniladi. U o'qituvchilarning tarbiya ko'rganlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat beradigan xatti-harakatlari, xulq-atvorini muhokama qilishi, shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini tavsiflaydigan dalillarning tizimli, maqsadga muvofiq jamlanishini ko'zda tutadi.

Tarbiya ko'rganlikning eng ko'p foydalaniladigan uslubi **diagnostik metod** bo'lib, unda faoliyat individual diagnostik suhbat tariqasida olib boriladi. Ushbu metod pedagogik aniqlash (diagnostika) nuqtai nazaridan o'qituvchining tarbiya ko'rganlik darajasini o'zi, atrof-muhitdagi kishilar va obyektiv real hodisalar to'g'risida bildirgan fikr-mulohazalari asosida baholab, mazmunini tahlil qilish asosida o'rganishdan iboratdir. Diagnostik metod asosida o'qituvchi nafaqat o'qituvchining ichki dunyosi, uning qarashlari, ishonchlari, ideallarini

chuqur anglab yetishi, balki ijobiy intilishlarini qo'llab-quvvatlashi, uni mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirishi, foydali ishlarga ruhlantirishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarga e'tibor qaratishi va ularni bartaraf etishga yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumiy guruhning so'nggi tarbiya metodi sifatida faoliyat natijalarini tahlil qilish uslubi ishtirok etadi. U o'z mohiyatiga ko'ra, o'quvchining tarbiya ko'rganlik darajasini u amalga oshirayotgan ijtimoiy va boshqa foydali mehnat faoliyatini tahlil qilish asosida o'rganishdan iborat. Mazkur uslub o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatlari va qiziqishlari, ta'lim-tarbiya jarayonida, har-xil majburiyatlarni bajarishdagi yuksak natijalar va kamchiliklarning hisobga olinishini nazarda tutadi, bu esa muayyan bir o'quvchining kasbga yo'naltirilganligi xususiyatlari, uning xarakteri, hayotiy holatining shakllanganlik darajasi va boshqa faoliyatlari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bayon etilgan metodlardan tashqari o'quvchining tarbiya ko'rganlik darajasini aniqlash (diagnostika)da boshqa bir qator metodlar ham pedagogik-psixologik adabiyotlarda batafsil yoritib berilgan. Ularning har biri, umumiy maqsadga erishishni ta'minlagan holda, maxsus hodisalarni tahlil qilish asosida unga erishilishini nazarda tutadi:

1. *Hujjatlarni tahlil qilish metodi* – o'quvchi shaxsini o'rganishga oid hujjatlarning mazmuni (tavsifnomalar, taqrizlar, tavsiyanomalar va boshqalar);

2. *Tajriba metodi* – o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra, zarur bo'lgan sifat albatta namoyon bo'ladigan maxsus tashkil etilgan shart-sharoitlarda tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi;

3. *Anketalashtirish metodi (intervyu)* – oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga o'quvchi tomonidan beriladigan yozma yoki og'zaki javoblarning mazmuni;

4. *Mustaqil xususiyatlar metodi* – boshqa shaxslarni muayyan bir insonning tarbiya ko'rganligi to'g'risida fikr va mulohazalarini baholash va muhokama qilish;

5. *Tarjimai hol metodi* – shaxs hayotida oldingi mehnat faoliyati davrining ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yoritilishi.

Shuni hisobga olish joizki, ko'rib chiqilgan umumiy metodlarni

qo'llash o'qituvchiga tarbiya ko'rganlik darajasi to'g'risidagi o'quvchi haqidagi xulosani shakllantirish uchun yetarli darajada mukammal ma'lumotlarni beradi. Biroq, ulardan har biri alohida natijalarning to'liq obyektivligini ta'minlarnaydi. Mazkur ko'rsatkich ularni tizimli qo'llashda shart-sharoitlarni oshirish mumkin.

Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (diagnostika) natijalarining ishonch-liligini oshirishning yana bir sharti sifatida uchinchi guruh metodlaridan – maxsus xususiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ular ko'pincha professional psixologlar tomonidan psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lgan psixologik diagnostika (psixodiagnostika) doirasida qo'llaniladi. Ushbu maqsadda ko'pincha o'quvchining maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomada bayon etilgan savollarga javoblarini tahlil qilish asosida tarbiya ko'rganlik darajasining diagnostikasini ko'zda tutadigan so'rov uslubi qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda G.Ayzenk, R.Kettel, Dj.Teylor, Ya.Strelyau kabi xorijlik psixologlarning har bir millat mentalitetiga moslashtirilgan shaxsiy so'rovnomalari hamda mahalliy psixologlarning bir qator ishlanmalari keng tarqalgan.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan so'rov uslubiyatlari ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu ularga kira olish va uning nafaqat professional psixologlar, balki turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi imkoniyatini kengaytiradi. Ulardan o'z-o'zini diagnostika qilishda ham qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda o'qituvchi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. O'qituvchi pedagogik texnologiyaga oid bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo'lishi shart: o'qituvchi xatti-harakatlarining algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari sanab bering?

2. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi qanday tartibda bajariladi?

3. Tashxislash natijarini qayd etish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

4. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari?

5. Tashxislash natijarini qayd etishda nimalarga e'tiborli bo'lish kerak?

6. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi qanday xulosalarga tayanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; «Sharq», 1997, 20-29-betlar.

2. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – To'ldirilgan 2–nashri. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000. – 248-b.

3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. – 63-b.

4. A.Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» T, 1992-y. 160-b.

5. Байкова Л.А. Гуманизация педагогической системы



образовательного учреждения: Теория и опыт: Моногр. / Байкова Л.А.- Рязань: РГПУ им. С.А. Есенина, 2000.-248 с., С.П.Баранов «Педагогика: Учеб. пособие для пед. уч-щ по спец.№ 2001. Максимов, В.Г. Педагогическая диагностика в школе / В.Г. Максимов. – Москва : Академия, 2002. – 272 с. С-154.

6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. –

7. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. –T.: O`qituvchi, 2000.

8. Pedagogika. (Pod red. P.I. Pidkasistogo).- M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003.- 608 s.

1. www.zivo.net

2. www.tdpu.uz

3. www.pedagog.uz

4. www.istedod.uz

5. www.lex.uz

6. www.my.gov.uz

12-MAVZU

BOLALAR VA YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARI

Raja:

1. Bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslari.
2. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari.
3. Ta'lim muassasalarining bolalar tashkilotlari bilan olib boradigan faoliyati.

Tayanch so'z va tushunchalar: huquqiy asos, himoya qilish, ijtimoiy, bolalar tashkiloti, ta'lim muassasasi, meros, millat, hamkorlik, UNICEF, harbiy-vatanparvarlik.

Bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslari. Mustaqil O'zbekistoning, istiqbol va istiqboli uchun fidoyilik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni o'zgacha xarakter kasb etmoqda. Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa o'quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida bolalar va o'smirlar uyushmasi tuzildi. Bu bilan tashkilotning nomigina o'zgarib qolmay balki, uning ish mazmuni, uslubi, ramziy belgilari va tantanalari ham o'zgargan. O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi o'z nizomiga ega. «O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi siyosiy firqalar faoliyatida qatnashmaydi», deyiladi uning nizomida. Siyosatdan xoli bo'lgan bolalar tashkilotiga aylanganligi jihatidan bu tashkilot XX asr boshlarida Ovruponing bir qator mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan bolalar tashkiloti-boyskaut tashkilotiga qisman o'xshaydi.

Boyskaut tashkiloti 1907 yilda Angliyada, 1910 yilda Rosssiyada tuzilib, bolalarni podshohga va davlatga sadoqatli, chaqqon kishilar qilib yetishtirishni maqsad qilib olgan edi. Boyskaut – inglizcha boy – o'g'il bola, skaut - razvedkachi, izlovchi so'zlaridan olingan.

Boyskaut tashkilotidagi tarbiyaviy ishlar bolalarning qiziqishlari va mayllariga asoslangan harbiylashtirilgan mashqlar orqali amalga oshiriladi. (Chiroyli kiyim formalari, g'aroyib harbiy o'yinlar,

chiroyli yoshlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish, shahar tashqarisidagi harbiylashtirilgan bolalar qarorgohlari va boshqalar.)

Boyskautchilarning asl maqsadlari yarqiragan tashqi shakllari bilan niqoblangan bo'lib, mavjud ijtimoiy tuzumga sadoqatli bo'lish targ'ib qilinar edi. Keyin esa siyosiy firqalarning bevosita ta'sirida va rahbarligida ishlaydigan bolalar tashkiloti bo'lgan «pioner» tashkilotlari vujudga kela boshladi.

1924 yilda Angliyada tuzilgan pioner tashkiloti «O'rmon xalqi» deb ataldi. 1945 yilda Fransiyada partiya rahbarligida ishlaydigan bolalar siyosiy tashkiloti «Jasoratlilar ittifoqi» tuzilib, o'z saflariga bir ko'chada yoki bir mahalladada yashaydigan 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni birlashtiradi. (Maktabda bolalar siyosiy tashkilotlarini tuzish ta'qiqlangan edi.) 1962-yil 1-yanvarda Hindistonda «pioner» tashkiloti tuzildi. Shuningdek, Finlyandiyada, Norvegiyada va boshqa mamlakatlarda ham «pioner» tashkiloti tuzilgan.

Sobiq Ittifoq tajribasi shuni ko'rsatdiki, bolalar har doim yoshligidanoq siyosat bilan qiziqar, kattalarga mamlakat iqtisodini yuksaltirishda, jamiyatni rivojlantirishda yordamlashishga intilar ekanlar. Shu sababli ham sobiq Ittifoqda 1919-yildan bolalar milliy tashkilotlari vujudga kela boshlagan edi. 1922-yil boshlarida «Spartak» nomli yosh pionerlar otryadlari tuzila boshladi. 1922-yil 19-mayda komsomolning II Butunrossiya konferensiyasi «pioner» tashkiloti tuzilganligini rasmiy ravishda e'lon qildi va shu kun «pioner» tashkiloti vujudga kelgan kun sifatida nishonlab kelindi.

Dastlabki davrda «pioner» tashkilotiga N.K. Krupskaya (1869–1939) rahbarlik qilib turdi. Krupskaya ko'pgina nutq va maqolalarida «pioner» tashkilotining ish mazmuni va usullariga alohida e'tibor berdi. «Pioner» tashkiloti tashkil topgan kunidan to so'nggi vaqtlargacha unga komsomol tashkiloti rahbarlik qilib, uning tarbiyaviy maqsadlarini va funksiyalarini belgilab berdi, komsomolning XX se'zdida (1987) qabul qilingan VLKSM ustavida pioner tashkilotining tarbiyaviy ishlar saviyasini zamon talablariga muvofiq yuksaltirish zarurligi ta'kidlandi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar qo'mitasi XX asrning 20–30 yillarida maktablarda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish uyushmalari yangi maktab tashkil qilish borasida katta ahamiyatga ega

edi.

O'sha davr o'quvchilarining o'z-o'zini boshqarish uyushmalari kashshoflar tashkiloti, komsomol yacheykalari bilan bir qatorda maktabdagi o'quv-tarbiya ishlarini uyushtirishda, unga rahbarlik qilishda faol qatnashib, nufuzli o'rin egalladi. O'z-o'zini boshqarish uyushmalari faollari maktab ma'muriyati ishini taftish etish, rahbar hisobotini talab qilish, o'qituvchilar, maktabning turli xodimlari, o'quvchilar yoshlar ittifoqlarini tahlil qilib tegishli xulosalar chiqarish yuqori organlarga axborotlar berib turish huquqiga ham ega edi. Lekin keyinroq, maktabning yuqori sinflarida guruh rahbari lavozimi ta'sis etilishi, yoshlar tashkilotining ta'sir doirasi kengaya borgan sari o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish uyushmasi birmuncha susaydi.

40–50-yillardan boshlab ko'pgina maktablarda o'z-o'zini boshqarish uyushmasining rahbar organi bo'lgan o'quvchilar komitetiga saylovlar o'tkazish to'xtab qoldi, faqat ayrim maktablardagina o'quvchilar komitetlari o'z ishini davom ettirdi.

O'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish vazifalarining murakkablashib borishi munosabati bilan pedagoglar ishini yanada takomillashtirish maqsadida maktablarda yana o'quvchilar qo'mitasi ishini jonlantirish maqsadga muvofiq, deb topildi va 1978-yil 1-sentyabrda VLKSM Markazii Komiteti umumta'lim maktablarida o'quvchilar qo'mitasini tashkil qilish to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqdi. Mazkur Nizomga muvofiq umumta'lim maktablarining IV–X sinf o'quvchilari o'zlarining umumiy yig'ilishlarida yoki konferensiyalarida ochiq ovoz berish yo'li bilan o'quvchilar qo'mitasi (uchkom–uchenicheskiy komitet) saylanishi joriy qilindi.

O'quvchilar qo'mitasi maktab o'quvchilarining o'z-o'zini boshqaruvining ijroiya organi bo'lib, o'quvchilarni o'z sinfi jamoasini idora qilish ishlarida ishtirok etishini ta'minlaydi.

Sobiq SSSR Maorif vazirligi va BLKYol Markaziy Komiteti 1987-yil 12-iyulda «Umumta'lim maktabining o'quvchilar qo'mitasi haqida Nizom»ni ishlab chiqdi. Bu Nizom avvalgisidan birmuncha takomillashtirilgan bo'lib, unda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishning ijroiya organi sifatidagi roli, o'quvchi-yoshlarning burch va vazifalari ta'lim haqidagi Qonun asoslaridan, «O'quvchilar

qoidasi»dan kelib chiqqan holda aniq belgilab berilgan edi. Nizomda o'quvchilar qo'mitasining tashkiliy masalalari, uning ish mazmuni va (vazifalari ham bayon qilingan edi.

O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi Respublika kashshoflar tashkilotining huquqiy vorisi hisoblanadi. O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasining maqsadi uyushmaning har bir a'zosiga jumhuriyatning munosib fuqarosi bo'lib etishishiga, o'zini mustaqil hayotga tayyorlashiga, yoshlarni oilasiga va jamiyatga foyda keltirishiga yordam berish bo'lib uning shiori: «Vatan, do'stlik, ezgulik va adolat uchun!»

O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi a'zolari quyidagi asosiy qoidalarga amal qiladilar:

- so'z va ish birligi;
- do'stlik va o'rtoqlik;
- burch va vijdon;
- g'amxo'rlik va mehribonlik;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat.

O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi o'z faoliyatini O'zbekistonning barcha hududida amalga oshiradi, o'z nizomi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va bolalar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya asosida harakat qiladi. Bolalar va o'smirlar uyushmasi maktablarda, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarida, bolalar oromgohlarida tuziladi. Millati, tili, dinga munosabati qandayligidan qat'i nazar, uyushmaning biron-bir tashkiloti faoliyatida qatnashuvchi, uyushma nizomini tan oluvchi, 10 yoshga to'lgan, fuqaro O'zbekiston bolalar va o'smirlar uyushmasi a'zosi bo'lishi mumkin edi.

1991-yilning 5-aprelida yoshlar ittifoqining XXV ta'sis Qurultoyida tashkil topdi. Xuddi shu qurultoyda ittifoqning Nizomi va yoshlar ittifoqi dasturi loyihasi qabul etildi. Qurultoyda O'zbekiston yoshlar ittifoqining shiori quyidagicha bayon qilindi:

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari – «Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun kurashish!»ga, O'zbekiston yoshlar tashkilotlarining o'z nizomida ta'kidlagani kabi qizlarning turli sohadagi tub qiziqish va manfaatlari

chinakam himoyachisi hamda ifodalovchisiga aylanadi.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqining asosiy maqsadi yoshlarning erkin kamol topishi, ijodiy imkoniyatlarini to'la namoyon etishlarini ta'minlash, ittifoq a'zolari va unga xayrixohlarning fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish uchun kuch-g'ayratlarini birlashtirish hamda ushbu yo'nalishdagi yoshlarni qonuniy asosda boshqarishdan iborat.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida, shahar va tumanlarida O'zbekiston yoshlarning viloyat, shahar, tuman qo'mitalari tuzilgan bo'lib faoliyat ko'rsatmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, o'tgan qisqa vaqt ichida Kamolot va uning faollari katta ishlar qilishga harakat qildilar. Respublikamizda «Yosh vatandoshlarning birinchi xalqaro anjumani» o'tkazildi. (1992-yil 3-7-noyabr Toshkent shahri). «Kamolot», «Qiziqchi», Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlangan ko'rik tanlovlari, Farg'ona shahrida Respublika talabalarining anjumani va boshqalar bo'lib o'tdi. Shuningdek, Pokiston, Xitoy, Malayziya, Amerika va boshqa mamlakat yoshlari bilan do'stona aloqalar o'rnatildi.

1994-yil 5-aprelda O'zbekiston Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati – XXI qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda yoshlar ittifoqining o'tgan qisqa sarmazmun, o'zgarishlarga boy bo'lgan davr ichida qo'lga kiritilgan yutuqlari va kamchiliklari muhokama qilindi. Nizomga o'zgartirishlar kiritildi, yoshlar ittifoqi dasturining yangi tahriri qabul qilindi.

XXVI qurultoyda yoshlar ijtimoiy harakatining shiori o'zgartirilib, unda nutq so'zlagan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!» – degan so'zlarini o'ziga shior qilib olishga qaror qilindi.

O'quvchilar qo'mitasi ishining tashkiliy ko'rinishi maktab miqyosida qonuniy jamoa organi – umumiy majlis yoki o'quvchilar konferensiyasi bo'lib, yil davomida kamida bir marta o'tkaziladi. Shu yig'ilish o'quvchilar qo'mitasini saylaydi. Uning tarkibida qo'mita raisi, o'rinbosari, kotibi va komissiya a'zolari bo'ladi. Qo'mita tarkibida quyidagi hay'atlar – o'quv komissiyasi, mehnat komissiyasi, xo'jalik komissiyasi, intizom va tartibot komissiyasi, sanitariya salomatlik komissiyasi va boshqa komissiyalar bo'ladi. Sinfboshi va guruh rahbari

hamkorligida o'z-o'zini tarbiyalash ishlarini tashkil etishning quyidagi usullari mavjuddir:

a) o'z-o'zini ishortirish, o'z kamchiliklarini ko'ra bilish va uni yo'qotish yo'llarini qidirish;

b) o'z-o'zini tanqid;

d) o'z-o'ziga so'z berish, bu ko'p jihatdan o'z-o'zini ishortirishga yaqin tursa-da, o'z nuqson va xatolarini yo'qotishni diqqat markazida tutishi bilan farqlanadi;

e) o'zini fikran boshqa odam o'rniga qo'yib ko'ra bilish (empatiya);

f) o'z-o'ziga buyruq berish;

g) o'z-o'zini jazolash.

Maktabda-o'quvchilar qo'mitasining obro'li, e'tiborli va ta'sirli bo'lishi ko'p jihatdan maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uslubiga, maktabda shakllangan an'analarga, o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarga, maktabda hukm suradigan ruhiy-psixologik muhitga ham bog'liq.

Maktab direktori, tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, guruh rahbarining har bir o'quvchiga ikkilanmay, dadil topshiriqlar bera olishi, uning bajarilishini kutib olishi maktabdagi jamoat tashkilotlari ishini, jumladan, o'quvchilar qo'mitasi ishini yuqori bosqichga ko'tarishga to'la kafolat beradi.

O'quvchilar qo'mitasi ishini nazorat qilish, qo'mitaga tegishli maslahatlar berish, ish rejasini tuzishda ko'maklashishlari maktab yoshlar ittifoqi qo'mitasi zimmasidadir. Umumiy rahbarlik esa maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovuni tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi zimmasiga yuklatilgan.

Abu Nasr al-Forobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligini va ularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilish zarurligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. Darhaqiqat, iqtisodiy aloqa o'rnatish uchun odamlar, davlatlar, jamiyatlar integratsiya yo'lida yoshlar ittifoqi qiladilar. Hozirgi paytda bu fikr nechog'lik to'g'ri ekanligini yevropa amaliyoti misolida ko'rib turibmiz. Iqtisodiy integratsiya davlatlarga faqat boylik keltiryapti.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng birinchi

iyun «Bolalarni himoya qilish» kuni bayram sifatida yanada kengroq nishonlanmoqda. Shu kuni barcha istirohat bog‘larida hamma o‘yinlar bolalar foydalanishlari uchun bepul qilindi.

2017-yil 7-fevral Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati O‘zbekiston Yoshlar ittifoqiga aylantirildi. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning «2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil, 29-dekabrda PQ-2707-sonli Qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha alohida vazifalar belgilandi.

Bolalar faolligini yanada oshirish, vatanparvarlik, insoniylik ruhida tarbiyalash «Yoshlarga oid davlat siyosati»ni amalga oshirish, bola huquqlari to‘g‘risidagi «Konventsiya», «Ilk qadam dasturi», «Maktabgacha ta‘limga qo‘yilgan davlat talablari» bir qator qaror va dasturlar yoshlar bo‘yicha siyosatning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlar va maktab o‘quvchilari uchun yozgi ta‘til davrida «Oromgohlar»ning tashkil etilishi, sport to‘garaklari, badiiy havaskorlik to‘garaklari va shu kabilar bepul xizmat ko‘rsatmoqdalar. Davlatimiz tomonidan yaratilib berilayotgan imkoniyat, sharoitlar, g‘amxo‘rliklar o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi uchun asosiy himoya hisoblanadi.

1. Ta‘lim muassasalarining bolalar tashkilotlari bilan olib boradigan faoliyati. Jahon bolalar kuni har yili 20-noyabrda, «Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya» qabul qilingan sanada nishonlanadi. Ushbu kun «Bolalar uchun, bolalar tomonidan» global harakatlar kunidir. Jahon bolalar kuni dunyo bo‘ylab bolalar huquqlari haqida xabardorlikni oshiradi. O‘zbekistonda, ushbu sana bir nechta elchixona va BMT tomonidan bolalarning fikrini tinglash orqali

nishonlandi.

Bir guruh bolalar Yaponiya elchisi bilan uchrashganida atrof-muhitni himoya qilish, jumladan, Orol dengizi muammosini muhokama qilishdi. Ular ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning oldini olish haqida ham fikr-mulohazalarini bildirishdi. Bolalar tashkiloti haqida gap borganda, birinchi bo'lib UNICEF haqida ma'lumot berish zarur.

2. O'zbekiston Respublikasining BMTning Bolalar Jamg'armasi (Unicef) bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va UNICEF o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Asosiy bitim Toshkent shahrida 1994-yil 19-dekabrda imzolangan. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yil 22-dekabrda ratifikatsiya qilindi.

UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi 1994-yil 1-mart kuni ochilgan. 1994-yildan 2000-yilgacha O'zbekiston Respublikasi bilan UNICEF o'rtasida Birinchisi Davlat dasturi; 2000–2004-yillar mobaynida Ikkinchi Davlat dasturi amalga oshirildi. Unga ko'ra, 19 mln. AQSh dollari ajratilgan. 2009-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi va UNICEF o'rtasida 2010–2015-yillarga mo'ljallangan Uchinchi Davlat dasturi imzolandi. Ushbu dastur doirasida UNICEF mamlakatdagi loyihalarni moliyalashtirishni yiliga 5 million dollardan 7 million dollargacha oshirdi. UNICEFning 2010–2015-yillar uchun mo'ljallangan umumiy yordami \$42,234 mln.ni tashkil etadi, shundan \$19,734 mln.i UNICEF jamg'armalari, \$ 22,5 mln.i donorlar hisobiga amalga oshirilgan.

UNICEFning O'zbekistondagi faoliyati Fondning Davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi va quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- aholi farovonligini oshirishga ko'maklashish;
- onalik va bolalikni himoya qilish;
- bolaning hayotini yaxshilashga yordam berish.

Bundan tashqari, UNICEF bola tug'ilishini belgilashning, xavfsiz onalik, onadan bolaga o'tadigan OIVG'OITS infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha xalqaro mezonlarni O'zbekistonda tatbiq etishni qo'llab-quvvatlash uchun harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, vakolatxona quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi:

- qizamiq, poliomiyeletni bartaraf etish, chaqaloqni emlash

qamrovini oshirish, diareya va nafas olish infeksiyalari kabi bolalik kasalliklarini boshqaruvini takomillashtirish orqali kasallikka qarshi himoyani rag'batlantirish;

- yod tanqisligi bilan bog'liq salomatlik muammolarini tuzning umumiy yodlashuviga erishish orqali hal etish;

- 6-9 oylik bolalar uchun A vitamini qo'shimchalarini bolalar salomatligini yaxshilash va chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish strategiyasi sifatida ta'minlash;

- bola tug'ish yoshidagi ayollar, homilador ayollar va mamlakatning tanlab olingan eng zaif hududlaridagi bolalarda uchraydigan kamqonlikni kamaytirish uchun temir qo'shimchalari bilan ta'minlash;

- bolalik yoshidagi kasalliklarga, emlashning xavfsiz usullari, laktatsiyani boshqarish va vitamin yetishmasligini nazorat qilishni birlamchi tibbiy yordam tarkibiga kiradigan tibbiyot maktablarining o'quv dasturlariga tatbiq etishni ta'minlash.

2016-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va UNICEFning Toshkentdagi vakolatxonasi o'rtasida 2016-2020-yillarga mo'ljallangan yangi Davlat dasturi imzolandi.

Mazkur Davlat dasturi BMTning Taraqqiyot uchun yordam ko'rsatish bo'yicha Asosiy dasturi (UNDAF) ni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Umumiy byudjeti 32,7 million dollarni tashkil qiladi.

I. Bolalar fondining missiyasi

UNICEF yoki BMTning Bolalar fondi O'zbekiston Respublikasida 1994- yildan beri o'z faoliyati doirasida mamlakatning yosh fuqarolari g'amxo'r va do'stona jamiyatda voyaga yetishi, rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O'zining mandati asosida YUNISEF O'zbekiston bolalarining himoyalaniishi, ularning ehtiyojlari qondirilishi hamda ularning salohiyatini namoyon etishga barcha sharoitlar mavjudligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

UNICEF o'z faoliyatini BMTning Bolalar huquqi to'g'risidagi konvensiyasi asosida amalga oshirib, barcha mamlakatlarda bolalar huquqlarini himoya etish amaliyotini milliy qonunchilikka singdirishga harakat qiladi.

O'zining hamkorlik dasturlari doirasida UNICEF O'zbekiston Hukumatini joylarda bolalar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ularning farovonligini ta'minlash, oilaviy ahvolini yaxshilash kabi

sohalarda yordam berib kelmoqda. Shuningdek, UNICEF mazkur sohalarda parlament, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, qishloq aholisi, yoshlar, ommaviy axborot vositalari hamda ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlar bilan ham yaqindan ishlab kelmoqda.

II. Asosiy faoliyat yo'nalishlari

UNICEF o'zining O'zbekistondagi faoliyati doirasida ona va bolalarning salomatligi, ular orasidagi o'lish darajasini kamaytirish, ushbu sohada eng yuqori andozalarning joriy etilishi, ona va bolalar oziqlanishi borasidagi eng ilg'or tajribalarni hayotga tadbiq qilish, OIV yuqtirilishining oldini olish, gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlash kabi masalalar milliy qonunchilikda o'zining aksini topishi, shu sohalarda mavjud bo'lgan muammolarning yechilishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shuningdek, UNICEF O'zbekistonda har bir bola g'amxo'r muhitda tarbiyalanishi, ta'lim olishi va rivojlanishini ta'minlashga intiladi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida UNICEF O'zbekiston Hukumatini mamlakatda boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimlarini yanada takomillashtirishda, bolalarni barcha turdagi zo'ravonliklardan himoyalashda, ularning huquqlarini ilgari surishda yordam berib kelyapti.

Shuningdek, UNICEF bolalar huquqlarining bajarilishi, himoya qilinishini ta'minlovchi maxsus kuzatuv tizimini yaxshilashda ham O'zbekiston Hukumatini qo'llab-quvvatlaydi, mamlakatda bolalarni himoyalash, ularga g'amxo'rlik qilish madaniyatini yanada yuksaltirishga intiladi.

Joriy 2016-2020-yillarga mo'ljallanib tuzilgan hamkorlik dasturi doirasida Bolalar fondi O'zbekistonda yashovchi har bir ona va har bir bolaning huquqi, farovonligining muhofaza qilinishini ta'minlashga intiladi. UNICEF dasturi BMTning «Mingyillik taraqqiyot dasturi», «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi konvensiya hamda «Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishlarga barham berish to'g'risida»gi konvensiyada belgilangan maqsad va vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

«Barkamol avlod» bolalar markazlari negizida tashkil etilayotgan «Barkamol avlod» bolalar maktablarida «STEAM – ta'lim» joriy etiladi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorni imzoladi. Bu haqda O'zbekiston

Xalq ta'limi vazirligi matbuot xizmati xabar qildi.

Qarorga muvofiq, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi texnik ijodkorlik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha «Barkamol avlod» Respublika bolalar markazlari negizida Respublika «Barkamol avlod» bolalar maktabi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) «Barkamol avlod» bolalar markazlari negizida «Barkamol avlod» bolalar maktablarini tashkil etish belgilandi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va viloyat xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi axborot-resurs markazlari negizida «Bolalar kutubxonalari» tashkil etiladi.

Bundan tashqari, bolalar turizmini tizimli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2020–2023 yillarda Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridagi «Barkamol avlod» bolalar maktablari huzurida 100–200 o'rinli «Bolalar sayyohlik bazalari» tashkil etiladi.

Qarorning yana bir muhim jihati shundaki, unda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalari bilan birga 2019–2021 yillarda xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha «Yo'l xaritasi», 2020–2024-yillarda yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan «Barkamol avlod» bolalar maktablari hamda 2020–2023-yillarda yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan «Bolalar kutubxonalari»ning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

Qarorga ko'ra, 2020–2021 o'quv yilidan boshlab, barcha «Barkamol avlod» maktablarida «STEAM – ta'lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar qiziqishiga ko'ra «Barkamol avlod» bolalar maktablarining tarmoq to'garaklari tashkil etiladi.

«Barkamol avlod» bolalar maktablari xodimlarini ijtimoiy holatini yaxshilash, ularning samarali mehnat qilishlari uchun shart-sharoit yaratish maqsadida, 2020 yil 1 yanvardan boshlab direktor va direktor o'rinbosarlarining ish haqi 1,55 baravarga, to'garak rahbarlarining ish haqi 1,5 baravarga oshiriladi. Instruktor-uslubchilar va uslubchilar ish haqi to'garak rahbarlari bazaviy tarif stavkalari miqdoriga

tenglashtiriladi.

O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik tashkilotini tuzish konsepsiyasi to'g'risida»gi Qarori loyihasi e'lon qilindi.

Hujjatga ko'ra, konsepsiya O'zbekiston Respublikasining bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik tashkilotining amaliy faoliyatini ochib beruvchi asosiy qoidalarini, maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining «Yoshlar davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni hamda yot g'oyalar va oqimlarga qarshi tura oladigan, mustahkam e'tiqod va hayotiy qarashlarga ega yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Konsepsiyaning mazmuni tashkilotni yoshlarda vatanparvarlik va Vatanga munosib xizmat qilishga shaylikni tarbiyalash bo'yicha harakatlarning xarakteri va yo'nalganligini hamda ushbu faoliyatning subyektlarini hamkorlik qilish jarayonidagi faoliyatining samaradorligini ta'minlash shartlarini belgilovchi asosiy maqsadlar to'plarni ifoda etish orqali ochib beriladi.

Tashkilotning amaliy faoliyatini olib borish uchun alohida tuzilmani tashkil etish ko'zda tutilib, quyidagilarni:

- umumta'lim maktablarida (20-25 kishi) tuziladigan otryadlarni (boshlang'ich tashkilotlar);
- tumanG'shahar shtablarini (tumanG'shahar mudofaa ishlari bo'limlari bazasida joylashgan);
- mintaqaviy shtablarni (viloyat mudofaa ishlari boshqarmalari bazasida joylashgan);
- tashkilotning bosh shtabini o'z ichiga oladi.

Markazlashgan boshqaruv tizimini tuzish maqsadida tashkilotga umumiy rahbarlik qilish tashkilot yetakchisi – mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklanadi.

Dunyo xalqlari sir emaski, ta'lim-tarbiya borasida tinimsiz izlanish olib bormoqda. Har qanday faoliyatni tashkil etishdan maqsad komil insonni tarbiyalashdir. Bu tamoyil din va ilm, an'ananing turfa xilligiga bo'ysunmasdir.



Komil inson g'oyasiga amaliy, pragmatik va integrativ yondashgan davlatlartezdanazariy qoidalardan bugungi vaertangikun uchun «foйда» chiqarib oldi. Eksperimental pedagogika rivojlandi. Tarbiyaning ko'zga ko'rinmaydigan nazariy tushunchalarini ko'rinadigan narsalarga – obrazlarga, bixevior texnologiyalarga aylantirib, yoshlarida eng zarur fazilatlarni shakllantirib kelishmoqda⁴¹.

Komil insonni tarbiyalashda qaysidir ma'noda va qanchadir miqdorda jamoat tashkilotlarining hissasi bor.

Tashkilotlar bugunga kelib tinimsiz ravishda komillikka intilayotgan, biroq o'z o'rnini topolmayotgan bolalarga e'tiborini qaratib kelmoqda.

Har qanday odamni inson qilib tarbiyalash zamirida pedagogika fani yotadi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. Bolalar va yoshlar jamoat tashkilotlari va uning tarixi.
2. Bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslari.
3. Ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy hamkorlik tushunchalarining bog'liqligi nimadan iborat?
4. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari.
5. UNICEF tashkilotining maqsadi nimalardan iborat?
6. «Barkamol avlod» bolalar maktablarining vazifasi nimalardan iborat?
7. Bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik tashkilotini tuzish konsepsiyasi qanday jarayonni o'z ichiga oladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va UNICEF o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Asosiy bitim. Toshkent, 1994-yil 19-dekabr.

2. «O'zbekiston Respublikasining bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik tashkilotini tuzish konsepsiyasi to'g'risida»gi Qarori loyihasi. Lex.uz

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi T., 2010 y.

4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.:

⁴¹Kelby Mason, Chandra Sripada, Stefen Stich. The philosophy of Psychology. N.G. 2016. Лич Д. Прикладной анализ поведения. –М.. Оперант, 2015.



«Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.

5. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

6. Юзликаева Е., Мадярова С., Янбарисова Е., И.Морхова. Теория и практика общей педагогики. – Т.: ТГПУ, 2014.

7. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.

8. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

9. Hoshimov K., C.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.

10. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

11. www.ziyo.net

12. www.tdpu.uz

13. www.pedagog.uz

14. www.istedod.uz

15. www.lex.uz

16. www.my.gov.uz

13-MAVZU

TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING O'ZARO HAMKORLIGINI YO'LG'A QO'YISH

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» Konseptsiyasining o'rni va ahamiyati.
2. Guruh rahbari faoliyatida ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari.
3. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

Tayanch so'z va tushunchalar: oila, mahalla, ta'lim muassasasi, hamkorlik, konseptsiya, ota-onalar, o'quvchi-yoshlar, tamoyil, bosqich, qo'ni-qo'shni.

1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda «Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi» Konseptsiyasining o'rni va ahamiyati. Oila har davrda va har bir jamiyatda muhofaza qilingan. Oila – bu kichik bir davlat. Davlat mana shu maskandan boshlanadi. Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab, «Oila» instituti O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining XIV bobida 63-64-65-66-moddalarida o'z o'rnini topgan bo'lib:

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-

onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar⁴².

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan «Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi» Konseptsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek,

– birinchidan, yoshavlodga o'zligimizni, muqaddasan'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

– ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfiylikdan qat'i nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

– to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

– beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya

⁴²O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi oliy kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. T.: «O'zbekiston» 2007, 13-14-b.



sohasidagi islohotlar:

- birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman, mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;
- ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;
- uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda;
- to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;
- beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konseptsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konseptsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi.

Konseptsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998-yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 30-moddasida «Voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va

manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar», – deb belgilab qo'yilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu «Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi» bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish, mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi» Konseptsiasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi» yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

O'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi jarayonida oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalar har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onaga, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlari va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy



mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishlari;

- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlik xususiyatlarini shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

- sanitariya-gigiyena ko'nikmalarini singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

- sog'lig'ida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlarga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor berish kabilardir.

Oila maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgardir.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari:

«Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona»- degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona yechimlarni topishda faollik ko'rsatish;

- mahalla o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab, farzandlarning bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;



– maʼnan nosogʻlom oilalarni mahalla yigʻinlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini koʻrish;

– mahalla hududidagi oʻquv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam koʻrsatilishini qoʻllab-quvvatlash;

– ota-onalar orqali bolalarga tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy gʻurur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy ongliklik, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama ragʻbatlantirish;

– yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini toʻgʻri anglab yetishiga ota-onalar orqali taʼsir koʻrsatish, ulugʻ ajdodlarimizning tarbiyaviy oʻgʻitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla yigʻinlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura gʻoyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlari targʻibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

– «Sogʻlom avlod uchun», «Mahalla», «Ekosan», «Ulugʻbek», «Nuroniy» jamgʻarmalari, «Yoshlar ittifoqi», xotin-qizlar qoʻmitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqlol gʻoyalari asosida tarbiyalash ishida muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;

– mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlarini oʻquv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;

– mahalla hududida oʻquv-tarbiya masalalari bilan birgalikda turli koʻrik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish;

– turli yoʻnalishda iqtidorli boʻlgan oʻquvchi-yoshlarni maktablar tavsiyasiga koʻra, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash;

– ilgʻor pedagog xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam koʻrsatish;

– farzandlariga taʼlim-tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida «Oila saboqlari» mashgʻulotlarini tashkil qilish;

– mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, sanʼatkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli toʻgarak va «usta-shogird» anʼanasida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

– mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan

mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari ajratilishiga erishish;

– har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

O‘quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari:

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning roli katta. Chunki bola kunning deyarli uchdan bir qismida maktabda bo‘ladi. O‘quvchilarni tarbiyalashdagi roliga ko‘ra maktabga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- maktabda bolaga biron-bir kasbkorni egallash uchun mustahkam poydevor yaratish;
- o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘arak mashg‘ulotlarini tashkil qilish;
- bolalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta’minlash;
- o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslariga yo‘naltirish va ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy-tarbiyaviy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;
- o‘z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo‘lida muvofiqlashtirish;
- tarbiyasi og‘ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;
- bolalar tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan oilalarni tegishli idoralar bilan hamkorlikda o‘rganib, tajribalarini ommalashtirish;
- o‘qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo‘liga kirib ketgan o‘smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko‘rib, ota-onalar yig‘ilishlarida muhokama qilish;
- tarbiya subyektlari bo‘lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar,

yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va «Ekosan», «Qizil Yarim Oy» kabi barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarlikni muvofiqlashtirish;

- turarjoyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi maktab bo'lishiga erishish;

- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilish;

- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarni maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar universitetlari» faoliyatini tashkil qilish.

Y.M.Kudryavtsevning fikricha «Tizimlilik o'zaro bog'liq va aloqador bilish tamoyillari, yo'nalishlari, metodlari, usullari, shakllari, vositalari va usullari, obyektiv va subyektiv voqelikda ro'y beruvchi hodisa, jarayon, predmetlar izohlarining va ularni o'zgartirish uchun beriluvchi tavsiyalar majmuasi sifatida tarbiyaviy tizimni ilmiy o'rganish uchun tushunarli va sodda qilishga imkon berib, tarbiya tizimining funktsionalligini oshirish va uni dinamik rivojlantirish borasida ko'plab nazariy va amaliy vazifalarini samarali hal etishga yordam beradi»⁴³.

Tarbiyaviy jarayonda tizimlik va hamkorlik tamoyiliga asoslangan holda bir qancha qaror va farmoyishlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ijrosi birin-ketin o'z yechimini topib bormoqda.

⁴³Кудрявцев Ю. М. Основные принципы и закономерности функционирования и развития воспитательной системы высшего учебного заведения / Ю. М. Кудрявцев, О. Ю. Макарова // Вестник КНИТУ. – 2012. – 374 № 8. – 451 – 458 б.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019-yildagi PQ-4307-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlarini tasdiqlanishi va tarbiya jarayonining hamkorlikda tashkil etish borasida ham o'z yechimini kutayotgan muammolarga to'xtalib o'tilgan.

Qolaversa, PQ-4602 18.02.2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining »O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori ham tizimni tubdan isloh qilishga erishish, mahalla va oila mustahkamligini ta'minlaydi, degan fikrdamiz.

Bugungi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan «O'zini-o'zini boshqarish organlari»haqida ma'lumotni keltirib o'tishni joiz deb bildik.

O'zbekiston Respublikasidagi "O'zini-o'zini boshqarish organlari" haqida ma'lumot								
No	Hudud nomi	Jami fuqarolarul ng o'zini o'zi boshqarish organlari soni	Shaharcha fuqarolar yig'inlari soni	Qishloq fuqarolar yig'inlari soni	Ovul fuqarolar yig'inlari soni	Mahalla fuqarolar yig'inlari soni	Shu jumladan, jamoat hlik k asosidagi mahallalar soni	Qo'shni davlatlar bilan chegarados h bo'lgan fuqarolar yig'inlari soni
1	Toshkent v.	1026	0	0	0	1026	5	87
2	Farg'ona	1037	0	0	0	1037	0	82
3	Samarqand	1094	0	0	0	1094	2	14
4	Jizzax	291	13	81	0	196	0	27
5	Sirdaryo	222	0	4	0	218	1	26
6	Qoraqalpog'iston Respublikasi	411	13	0	142	236	0	32
7	Namangan	773	0	0	0	288	0	8
8	Toshkent sh.	508	0	0	0	508	0	0
9	Xorazm	512	0	1	0	511	0	62
10	Buxoro	544	0	0	0	543	0	9
11	Surxondaryo	718	0	0	0	718	5	48
12	Qashqadaryo	768	1	21	0	746	0	22
13	Navoiy	307	0	0	19	775	0	68
14	Andijon	880	0	0	0	880	1	70
15	Jami	9093	27	107	161	8796	14	555

2. Guruh rahbarining faoliyatini ota-onalar bilan ishlash shakl va metodlari. Guruh rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa

maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz:

1. *O'quvchilarning uylariga borish* – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda, guruh rahbari o'quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. *Ota-onalarni maktabga chaqirish*. Bundan maqsad, faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o'quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. *Ota-onalar bilan ishlash*. Bu esa o'quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. *Ota-onalar sinf majlisini o'tkazish*. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. *Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish*. Ota-onalar bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

6. *Savol-javoblar kechasi*. Ishning bu shakli sinf o'quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

7. *Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish (o'rtoqlashish)*. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:

- a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?
- b) o'quvchining kundalik rejimi haqida.
- v) «Ota-onalarning obro'si» haqida, «Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish» va h.k.lar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

8. *Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish*. Bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

- a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.
- b) «Ota-onalar, sizlar uchun» degan mavzuda og'zaki jurnal.
- v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Bizning yosh avlod xalqimizni inqilobiy, mehnat, jangovar



an'analarini o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini – g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o'rin tutishlari kerak.

Buni barcha guruh rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli paviyda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbai, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

Ma'lumki, xilma- xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qayerda ham faoliyatning xilma- xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Guruh rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishini tashkil etarekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh

bosqichlarida turlicha bo'ladi va to'liqinsimon o'zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo'ladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to'g'ri keladi, shundan keyin taxminan o'smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo'ladi. Yana ota-onalariing ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, o'z oilasini tuzguncha ancha kuchayadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'grisidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, yeh yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyini yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblarnaydilar. Ota-onalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K.D.Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, - degan edi u, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi - odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar, lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishni ta'kidlashadi».

Darhaqiqat bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va h.klar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga

olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. *Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish* orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va h.k.lardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. *Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi* o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. *Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi* – onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. *Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi* – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. *Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi* yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. *Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari*, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. *Qarorlar qabul qilishda kechikish*. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlarnaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarning oilalarida

vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'p bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining o'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;



– oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas‘ullikni ta‘minlash;

– sanitariya-gigiyenik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

– oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;

– sog‘ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta‘bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Respublika maktablarida oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar o‘rganilib, tahlil qilinganda quyidagi ish uslublari mavjud ekanligi ma‘lum bo‘ldi:

• **birinchidan**, ota-onalar bilan ishlashda, asosan, onalar maktabi, otalar maktabi, pedagogik bilim berish universiteti, oilaviy tarbiya, tajribalarni o‘rganish bo‘yicha konferensiyalar, savol-javob kechalari, dam olish kuni jamiyati va klublari, oilalararo musobaqalar va turli tanlovlar (bola tarbiyasi, ozodalik, saranjom-sarishtalik, oilada bolalar burchagi tashkil qilish, sport, to‘g‘ri mehnatni yo‘lga qo‘yish, namunali oilalar, eng yaxshi ota-onalar, hovlilar, tarbiyali farzandlar to‘g‘risida) tashkil etish;

• **ikkinchidan**, maktab o‘quvchilarining ota-onalar bilan ishlashi, ya‘ni ular maktab tarixi, qishloq yoki shahar o‘tmishi va hozirgi kundagi faoliyati, uning aholisi, tarkib topgan xalq an‘analari bilan muntazam tanishtirib boriladi. Ilmiy-amaliy konferensiyalar, dam olish kechalari, tarixiy obidalar va turli qadamjolariga sayohatlar uyushtiriladi. ota-onalarning maktab kabinetlarini jihozlashda, obodonlashtirish, bezatishda qatnashishlari ta‘minlanadi;

• **uchinchidan**, o‘quvchilar bilan ishlash yuzasidan dam olish klublari, jonajon o‘lka bo‘ylab yurishlar uyushtiriladi, ularning «Balli, qizlar», «Balli, yigitlar», «Nima, qayerda, qachon?» musobaqasi va tanlovlar, kasb haqida suhbatlar, to‘garaklar, seksiyalar, turli jamiyatlar ishlarida faol ishtirok etishlari ta‘minlanadi.

Oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oila boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishi ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdir.

Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Bu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkazilgan tadbirlarning ayrimlarini na- muna sifatida keltiramiz.

Ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar:

Suhbatlar yakka hamda umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy madaniyat elementlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarining ijtimoiy ongliklik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlari o'tkazish mumkin. So'rovnoma ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga, ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomadir. Quyida birinchi turdagi so'rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz.

«Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?» so'rovnomasi quyidagicha:

1. Farzandingiz ushbu o'quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?

2. Farzandingizning so'nggi o'quv yilidagi o'zlashtirish darajasi sizni qoniqtiradimi?

3. Farzandingizning fanlarga bo'lgan munosabati qanday?

4. Uning fanlarga bo'lgan qiziqishini baholay olasizmi?

5. Ijtimoiy munosabatlar (oilal, jamoa, keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?

6. Farzandlaringiz mansub bo'lgan mikromuhitning ma'naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do'stlashgan, ularning ma'naviy

qiyofasi sizning talablarinigizga javob bera oladimi?

7. Salbiy aloqa yoki ta'sir guvohi bo'lganmisiz?
8. Uning oilada tutgan o'rni qanday?
9. Maktabda, oilada vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Maktabning o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

a) guruh ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida 5 marta o'tkaziladi, ya'ni o'quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o'quv maskanining ichki tartib-qoidalariga, umumjamoa ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holati, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil qilinadi, navbatdagi davr uchun qilinadigan ishlarni ijobiy hal etish chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda tarbiya va ta'lim olayotgan, jamoa hayotida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida faollik ko'rsatayotgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnak bo'layotgan tarbiyalanuvchi- larning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

Ayrim ota-onalarning o'quv maskanida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol qatnashmasliklari aytib o'tilib, buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi;

b) maktab ota-onalar majlisi. Ota-onalar umumiy yig'ilishida o'quv yili davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o'quvchilarning intizomiy xulq-atvori, ijtimoiy me'yorlarga amal qilishlari, o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishilayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O'quv yili yakunida bo'lib o'tadigan umummaktab ota-onalar majlisida maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, huquqiy mazmundagi tadbirlarni uyushtirishda alohida ibrat ko'rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashgan bir guruh o'quvchilar va ularning ota-onalari rahmatnomalar bilan taqdirlanadi.

Bunday ma'ruza va suhbatlar ota-onalarga ijtimoiy, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan hamkorlik o'rnatish kabi masalalarda yordam beradi.

O'quvchilarni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla



hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4-bo'lim 6-bandida «Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi»- deb belgilab berilgan.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarini tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron bir mavzuta yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biron-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik

kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'alarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Ushbu kengashlar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida tashkil qilinishi va kengash a'zolarining barcha davlat va nodavlat tashkilotlariga, jamg'armalarga, jamoatchilik markazlariga va turli tashkilotlarga o'z vakolatlari doirasida murojaat qilishlariga imkoniyat yaratilishi kengash vazifalarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassmlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, zstetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, mustaqillik g'oyalariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

– ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari



harakatining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Birinchii bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalar berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, «Yosh onalar va otalar maktablari» faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhleri, «yakshanbalik maktablar» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, ularning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlar (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql-zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhleri va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarning (16 yosh va undan ortiq) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim

olishlari, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlari, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish, Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish hamda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish o'sib kelayotgan yoshlarni ezig'e'tiqodlar mujassamlashgan holda voyaga yetishga zamin yaratadi.

Nazorat savollari

Maktab, oila va mahalla hamkorligi konseptsiyasi qachon ishlab chiqilgan?

O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida oilaning vazifalarini sanab bering?

Yoshlar tarbiyasida mahallaning qanday vazifalari bor?

Oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari qaysilar?

Konstitutsiyamizda ola tushunchasining yoritilishi?

1-Prezidentimizning oila haqidagi fikrlaridan namuna keltiring?

Sh. Mirziyoyev asarlarida oila institutiga to'xtalib o'tgan fikrlaridan namuna keltiring?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PQ-4602 18.02.2020 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining »O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori. Lex.uz

2. Кудрявцев Ю. М. Основные принципы и закономерности функционирования и развития воспитательной системы высшего учебного заведения / Ю. М. Кудрявцев, О. Ю. Макарова // Вестник КНИТУ. – 2012. – 374№ 8. – 451 – 458 б.

3. М. Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999.



O. Musurmonova. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. T., «O'qituvchi», 1999.

4. Oilada barkamol avlod tarbiyasi (Professor O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Fan va texnologiyalar», 2010.

5. O. Hasanboyeva, M. Oniqov, M. Mamajonov. Oilada o'smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi. T., «Fan va texnologiyalar», 2011.

6. Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. T., «Mehnat», 1991.

7. www.ziyo.net

8. www.tdpu.uz

9. www.pedagog.uz

10. www.istedod.uz

11. www.lex.uz

12. www.my.gov.uz

TALABALAR MUSTAQIL ISHLASHI UCHUN MAVZULAR:

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmetini nima tashkil etadi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari.

3. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi.

4. Ota-onalarga pedagogik bilim berish.

5. Ota-onalar yig'ilishi.

6. Sinf rahbarining vazifalari.

7. Sinf rahbariga qo'yiladigan talablar.

8. To'garaklar tashkil qilish texnologiyasi.

9. Sinf rahbarining o'quvchilarni o'rganish metodikasi.

10. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligi oshirish metodikasi.

11. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish mexanizmi.

12. Tarbiyaviy soat.

13. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar.

14. Sinf rahbarining o'quvchilar bilan individual ishlashi.

15. Sinf rahbari va jamoatchilik.

16. Shaxsga jamoaviy ta'sir ko'rsatishning shakllari.



17. Shaxsga jamoaviy ta'sir ko'rsatishning metodlari.
18. Sinf rahbarining mahalla bilan olib boradigan xamkorlikdagi faoliyati.
19. Sinf rahbarining o'quvchilar bilim sifatini oshirish borasida olib boradigan ishlari.
20. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usullari.
21. Sinf rahbari mexribon murabbiy.
22. Sinf rahbarining vazifalari.
23. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
24. To'garaklarning turlari.
25. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish usullari.
26. Maktabdan tashqari ishlarni o'tkazish usullari.
27. Ota-onalar faollarini saylash.
28. Ota-onalarga pedagogik bilim berish shakl va rejalari.
29. Sinf rahbarining o'qituvchilar bilan ishlashi.
30. Sinf rahbarining Yoshlar Ittifoqi bilan olib boradigan ishlari.
31. Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari.
32. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari.
33. Sinfdan tashqari individual ish.
34. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yiladigan pedagogik talablar.
35. Direktor o'rinbosarining huquqlari.
36. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda tashkilotchiga qo'yiladigan talablar.
37. Maktabda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi.
38. O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari.
39. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat.
40. Sinf rahbarining muomala mahorati.

GLOSSARIY

Термин	Значение русского языка	Значение узбекского языка	Значение английского языка
Образование Таълим Formation	Результат обучения, система накопленных в процессе обучения знаний, умений, навыков, способов мышления.	Maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni	Specially prepared with use of knowledge of experts and to give them skills and qualification in the course of formation
Программа (учебная) образовання Таълим дастури Education program	Созданный в рамках системой обучения документ, определяющий содержание и количество знаний умений и навыков	O'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi ro'yxati	The fields of educational sciences, the bachelor and the master of qualification according to requirements of the list of proper and adequate training of personnel
Цель образования Таълим максати Education purpose	Решение проблем обучения и воспитания с положительным прогнозом. Запланированные результаты педагогической деятельности, стоящие в обеспечении такого развития и таких условий которые дадут полного расцвета своих потенциальных возможностей	Ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan asos hisoblanadi	Education and the training ground for the problem resolution with outstanding performance

Содержание образования Таълим мазмуни Content of education	Система научных знаний умений и навыков, мировоззренческих и нравственно эстетических идей.	Insonni O'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri	The person has to accept in the course of training of knowledge, skills and mentality
Методы образования Таълим методи Education methods	Процесс взаимодействия между учителем и учениками, в результате которого происходит передача и усвоение знаний, умений и навыков.	Ta'lim jarayonida O'qituvchi va talabalarimg aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir	Teachers and students in educational process of the joint activity directed to achievement of a specific goal
Мониторинг образования Таълим мониторинги Education monitoring	Регулярная процедура сбора данных по важным вопросам образования.	Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi	Development of technology for management of the level of development of data collection
Качество образования Таълим сифати Quality of education	Востребованность полученных знаний в конкретных условиях. Качество знаний определяется их фундаментальностью и востребованностью в работе.	Ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv massasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi	Participants of educational process, education level of satisfaction with services of formation of masses or education level of achievement of effective objectives and tasks.
Стандарты образования Таълим стандарти Standards of education	Совокупность требований, обязательных при реализации основных образовательных программ.	Ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashga qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni	Development of requirements of content for educational and educational indicators.

Принципы образования Таълим гамойилли Principles of education	Общие руководящие идеи, исходные нормативные требования к организации учебного процесса, которые учитываются во всех его компонентах.	O'qituvchi faoliyati va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir	Teachers study to know transactions and activities of property in the house.
Дидактические принципы Дидактик тамойиллар Didaktichesky principles	Основные положения, определяющие содержание, организационные формы и методы учебного процесса в соответствии с его общими целями и	Ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir	Training process is determined by contents of laws and training methods to the principles.
Средства образования Таълим воситалари Means of education	Объекты, созданные человеком, а также предметы естественной природы, используемые в образовательном процессе в качестве носителей учебной информации.	O'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jixozlari	After creation of educational process and to provide a wide range of the educational equipment.
Знание Билим Knowledge	Результат познавательной деятельности человека. Знание выступает в виде усвоенных понятий, законов, принципов.	O'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir	Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts.

Теоретическое знание Назарий билим Theoretical knowledge	Лишь косвенно опирающееся на реальность, созданное из каких либо абстрактных понятий	Narsa va hodisalar mohiyatini bilish, qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi	To know an essence of things and events, provides opening of laws
Научное знание Илмий билим Scientific knowledge	Система знаний о законах природы общества мышления	Obyektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi.	The purpose represents the world more precisely.
Сноровка Кўникма Skill	Ловкость, быстрота, умение в каком- нибудь деле приобретенные опытом	Insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati	On the basis of the person of the previous experience ability to perform a certain activity or operation.
Малака Навык Skill	Умение, созданное упражнениями, привычкой	Avtomatlashgan, o'rganib qolingan harakatdir	Got used to automated the movements.
Организовывать Ташкил этиш Organize	Умение составить чёткий график и следовать ему.	Qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish jarayoni	process of realization is more whole.
Форма Шакл form	Объект базы данных который можно использовать для разработки пользователя.	O'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.	The essence of educational process is a method of his internal logic, the maintenance of a cover.
Метод Усул Method	Путь исследования или познания для осуществления чего нибудь.	O'qitishning maqsad va vazifalariga erishish yo'li	Way to achievement of effective objectives and tasks of training
Методика Услубият Technique	Совокупность методов обучения чему нибудь, и их практического выполнения.	Qat'iy ketma – ketlikka va tizimga rioya qilish	it is strict to observe the sequence and system
Методология Methodologiya Methodology	Учение о научном методе вообще или о методах отдельных наук	Kishining maqsadga erishishidagi qoidalar majmui	One set of rules for achievement of goals

Результат Натижа Result	Конечный итог завершающий собой что нибудь	Dars mashhulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelish	It is planned to finish in the course of training
Способность Қобилият Ability	Умении, а также возможность производить какие-нибудь действия.	Kishining biror-bir faoliyatga yaroqliligi	Any activity, suitability
Педагогическая способность Педагогик қобилият Pedagogical ability	Совокупность навыков и умений позволяющих добиться успеха в процессе воспитания и обучения детей	Kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligi	His pedagogical activity of suitability
Технология Технология Technology	Совокупность процессов обработки или переработке. Технология-искусство, мастерство умение.	San'at va mahorat	Art and skill
Педагогик технология Педагогическая технология Pedagogical technology	Исследование с целью выявления принципов и разработке приёмов оптимизации образовательного процесса, конструирование и применение приёмов, оценка применяемых методов.	Ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash	Use of modern pedagogical technologies in educational process and process of training
Иновация Иновации Innovation	Новшество.	Yangilik, yangilik kiritish	Innovation
Мастерство Махорат Skill	Способность качественно выполнять те или иные виды работ. Высокое искусство в какой либо области.	Bir necha yillar davomida shakllangan va rivojlangan tajribalar	In several years, formation and development of experience

Лекция Маъруза Lecture	Устное изложение учебного предмета.	Yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli	To explain a large number of a training material in an oral form
Педагогическая Техника Педагогик техника Pedagogical Equipment	Комплекс знаний умений и навыков необходимых педагогу.	O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini boshqarishga aytiladi	The teacher has told to control the actions
Педагогическое приличие Педагогик одоб Pedagogical decency	Соблюдать приличес. контроль.	O'qituvchining muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishi	Dialogue with the teacher. on the basis of positive emotions
Педагогическая деликатность Педагогик наюкат Pedagogical sensitivity	Духовно-нравственное качество, означающее утонченно внимательное, состоянием и настроением	Psixologik his-tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda foydalanish	Psychological feelings. feature of national nature, behavior, transaction, handling of rules, laws and standard skills
Профессия Касб Profession	Основной род занятий, трудовой деятельности.	Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyatining bir turi	Kind of activity which demands special knowledge and skills in the field of work
Профессиональная подготовка Касбий тайёргарлик Professional pogotovka	Процесс овладения знаниями, навыками и умениями, позволяющими выполнять работу.	Muayyan sohada kasbiy faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan maxsus bilim, ko'nikma va malaka	To allow some operations in the field of professional knowledge, skills and qualification
Младший специалист Кичик мутахассис Younger	Образовательно-квалификационный уровень.	O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasi	Taking into account graduates of secondary professional education of qualification
Специальность Ихтисослик Speciality	Конкретный вид профессиональной подготовки.	Birorta kasb doirasidagi maxsus tayyorgarlik	Any special skills of a profession in limits
Профессиональное мастерство Касбий махорат Professional skill	Высокий уровень деятельности в своей работе	Ishlarni bajarish sifati	Quality of performance of work

Компетентность Компетентлик Competence	Наличие всесторонними знаниями и опытами собственной деятельности..	Kasbiy tayyorgarlik, kasbiy va shaxsiy sifatlar jamlanmasi	The vocational training, professional and personal qualities established
Система Тизим System	Целое, совокупность элементов.	Yaxlitlik, bir butunlik	Honesty, integrity
Педагогика Педагогика Pelagogika	Детоводство	Bola tarbiyalovchi	education of the child
Педагогическое требувание Педагогик таалаб Pedagogical requirement	Процесс вооружения детей нормами поведения.	Muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari	Some students have to address to be a part of process of social norms of behavior
Воспитание Тарбия Education	Передача нажитого опыта, старшим поколением, младшему поколению	Ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy jarayon	Purposeful process
Содержание воспитания Тарбия мазмун Content of education	Система знаний, навыков, способов деятельности, отношений, качеств и черт личности.	Shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati	Formation of the person on the nature of social requirements
Дойроҳалатириш Проектирование Design	Последователь- ность	Rejalashtirish	Planning
Креативность Креатив Creative	Творческий	Ijodkorlik	Creative
Рефлексия Рефлексия Reflektion	Обращение назад.	Ortga qaytish	Back
Индивидуальность Индивидуаллик Person	Своеобразие и неповторимость.	Insondagi o'ziga xoslik	Identity of the person
Анализ Тахлил қилиш Analysis	Разложение на части.	Materiallarni qismlarga ajratish	Materials components

Синтезирование Синтезлаш Synthesizing	Процесс соединения или объединения.	Alohida-alohida materiallarni umumlashtirish, yaxlitlash	Finish separately materials
Оценивание Баҳолаш Ottseivaniye	Контроль качества образования.	Natijalar bilan maqsadni qiyoslash	To compare results
Умственное воспитание Ақлий тарбия Intellectual education	Формирование интеллектуальной культуры, познавательных мотивов, умственных сил, мышления, мировоззрения и интеллектуальной свободы личности	Insonning atrof-olamni bilishga bo'lgan qarashlar tizimidir	To learn about the world of system of ecological vision
Физическое воспитание Жисмоний тарбия Physical training	Понимаются двигательные действия, специально организованные и сознательно выполняемые в соответствии с закономерностями и задачами физического воспитания.	Sihat-salomatlikni mustahkamlash	Good health
Ривожланиш Развитие Development	Процесс упрощения и удовлетворения потребностей и изменения физического и интеллектуального качества знаний	Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishidagi miqdor va sifat o'zgarishlar	Changes of quantity and quality of physical and intellectual human height
Гуманность Инсонпарварлик Humanity	Справедливость	Inson omilini hurmat qilish	Respect for a human factor
Непрерывность Узлуксизлик Continuity	Функция без«скачков» т.е. у которой малые изменения	Ish harakat usullarini belgilangan vaqt davomida berish	Methods to try to work during the certain period of time

Организаторство Ташкилотчилик Organizatorstvo	Сплочение учеников	O'quvchilarni jipslashtirish	students to combine
Исследовательство Тадқиқотчилик Researcher	Узнавать педагогический процесс	Pedagogik vaziyat va jarayonlarni bilish	Pedagogical conditions and information processes.
Профессиональный потенциал Касбий потенциал Professionalny potential	Профессиональная возможность, совокупность возможностей и способности	Kasbiy imkoniyat	professional opportunities
Контроль Назорат Monitoring	Проверка	Tekshirish	Survey
Рейтинг Рейтинг Rating	Расстановка приоритетов, оценка порядок классификация	Baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash	Assessment of an arrangement, classification.
Интеграция Интеграция Integration	Процесс объединения частей в целом	Gibritlashgan, qo'shma mazmunli, muvofiqlashtirish	Hybrid, considerable joint coordination
Интеграция в образовании Таълимда интеграция Integration in education	Связь одной науки с другой, процесс установления связи между структурными компонентами.	Kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o'ta muhim va o'quvchilarni ijodiy kamolot sari yo'naltiruvchi mexanizmdir	Vocational training is very important also art perfection, the handbook for students.
Идеологическая направленность Гоявий йуналганлик Ideological orientation	Слово, разум, учения – совокупность системно упорядоченных взглядов, выражающие интересы различных социальных классов.	Zamon talablariga hamnafas, chuqur g'oyaviylikka ega bo'lish	Present, deep ideas

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Huquqiy me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi oliy kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. T.: «Ozbekiston» 2007, 13-14-b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; «Sharq», 1997, 20-29 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.03.1998 yildagi 130-sonli «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqidan.
5. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T: O'zbekiston, 2016. 14-b.
6. PQ-2707-sonli 29.12.2016 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining »O'zbekistonda 2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
7. PF-5106 05.07.2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» Farmoni.
8. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. 2018-yil 10-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligi»gabag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzasidan.
9. PQ-43073 may 2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarori.
10. 2019 yil 31 dekabrda 1059-son Vazirlar Mahkamasining »Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.
11. PQ-4602 18.02.2020 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining »O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Qarori.
12. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Xalq ta'limi tizimidagi

maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huququiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.
2. Karimov I. A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».T.: «O'zbekiston». 1998 – yil.
3. Karimov I.A. «Xotira va qadrlash muqaddas ma'naviy tuyg'u» , T.: 1999 y
4. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» T.: «Ma'naviyat». 2008.
5. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent, «O'zbekiston», 2009. – 24 bet.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993y.
7. Abdulaziz Mansur umumiy tahriri ostida. Qur'oni Karim tarjima va tafsiri. T.: Islom universiteti nashriyoti. 2018. 77-78-bet.
8. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: Издательство «Аспект Пресс». -2014. Издание: 5-е. -363 стр. С. 89.
9. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture, Routledge, USA, 2012.
10. А. В. Фахрутдинова Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / А. В. Фахрутдинова // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215 – 220.
11. А.Н.Колосникова М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. М., 2006
12. А.С. Makarenko. Педагогическая поэма//соч. М., 1957.
13. А.С. Макаренко. О воспитании //Золотой фонд педагогики.- М.: Школьная пресса, 2003.- 192 с.
14. «Axloq-odobga oid hadis namunalari».T 1998 y, –72 b.
15. A.Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» T, 1992y. 160 b.
16. A. Voljskiy. Metodika vospitatelnoy rabot s molodejyu. – M. 2003.
17. A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. T.: «Iqtisod-moliya» 2011.
18. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 34-39 b.
19. Bogardus E.S. Measuring social distance // J. of applied sociology. 1925. Vol. 9.
20. Байкова Л.А. Гуманизация педагогической системы



образовательного учреждения: Теория и опыт: Моногр. / Байкова Л.А.- Рязань: РГПУ им. С.А. Есенина, 2000.-248 с., С.П.Баранов «Педагогика: Учеб. пособие для пед. уч-щ по спец.№ 2001.

21. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

22. Creamer D. G. College student development: Theory and practices for the 1990-s / D. G. Creamer. – Alexandria, VA: American College Personnel Association, 1990. – 156 p.

23. E.Yuzlikayeva, Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

24. E.Yuzlikayeva, Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obshey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.

25. Ф. Самуйленков. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя. – М.: Просвещения, 1990.- 254 с.

26. Г.М.Коджаспирова. Теория и практика профессионального педагогического самообразования. - М.: МГОПИ, Алфа, 1993. - 120с.

27. T. Sodiqova Murabbiy kim?... – T.: «Toshkent islom universiteti», 2006. 83–b.

28. Tate D. S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D. S. Tate, C. L. Schwartz // Journ. Of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.

29. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –b T.: O'qituvchi, 1996.

30. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

31. Hoshimov K., C.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.

32. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T.: 2006.

33. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.

34. I.F.Isaev Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: Akademiya, 2002 y.

35. J.Hasanboyev, X.To'raqulov, Alqarov, N. Usmonov. Pedagogikadan izohli lug'at.

36. J.Hasanboev, X. To'raqulov, M.Xaydarov, O.Hasanboyeva. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: «Fan va texnologiya» 2008, 313-314-b.

37. J.Yo'ldoshev «Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi» nomzodlik dissertatsiyasi, T., 2002

38. J.G'. Yo'ldoshev. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish

(qo'llanma)-T.:2000.

39. J.G'.Yo'ldoshev Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar». –T; 1992, –28 b.

40. Железняк О.Н. О принятии в Японии нового основного Закона об образовании.

41. Крылова У. Как воспитывают детей в США? /Digest.subscriberu.

42. Коменский Я. А. Лабиринт света и рай сердца / Я. А. Коменский. – М.: МИК, 2000. – 311 б.

43. Караковский В. А. Воспитание? Воспитание... Воспитание!?: Теория и практика школьного воспитания / В.А.Караковский, Л. И. Новикова, Н. Л.Селиванова. – М.: Новая школа, 1996. – 54б.

44. Кудрявцев Ю. М. Основные принципы и закономерности функционирования и развития воспитательной системы высшего учебного заведения / Ю. М. Кудрявцев, О. Ю. Макарова // Вестник КНИТУ. – 2012. –374№ 8. – 451 – 458 б.

45. Лихачев Д. С. Воспоминания. Раздумья. Работы разных лет: в 3 т. Т. 1 /Д. С. Лихачев. – СПб.: APC, 2006. – 396 б.

46.

47. M.G. Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.

48. M. Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999.

49. M. Mahkamov «Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T. 2005.

50. Makarenko A. S. Sochineniya: v 8 t. T. 5 G' A. S. Makarenko. – M.: APN SSSR, 1985. – 333 b.

51. Макарова О. Ю. Воспитательное пространство вуза и его роль в подготовке молодого специалиста / О. Ю. Макарова // Педагогическое образование: история, современность, перспективы. – Казань, 2012. –С. 291 – 293.

52. Максимов, В.Г. Педагогическая диагностика в школе / В.Г. Максимов. – Москва : Академия, 2002. – 272 с. С-154.

53. M. Ochilov «Muallim – qalb me'mori» T.: «O'qituvchi» 2001.

54. M. Ochilov «O'qituvchi odobi» T.: «O'qituvchi» 1997.

55. M. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

56. N.O.Ortiqov, Jo'rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. T.:«O'qituvchi», 1989.

57. N.To'xliyev umumiy tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati uchinchi jild N — Tartibli «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», Davlat



ilmiy nashriyoti, T.: 2007, 678-b.

58. N.Raximjonov «Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli» T., 2005 (B.M.I.)

59. N. Xo'jaev. Tarbiya nazariyasi. va boshqalar. – T.: – 2003.

60. N.Raximjonov «Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli» T., 2005.

61. O. Musurmonova. Oila ma'naviyati — milliy g'urur. T., «O'qituvchi», 1999.

62. O. Hasanboeva Kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlar. T.1994y.

63. O. Hasanboeva Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: 2001.

64. O. Hasanboyeva tahriri ostida. Oilada barkamol avlod tarbiyasi T., «Fan va texnologiyalar», 2010.

65. O.Hasanboyeva, M. Inoqov, M. Mamajonov. Oilada o'smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi. T., «Fan va texnologiyalar», 2011.

66. O. Hasanboyeva, G. Shomaribxo'jayeva, Sh. Egamnazarova, N. Qayumova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma 4-nashri. T - «Ilm ziyo» - 2016.

67. Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.

68. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools Leadership guide Status: 8.Recommended.Date of issue: 09-2004.Ref: DfES 0444-2004 G.10.

69. P.I. Pidkasiogo. Pod red. Pedagogika. - M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003.- 608 s.

70. Pisarenko V. I.Pisarenko P.Ya.Pedagogicheskaya etika.Minsk, 1977. 10-11-b.

71. P.I.Ruvinskiy Tarbiyaviy ishlar metodikasi.. – T. 1991 y.

72. Qurbonniyazova Z.«Tarbiyaviy ishlar jarayonidatarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari» nomzodlik diss. T., 2002 y

73. R. Mavlonova, O'To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika.- T.:»O'qituvchi», 2002.

74. R.Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-T.: «Tib-kitob», 2010.

75. Развитие образования в европейских странах в условиях глобализации и интеграционных процессов: Сборник научных трудов / Коллектив авторов: Вульфсон Б.Л., профессор, д.п.н., член-корр. РАО, Савина А.К., д.п.н., Долгая О.И., к.п.н., Дудко С.А., Лысова Е.Б.,

к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, - 2013. - 448 с.с. 321.

76. S. Nishonova. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. -

77. С.А., Лысова Е.Б., к.п.н., Писарева Л.И., к.п.н. - М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, - 2013. - 448 с.с. 321.

78. С.Т. Щацкий. Бодрая жизнь. Дети работники будущего. Пед. Соч. В 4 – М., 1962, Т. 1.

79. Сент-Экзюпери А. Сочинения: в 3 т. Т. 3. Репортажи, письма, очерки /А. Сент-Экзюпери. – Рига: Полярис. – 415 б. – (UrbietOrbi).

80. В.А. Сухомлинский. Мудрая власть коллектива. М. 1975.

81. В.А.Сухомлинский Духовной мир школа. – М., 1961.

82. В.И. Загвязинский. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 1987.- 160 с.1001 hadis. Т. 2009.у

83. Z.D.Baubekova Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. – T. 1991 y.

84. X.Uzoqov, G'ozieva E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T.:.1992 y

85. O'. Asqarova va boshq. Mehribonlik uylarida tarbiya. T.2008y.

86. Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. Barkamol avlod orzusi// Tuzuvchilar:. – To'ldirilgan 2-nashri. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000. – 248 b.

87. Internet saytlari

88. www.ziyo.net

89. www.tdpu.uz

90. www.pedagog.uz

91. www.istedod.uz

92. www.lex.uz

93. www.my.gov.uz

94. <https://selfmadetrip.com/vyisshee-obrazovanie-v-yuzhnoy-koree/>

95. National Standards for Civics and Government: Center for Civic Education [Electronic resource]. – URL: <http://www.civiced.org/stdst.htm>.

96. Character Education – ERIC Resources [Electronic resource]. – URL: www.indiana.edu.

97. National Council for the Social Studies, Curriculum Standards: SocialEducation // National Council for the Social Studies. – 2001. – 65 (5). – P. 315. –318.



MUNDARIJA

I modul. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining nazariy asoslari

1.2. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida.....	3
1.3. Jahon tarbiya kontsepsiyalari.....	26
1.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasi.....	41
1.5. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahorati.....	73
1.6. Tarbiya jarayonida muomalaning tutgan o'ri.....	89

II modul. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining amaliy ahamiyati

2.1. Ta'lim muassasasi tarbiyaviy tizimida guruh rahbari.....	103
2.2. Jamoani shakllantirish metodikasi.....	113
2.3. AL va KHK larida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish...	124
2.4. Mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning o'ziga xosliklari.....	137
2.5. Mehribonlik uylarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning o'ziga xosliklari.....	140
2.6. Yoshlar tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan ishlarning mazmuni.....	157
2.7. Tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo'li ari.....	169
2.8. Bolalar va yoshlar jamoat tashkilotlari.....	183
2.9. Tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.....	197
Glossariy.....	220
Foydalanilgan adabiyotlar	229

к.п.
Цер
7
7
РАС
7
В 4
7
очер
80
81
82
тека
Т. 20
83
1991
84
Т.:».
85
86
Туз
ensik
87
88
89
90
91
92
93
94
95
Educ
96
www.
97
Socia
(5). –

Oquv nashr

Z. E. AZIMOVA

TARBIYAVIY ISH METODIKASI

5110900 – «Pedagogika va psixologiya» bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun

O'quv qo'llanma

Muharrir:	M. Abduvaliev
Texnik muharrir:	R. Umrzoqov
Musahhih:	M. Qobilova
Sahifalovchi:	R. Umrzoqov

Terishga berildi 10-aprel 2021-yil.
Bosishga ruxsat etildi 17-avgust 2021-yil .
«Times New Roman» garniturası.
Bichimi 60x84. $\frac{1}{32}$
Hajmi 14 bosma taboq.
Buyurtma № 12 Adadi 50 nusxa.
Bahosi shartnoma asosida.

Original maket asosida «Hayot nashri-2020» MCHJda chop
etildi. Manzil: Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy